O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

DASTURLASH ASOSLARI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

fani bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2018

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. Axborot va axborot jarayonlari

Axborot. Axborot o‘lchov birliklari. Axborotni kodlashtirish. Axborot almashinuvi. Axborot texnologiyalari. Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari. Shaxsiy kompyuterlar. Kompyuter tarmoqlari. Lokal va global tarmoq. Axborot texnologiyalarining apparatli vositalari. Axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari. Amaliy dasturlar.

2-modul. Filologiyada axborot texnologiyalari

Matnni avtomatik o‘qish tizimlari. Matnni “tarjima qilish” tushunchasi. Avtomatik tarjima vositalari. Tarjima bosqichlari: Mark Tuliy Sitseron, V-XVII asrlarda tarjimashunoslik, XX asr o‘rtalarida tarjima, lug‘atlar va maxsus kompyuter dasturlari. Mashina vositasida tarjima qilish. Matnni interpretatsiya qilish. So‘zlarni morfologik tahlil qilish. Gaplarni sintaktik tahlil qilish mexanizmlari. Mashina tarjimasidagi avtomatik lug‘atlar. Tarjima qilinadigan matnning sintaktik mosligini aniqlash tizimlari. Matnni bir tildan boshqasiga o‘tkazish algoritmlari. Lingvistik va filologik resurslar. Sun’iy intellekt.

3-modul. Tarmoqlar

Kompyuter tarmoqlari. Kompyuter tarmoqlari klassifikatsiyalari. Kompyuter tarmoqlari ierarxiyasi. Kompyuter tarmoqlari topologiyasi. Serverlar. Kompyuter tarmoqlari dasturiy vositalari. Tarmoq texnologiyalari. Internet global tarmog‘i. Elektron pochta. IP-manzillar. Domen. Internet tarmog‘i bilan ishlash vositalari. Izlash tizimlari. Izlash tizimlari xarakteristikalari. Elektron kutubxona va internet resurslar.

4-modul. Dasturlash tillari

Dasturlash tillarining umumiy xarakteristikasi. Dasturlash tillarida ma’lumotlarni ifodalashning vositalari. Ma’lumotlar va ularni kodlar shaklida ifodalash. Sanoq tizimlari. Pozitsion va pozitsion bo‘lmagan tizimlar. Operativ xotira va registr. Bir sanoq sistemasidan boshqasiga o‘tkazish.

Algoritm xususiyatlari. Algoritmni ifodalash usullari. Operatorli algoritmlar. Blok-sxema. Oddiy tuzilmali algoritmlarni ishlab chiqish. Oddiy va murakkab tiplar. Tiplarni o‘zaro o‘tkazish. Chiziqli dasturlar. Shart operatorlari. Tarmoq operatorlari.

Algoritm va abstrakt mashinalar. Funksiyalar. Massivlar. Satrlar. Fayllar ustida amallar. Rekursiv algoritmlar. Dinamik xotira va unda axborotni saqlash. Algoritmning murakkabligi. Algoritmlarni baholash. Massivlarda izlash va tartiblash. O‘rin almashtirishlar. «Ochko‘z» algoritmlar. Graflarda algoritmlar. Leksik va sintaktik tahlil. Matnlar ustida algoritmlar.

5-modul. Dasturlash texnologiyalarining zamonaviy yo‘nalishlari

Yuqori darajali dasturlash tillari va ularning asosiy xarakteristikalari. Protseduraga asoslangan dasturlash. Ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash. Integrallashgan dasturlash. Zamonaviy informatsion tizimlarda dasturlash. Modulli dasturlarni yaratish. Ob’ektli tiplar. Inkapsulyatsiya. Vorislash. Polimorfizm. Klasslar va ob’ektlar. Konstruktorlar va destruktorlar. Oynali operatsion tizimlarda dasturlash. Menyu. Dasturni sozlash va testdan o‘tkazish. Vizual dasturlash asoslari.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarning maqsadi nazariy olingan bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni bajara olish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar tarjimonlikda mavjud kompyuterli dasturiy ta’minotlar (ABBYY Lingvo, Multitran, Polyglossum, Promt) dan amaliyotda samarali foydalanish usullari hamda ulardan dars jarayonida foydalanishni o‘rganadilar.

Amaliy mashg’ulotlarning taxminiy mavzulari ro‘yxati

1. Windows OS. Masalalar panelini sozlash. Obyektlarni ochish, yig’ish, yopish, oyna o‘lchamlari va joylarini o‘zgartirish. Ish stolida fayl, papka va yorliqlar yaratish.
2. Zip va Rar formatli arxivlangan fayllarni hosil qilish va ularni arxivdan chiqarish.
3. Kompyuterda viruslar va mavjud antivirus dasturlaini ishlatish.
4. Matn muharriri yordamida hujjatlar yaratish va tahrirlash. Matn kiritish, tahrirlash va xotirada saqlash. Matn qismlarini ajratish usullari.
5. Matn muharririda bufer yordamida matnning ko‘chirish, nusxalash va o‘chirish. Matnni formatlash.
6. Matn muharririda obyektlar yordamida matnni turli ko‘rinishlarda yozish. Jadval yaratish va ularda o‘zgartirishlar qilish.
7. Matematik formulalar yozish. Snoska, kolontitul va gipermurojaatlar.
8. Taqdimot dasturida slayd, fon, shablon va animasiyalar. Tovush effektlari. Prezentasiyada slaydlar almashinishini qo‘lda va avtomatik tarzda tashkil qilish.
9. Elektron jadvalda ma’lumotlar bilan ishlash. Ma’lumotlarni formatlash. Funksiya va diagrammalar ustasi bilan ishlash. Tayyorlangan hujjatni bosmaga chiqarish. Mutaxassislikka oid masalalarni bajarish.

10. Berilganlar bazasini hosil qilish, saqlash, tahrirlash, so‘rovlar, shakllar, hisobotlar va sahifalar tashkil qilish.
11. Internet. Qidiruv tizimidan foydalanib zarur adabiyotlarni topish va olish.
12. Elektron pochta. EP ro‘yxatidan o‘tish. Xat yozish, jo‘natish va kelgan xatlarni o‘qish.
13. HTML tili. Sarlavha, sahifaga jadval, rasm va murojaatlar qo‘yish. Harakatlanuvchi obyektlar hosil qilish. Shrift ranglari va sahifa fonlari. Har xil atributlar. Sahifani ochib ko‘rish va uni tahrirlash. Sayt tushunchasi. Internetda saytni joylashtirish.
14. Tarjimon dasturlari bilan ishlash.
15. Ifodalar va operatorlar.
16. Arifmetik va mantiqiy operatorlar.
17. Tiplarni boshqa tipga o‘tkazish.
18. Konsoldan kiritish va chiqarish operatorlari.
19. Shart operatorlari. "if" va "if-else", "switch-case" shart operatori
20. Sikl operatori. For, Foreach, Do-While operatori.
21. Massivlar bilan ishlash.
22. Qism dasturlar.
23. Ma’lumotlarning abstrakt tiplari va inkapsulyasiya tuzilishi
24. Obyektga yo‘naltirilgan dasturlash.
25. Xatoliklar bilan ishlash.
26. Satrlar ustida amallar.
27. Fayllar ustida amallar.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Labaratoriya mashg‘ulotlaridan maqsad talabalar ma’lum mavzular bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini dasturlash orqali mustahkamlaydilar. Bunda talabalar mashg‘ulotlarda misol va masalalarni yechishda, yechimlarni tahlil qilishda qo‘llay olishlari nazarda tutiladi.

Laboratoriya mashg’ulotlarning taxminiy mavzulari ro‘yxati

1. MS Word muhitida hujjat yaratish.
2. MS Excel dasturida elektron jadvallar bilan ishlash.
3. MS Access muhitida ma’lumotlar bazasini yaratish
4. MS Power Point muhitida taqdimot yaratish
5. Matnni avtomatik o‘qish tizimlarini sozlash va foydalanish.
6. Avtomatik tarjima vositalari bilan ishlash.
7. Kompyuter tarmoqlaridan foydalanish.

8. Elektron pochta bilan ishlash.
9. Kompyuterda viruslar va mavjud antivirus dasturlarini ishlatish.
10. Izlash tizimlaridan foydalanish.
11. Ma’lumotlarni himoyalash.
12. Web sahifa yaratish.
13. Oddiy va murakkab tiplar. Tiplarni o‘zaro o‘tkazish.
14. Shart operatorlari. Tarmoq operatorlari. Sikl operatorlari.
15. Funksiyalarni yaratish va qo‘llash.
16. Massivlar ustida amallar.
17. Satrlar bilan ishlash.
18. Fayllar ustida amallar.
19. Ob’yektga yo‘naltirilgan dasturlash.
20. Formali dastur ishlab chiqish.

Kurs ishini tashkil etish

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

Mustaqil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni

Mustaqil ishning maqsadi olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, belgilangan mavzular asosida qo‘shimcha bilim olishdan iborat. Bunda ushbu ishlarni bajaradilar:

- amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
- nazariy tayyorgarlik ko‘rish;
- uy vazifalarni bajarish;
- o‘tilgan materiallar mavzularini qaytarish;
- mustaqil ish uchun mo‘ljallangan nazariy bilim mavzularini o‘zlashtirish.

Bunda talabalar ma‘ruzalarda olgan bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarni bajarishlari bilan mustahkamlashi hamda statistikaning ba‘zi mavzularini tushunishi hamda ularga oid masalalarni yechishlari kerak.

Mustaqil ish mavzularini o‘zlashtirish ta‘lim jarayonida uzluksiz nazorat qilib boriladi va yozma hisobot sifatida topshiriladi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta’lim mavzulari

1. Kompyuter tarmog’i servislari.
2. Rasm fayllarini tahrirlovchi dasturlar.
3. Ovoz fayllarini tahrirlovchi dasturlar.
4. Video fayllarini tahrirlovchi dasturlar.

5. Respublikamizda davlat organlari tomonidan taqdim etilayotgan interaktiv xizmatlar va ularning ahamiyati.
6. Elektron ta’lim tizimlari.
7. Ijtimoiy tarmoqlar.
8. Yuqori bosqichli algoritmik tillar

Dasturning informatsion-uslubiy ta‘minoti

Fanni o‘qitish jarayonida mavjud nashr qilingan o‘quv qo‘llanmalari va elektron manbalar, Internet tizimidagi mos ta‘lim saytlari ma‘lumotlaridan http://www.zionet.uz va shunga o‘xshash saytlaridan foydalaniladi. Kompyuter texnikasini qo‘llash bilan bog‘liq zamonaviy pedagogik va informasion texnologiyalar asoslangan o‘qitish metodlari qo‘llaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Svetin Yakov, Veselin Kolev & Co. Fundamentals of computer programming with C#. Sofia, 2013.
2. Endryu Troelsen. S# i platforma .NET. – SPb.: Piter, 2012g. - 796 s.
3. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.; “Faylasuflar jamiyati”. 2013. 350 bet.
4. M.Aripov, A.Madraximov. Informatika, informatsion texnologiyalar. Darslik. T: TDYuI., 2004.
5. D.Watson, H.Williams Computer Science. 2014 y. ISBN 978 1471809309, eISBN 978 1471809323

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. **E**ndryu Troelsen. S# i platforma .NET. – SPb.: Piter, 2012g. - 796 s.:
2. Tom Archer. Osnovы S#. – M.: Izd.-torgovыy dom «Russkaya redaksiya», 2010 g.
3. Labor V. V. Si Sharp: Sozdanie prilojeniy dlya Windows/ V. V. Labor.— Mn.: Xarvest, 2013.
4. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. O‘quv qo‘llanma -T: “O‘zdavJTU”, 2010.
5. Aripov M.M., Kabiljanova F.A., Yuldashev Z.X. «Informatsionnыe Texnologii». Elektronnoe posobie dlya studentov VUZov (CD), Tashkent 2008, NUUz
6. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: “Noshir”, 2009.
7. Yu. A. Alyaev, O.A. Kozlov. Algoritmizasiya i yazыki programmirovaniya – M: Finansы i statistika, 2007.

8. Tom Archer. Osnovы S#. – M.: Izd.-torgovыy dom «Russkaya redaksiya», 2010 g.

Internet saytlari

1. http://www.ctc.msiu.ru/materials/Book1,2/index1.html
2. http://www.ctc.msiu.ru/materials/CS_Book/A5_book.tgz

1-Mavzu. Dasturlash tillari konsepsiyasi

Reja

1. Dasturlash tillari tushunchalarini o‘rganish sabablari
2. Dasturlash domenlari
3. Til o‘rganish qoidalari
4. Dasturlash tillari evolyusiyasi
5. Sintaksis va semantika tavsifi

1. Dasturlash tillari tushunchalarini o‘rganish sabablari

Tabiiy xolki studentlar dasturlash tilini o‘rganishning asosiy qoidalaridan qanday foyda olishga ajablanishadi. Shunga qaramasdan ko‘plab kompyuter texnikasiga oid bilimlar jiddiy o‘rganishga munosib. Quyida dasturlash tilini o‘rganish koidalaridan foydalilarini keltiramiz.

- ***Tushunish qobiliyatining o‘sishi.***

Bu turlicha tushuniladiga biror narsani jiddiy o‘ylash kobiliyatida odamlar tilning ma’no kuchi orkali o‘ylaganlari ta’sirida ularni aloqaga kirgizadi. Bular tilni sayoz tushunish bu tilning qismlarini tushunishni chegaralaydi, odatda muxim mavxumlikni xam boshkacha qilib aytganda odamlar og‘zaki yoki yozma nutqda tuzilishlarni fikrlay olishmaydi va tasvirlab berisha olmaydi.

Dasturchilar fikrlari asosan dastur jarayonini rivojlantirishga qaratiladi. Dasturiy joylar chegaralarini rivojlantirish qaysi til nazorat tuzilmalari turlari, ma’lumotlar tuzilmalari, ma’lumotlardan foydalanish, ular qurish mumkin algoritmlarini shakllari xam shunday cheklangan . Dasturlash tili xususiyatlarini turli anglash, bunday cheklovlar dasturiy ta’minot ishlab chiqishni kamaytiradi. Dasturchilar til tuzulmalarini o‘rganish orkali dasturiy ta’minot ishlab chikish diapazonini oshirishadi. Buni ilgari surish mumkinki, boshka til imkoniyatlarini o‘rganish dasturchiga til imkoniyatidan foydalanishga xalaqit beradi. Chunki boshka tillar bir birini ko‘llab kuvvatlamaydi.Boshqacha kilib aytganda dasturlash tili asosiy koidalarini o‘rganish til xususiyatlari uchun qimmatli baxo beradi, xattoki til xususiyatlari va qurulmalari bir biriga to‘g‘ri bo‘lmasa xam dasturchilar foydalana oladi.

- ***To‘g‘ri til tanlay olish***

Ko‘plab moxir dasturchilar kompyuter ilmiga oid bilimlari yetarli bo‘lmagan, shunga karamasdan ular o‘zlarining dasturlash kobiliyatlarini mustakil o‘stirishgan. Bunday o‘kuv dasturlari ko‘pincha bu dastur loyixasiga oid bir yoki ikki tilni chegaralaydi. Ko‘plab boshka dasturchilar to‘g‘ri shug‘ullanish usullarini qabul qilishgan. Ular o‘rgangan tildan foydalanishmagan va ko‘plab xususiyatlari hozirda

ushbu tilni o‘rganishda kimmatli emas. Natijada ko‘plab dasturchilarga yangi loyixa berilsa ular sayoz tildan foydalanishadi. Agar ular ko‘plab tillarni bilishsa loyixaga eng ko‘p kaysi til mos kelishini bilishadi. Bir tilning ba’zi xususiyatlari boshka tilga mavxumligicha qoladi.

- ***Yangi tillar o‘rganish kobiliyatining oshishi***

Kompyuter dasturlari xali yosh va uslubiy dizayn, dasturiy ta’minot ishlab chiqish vositalari uzluksiz rivojlanmokda. Bu dasturiy ta’minotni ishlab chiqish uzluksiz o‘rganishga muxtoj. Yangi dasturlash tilini o‘rganish jarayoni davomiy va qiyin bo‘lishi mumkin, ayniksa o‘zida bir yoki ikki tillarni tajriba qilmagan dasturchilarga tilning asosiy koidalarini yaxshi tushunish, bu qanday koidalar tarkibiga kirishini ko‘rish oson bo‘ladi. Misol uchun dasturchi obektga yo‘naltirilgan dastur tilini bilsa Javani oson o‘rgana oladi. Xozirda ko‘plab dasturlash tillaridan keng foydalanilmokda. So‘nggi ma’lumotlarga qaraganda dasturlash tillari tez o‘zgarmokda. Bu shuni ko‘rsatadiki dasturchilar bu tillarni o‘rganishga tayyor bo‘lishlari kerak. Oxir okibatda dasturchilar tilini va koidalarini bilishi orqali dasturni oson tushuna oladi.

- ***Bajarilayotgan ish moxiyatini yaxshi tushunish***

Dasturlash tili koidalarini o‘rganish bu jarayon natijasini ko‘rish uchun xam kerak xam qizikarli. Jarayonni tushunish nega bu til aynan shunday yaratilganligini tushunishga olib boradi. Bu esa tildan samarali foydalanishga yordam beradi.

Ayrim dastur nuksonlari o‘sha dastur xaqida ma’lumotga ega dasturchi tomonidan aniqlanadi. Amalga oshirish masalalarini tushunishning yana bir afzalligi, bizga tasavvur qilish imkonini beradi. Ba’zi xollarda, ba’zi bir
amalga oshirish masalalari ilmi bir dastur uchun tanlangan bo‘lishi mumkin, muqobil tuzilmalar nisbiy samaradorligi hakida maslaxatlar beradi. Misol uchun amalga oshirish murakkabligi haqida kam biladigan dasturchilar kichik dasturlarda samarasiz dastur yaratishadi.

- ***Bilgan tildan yaxshi foydalanish***

Ko‘plab mavjud dasturlash tillari katta va murakkab. Dasturchi dastur tili va xususiyatlarini bilishi ulardan foydalanishi uchun qulay. Bu qoidalarni o‘rganish orkali dasturchilar o‘zlari uchun oldindan noma’lum bo‘lgan til xususiyatlaridan foydalanishni boshlashadi.

- ***Ilg‘or xisoblash qadami***

Nixoyat, dasturlash tili tushunchalarini o‘rganish hisoblash texnikasida asosiy rol o‘ynaydi. Shunga qaramasdan nega aynan bir til mashxur bo‘lganini aniqlash mumkin. Lekin eng mashxur tillar xar doim eng yaxshi emas. Bunga sabab ba’zi hollarda dasturchilarning ko‘p tillarni bilmagani sababli o‘sha til qisman bo‘lsada foydalaniladi. Misol uchun ko‘p odamlar ALGOL 60 ni Fortran 2004 ga qaraganda yaxshi deb bilishadi. Biroq ko‘plab kompyuter foydalanuvchilari o‘zlari ishlatayotgan

til foydasini bilishmaydi. Umuman olganda keltirilgan tillardan to‘g‘risini tanlash oxir oqibat yomonini muomiladan chiqaradi

2 Dasturlash domenlari

Kompyuter turli yo‘llar uchun foydalaniladi, yadroviy qurollar va telefon o‘yinlari uchun foydalaniladi. Kompyuter foydalanishda turli xil dasturlash tillarida rivojlantirish uchun ishlatiladi. Bu bo‘limda biz kompyuterning bazi dasturlash tillarini o‘rganamiz.

2.1 Ilmiy dasturlar

Birinchi raqamli kompyuterlar 1940-1950 yildan kashf qilindi va ilmiy dasturlar uchun foydalana boshlandi. Odatda ilmiy dasturlar ma’lumotlarni bog‘lash uchun foydalaniladi, ammo matematik hisoblashlarni talab qiladi.

2.2 Biznes dasturlari

1950 yildan boshlab kompyuterlar biznes dasturlari uchun foydalanib boshlangan. Asosiy kompyuterlar faqat bir dasturlash tilida shu dastur uchun rivojlantirilgan. Birinchi muaffaqiyatga erishgan til COBOL (ISO/IEC,2002), buning dastlabki versiyasi 1960 yilda ishlab chiqilgan. Biznes dasturlari ichida u haliyam eng ko‘p foydalaniladi. Biznes dasturlari harakterlanadi. Qo‘shimcha imkoniyatlari puxta ishlab chiqilgani uchun u o‘nli sonlar va harflar bilan tasvirlanadi, o‘nlik matematik hisoblashlar uning harakterini belgilab beradi.

COBOL (ISO/IEC,2002) ning biznes dasturlash sohasida rivojlanishi uchun u yerda bazi sabablar bo‘lgan. Shu sababli bu kitobda COBOL (ISO/IEC,2002) haqida bazi ma’lumotlar berilgan.

2.3 Sun’iy intellekt

Simvollik yoki nomerik hisoblashlar sun’iy intellekt (SI)da kompyuter dasturlarini umumiy maydonlaridan foydalaniladi. Simvollik hisoblashlar asosan simvollardan, nomerikda nomerlardan foydalaniladi. Shuningdek, to‘plamlarga nisbatan simvollik hisoblashlar ma’lumotlarga bog‘lanishda ko‘proq qulayliklar yaratadi. Boshqa dasturlarga qaraganda bu turdagi dasturlar moslashuvchanlikni ko‘proq talab qiladi. Misol uchun, baza SI axborotlari kod bo‘limlarini bajarish davomida yaratishga va bajarishga qulaylik yaratadi.

SI dasturlari uchun birinchi keng foydalanilgan til LISP (Mc Carthy et al., 1965) u 1959 yilda ishlab chiqilgan. LISP tomonidan SI dasturlari 1990 yil davomida

rivojlangan. Ammo 1970 yil boshida Prolog (Clocksin va Mellish, 2003) mantiqiy dasturlaridan foydalanishga to‘g‘ri kelgan. Anchadan keyin SI tizim tillari sifatida yaratilgan, masalan C. Scheme (Dybvig 2003), LIPS shevasi, mos ravishda 15 va 16 bo‘limlarda Prolog tanishtiriladi.

2.4 Dasturlash tizimlari

Kompyuter tizimida operatsion tizim va dasturlar yig‘indisi dasturlash tizimlari deyiladi. Dasturlash tizimlar uzliksiz samarali foydalaniladi. Bundan tashqari, u tashqi qurilmalar uchun dasturiy ta’minot interfayslarini yozish imkonini ham beradi.

1960-1970 yillarda ba’zi kompyuter ishlab chiqaruvchilar misol uchun IBM, Digital va Burroughts (hozirgi UNISYS), maxsus dasturiy tizimlar uchun rivojlandirilgan dasturiy til. IBM kompyuterlari uchun PL\S tili, PL\I uchun maxsus, Digital uchun va BLISS uchun, hozigi yuqori darajadagi til; Burroughts uchun ALGOLni ifodalaydi. Ammo hozirgi paytda ko‘plab dasturlar S va S++ tillarida yaratiladi.

UNIX dasturiy tizimlari faqat S tilida yozilgan (ISO, 1999), u portga oson bog‘lanadi, yoki harakatlanadi. S ning ayrim xususiyatlari dasturlash uchun yaxshi tanlov. Yaxshi dasturchilar cheklovlarga ishonishmaydi. Ba’zi nopdatiy dasturchilar S tili juda xavfli deb hisoblashadi

2.5 Web dasturlar

World Wide Web elektronik tillar tomonidan qo‘llab quvvatlanadi, misol uchun HTML bu dasturlash tili emas, Java umumiy dasturlash tili. Chunki dinamik internet keng tarqalgan, ba’zi hisoblashlarni texnologiya o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlar HTML dasturlash tili tomonidan taqdim etiladi. Dasturlash tili ko‘p kodlardan ifodat, masalan JavaScript va PHP. Bazi tillar hujjatlarni nazorat qilish uchun konstruksiyalarni o‘z ichiga oladi, bular 1.5 va 2 bo‘limda yoritib beriladi.

3 Til o‘rganish qoidalari

Yuqorida aytib o‘tilganidek bu kitobning asosiy maqsadi dasturlash tilining asosiy tushunchalari va imkoniyatlarini tadbiq etishdan ifodat. Bundan tashqari bu qismlarni dasturiy ta’minot jarayoni o‘sishiga ta’sirini e’tiborga olgan holda o‘rganamiz. Buni bajarish uchun bizga qoidalar to‘plami kerak bo‘ladi. Bunga o‘xshgagan qoidalar ancha munozarali, chunki berilgan til xususiyatlari boshqalariga aloqador ekanligiga qo‘shiluvchi hattoki 2 ta komp’yuter olimini topish mushkul. Shunga qaramasdan ko‘pchilik quyidagi qoidalar muhimligini tan oladi.quyidagi jadvalda berilgan 4 ta qoidadan 3 tasi juda muhim (4-chisi qolgan 3 tasiga o‘zaro bo‘g‘liq) bu jadvaldagi har bir bo‘limga katta e’tibor bilan qarash kerak.

Xususiyatlar	O‘qishga qulaylik	Yozishga qulaylik	Ishonuvchanlik
Soddalik	•	•	•

Imlo qoidadari	●	●	●
Ma’lumot turlari	●	●	●
Model sintaksisi	●	●	●
Mavhumlikni ochish		●	●
Ifodalash		●	●
Tekshirish turlari			●
Istisno holatlardan qoydalanish			●
Cheklovlar			●

3.1 O‘qishga qulaylik

Dastur uning qanchalik o‘qishga osonligi va tushunuvchanligi bilan baholanadi. 1970-yildan oldin dasturiy ta’minot tashkilotlari yozuvni ifodalashdagi kodlarga katta ahamiyat berishgan. Dasturlash tilidagi boshlang‘ich ijobiy xususiyat samarali bo‘lgan. Kompyuter qurilmalari undan foydalanuvchilarga qaraganda ko‘proq loyihalashtirildi. 1970-yiga kelib dasturiy ta’minot tushunchalari rivojlantirildi. Kodlash juda kichik rolni o‘ynab qoldi. Xizmat ko‘rsatish asosiy qism bo‘lib qoldi. Chunki xizmat ko‘rsatishning yengillanishi dasturni o‘qiy olishda muhim qism bo‘ldi. O‘qishga osonlik dastur va dastur tilining eng muhim qismi hisoblanadi. Dasturlash tilining rivojida eng muhim ulashdir. Bunda mashina yo‘nalishida va insoniyat yo‘nalishida alohida o‘zgarish bo‘ldi. Dasturning muammoli sohasi e’tiborga olinishi kerak. Misol uchun agar dastur hisoblashni ifodalasa ishlatishga mo‘ljallanmagan tilda yoziladi va bu notabiiy va murakkab bo‘lib, o‘qishga qiyinchilik qiladi. Quyidagi xususiyatlar ham dastur o‘qilishida o‘z hissasini qo‘shadi.

3.1.1 Umumiy soddalik

Umumiy soddalik dastur o‘qilishida muhim ta’sir ko‘rsatadi. Qurilmalari ko‘p bo‘lgan tilni qurilmalari kam bo‘lgan tilga qaraganda o‘rganish qiyin. Dasturchilar katta tilni va tillar guruhini o‘rganishi kerak va uning qismlarini e’tiborsiz qoldirmasligi kerak. Bu o‘rganish namunasi katta til qurulmalarini tushuntirish uchun foydalaniladi. Lekin bu argument mavjud emas.

Tildagi 2-muhim xususiyatlardan biri asosiy miqdordir. Bu ma’lum operatsiyani bir necha yo‘llar bilan muvaffaqiyatli bajarishdir. Misol uchun javada sonlarni 4 xil usul bilan qo‘shishi mumkin.

Son=son+1

Son+=1

Son++

++son

Endi 3-muhim muammo bu operatorning birdan ko‘p ma’nolari bo‘lishi. Lekin bu ko‘pincha foydali agar dasturchilarga ham operatorga yangi ma’no qo‘shish imkoniyati berilgan bo‘lsa. Soddalik tilni uzoqqa olib bora oladi. Ko‘plab guruh tillar model va mazmuni soda ko‘rinishga keltiriladi. Shunday soddalik guruh til dasturlari tushunishga ko‘p vaqt talab qilmaydi. Chunki ular boshqaruv tizimida murakkablikni kamaytiradi. Dastur qurulmasida kam aniqmaslik qoladi. Chunki operatorlar juda sodada.

3.1.2 Orthogonal tushunchasi

Dasturlash tilida nazoratni va ma’lumot tuzilmalarini qo‘lga olish uchun nisbatan kichik sodda qurulmaga ega bo‘lgan operatorlardan foydalaniladi. Bundan tashqari har bir birikma to‘g‘ri va mazmunga ega. Ortogonal tilining ma’nosi dasturda ko‘rinishi mustaqil.(ortogonal so‘zi matematikadan kelgan so‘z ya’ni vektorlarning perpendikulyarligi). Ortogonallik bazaga aloqadordir. Ortoganalning yetishmasligi tildagi qoidalarga istisnolik olib keladi. Biz ortogonallikdan foydalanishni dizayn loyihasi sifatida IBM kompyuterlari va VAX minikompyuterlaridagi tillar bilan solishtirish orqali bezak bera olamiz. Buni bir oddiy misol sifatida ko‘raylik. 2 ta 32 bitlik butun sonni qo‘shish uchun xotirada 2 sonning biri hosil bo‘lgan yig‘indi bilan almashtiriladi. IBMda bu 2 xil usulda amalga oshiriladi.

A Reg1, memory_cell

AR Reg1, Reg2

Reg1 ←contents(Reg1) + contents(memory_cell)

Reg1 ←contents(Reg1) + contents(Reg2)

32 bitli butun qiymat uchun VAX qo‘shimcha instruksiya bo‘ladi.

ADDL operand_1, operand_2

operand_2 ← contents(operand_1) + contents(operand_2)

VAXdagi dizayn qo‘llanmalar ortogonaldir. Chunki 1 ko‘rsatma ob’ekt sifatida xotiradan yoki jurnaldan foydalanish mumkin. Bu yerda ob’ektni aniq o‘rnatish uchun 2 xil yo‘l bor ya’ni barcha yo‘llar bilan birlashtirilishi mumkin. Lekin IBM loyihasi ortogonal emas. Chunki biz 2 sonni qo‘shib natijani xotirada saqlay olmaymiz. Bundan tashqari IBM loyihasi juda qiyin va o‘rganish ham noqulay.

Ortogonallik oddiylikka juda yaqin. Tilda ortogonallikning ko‘pligi so‘rovlarda juda kam istisno holatlarga olib keladi. ma’lumki kam istisnolar til darajasini yuqori holatga ko‘taradi. Bu o‘rganish va tushunish osonligini bildiradi. Misol uchun S tilida ortogonallik kam. Garchi S tilida 2 xil ko‘rinishda qurulgan ma’lumot turlari bor. Massiv va satr (satr funksiyadan qaytarilishi mumkin lekin massiv emas). Strukturaning har bir a’zosi bo‘sh va o‘ziga tegishli tipdan tashqari ma’lumot a’zosi bo‘lishi mumkin. Massivdagi element bo‘sh va funksiyadan tashqari ixtiyoriy ma’lumot turi bo‘lishi mumkin.

Ko‘p ortogonallik ham muammolar olib keladi. Eng ko‘p ortogonallangan til bu ALGOL68. Har bir til ALGOL68 ni tip sifatida quradi va bu yerda hech qanaqa cheklovlar yo‘q. Bundan tashqari ko‘plab qurulmalar qiymat chiqaradi. Ba’zan ortogonalning ortiqcha formalari kerakmas va murakkablikni olib keladi. Chunki til orqaga qaytib ishlashini va ortogonalning yuqori daraja natijalarini so‘raydi.

3.1.3 Ma’lumot turlari

Ma’lumot turlarini va ma’lumot tuzulmalarini aniqlash uchun yetarli imkoniyat mavjudligi o‘qiy olish uchun yana bir yordam hisoblanadi. Misol uchun aytaylik raqamlangan ma’lumot ko‘rsatchik uchun ishlatiladi, chunki tilda mantiqiy tipi yo‘q. Shunga o‘xshagan tillarda bizda quyidagicha faqat 1 topshiriq bo‘lishi mumkin.

timeOut = 1

Bu yerda bu holat ma’nosi aniq emas. Agar tilda mantiqiy tipi bo‘lsa biz quyidagiga ega bo‘lamiz.

Timeout=true

Bu esa ancha tushunarlidir.

3.1.4 Dizayn sintaksisi

Dastur o‘qilishida tildagi elementlar sintaksis va forma muhim ta’sir ko‘rsatadi. Sintaksis loyihalar:

- ***Muhim so‘zlar.*** Dastur ko‘rinishi va dastur o‘qilishida tildagi muhim ya’ni kalit so‘zlar kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa eng muhumi qurulma nazoratida shakl berish usuli turadi. Ba’zi tillar guruhlarini tuzish uchun maxsus so‘z yoki belgilar juftlaridan foydalangan. S va uning avlodlari murakkab holatlarni belgilash uchun qo‘shtirnoqdan foydalanilgan. Har bir til qiynaladi, chunki sinf holatlari 1 xil yo‘l bilan tugatiladi va bu esa qaysi guruh qachon tugatilganini aniqlashga qiyinchilik tug‘diradi. Fortran95 va Ada tillarida bu nisbatan

osonroq chunki har bir guruh yopilishida alohida sintaksis belgidan foydalaniladi.

Boshqa bir muhim narsa bu dasturda o‘zgaruvchi sifatida til maxsus kalit so‘zlaridan foydalanish imkoniyati mavjudmi yoki yo‘q. Bunda dastur natijasi adashtiruvchi bo‘lishi mumkin.

- ***Forma va ma’no***. Dasturni loyihalashtirish (dizaynlash) maqsadi ularning ko‘rinishida o‘qish osonligiga yordam berishdan ifodat. Bunda sitaksis ma’nosi dasturga to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi kerak. Ba’zi hollarda bu qoidalar o‘xshash yoki bir xil til qurulmalari tomonidan buziladi. Bunda ko‘rinish bir xil bo‘lishi mumkin lekin ma’no jihatdan farq qiladi.

  Asosiy shikoyatlardan biri bu UNIXning qobiq buyruqlari ko‘rinishlari o‘zlarining dastur funksiyalariga mos kelmaydi.

3.2 Yozilish osonligi

Osonlik bilan yozish bu tanlangan dastur loyihasi uchun qaysi til munosib ekanligini tanlashdir. Ko‘plab til xususiyatlari o‘qilishga va yozilishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu dasturchiga yozilgan dastur qismini qayta o‘qish imkonini beradi. Dasturda o‘qilishi bilan birga dasturga oid muammoni yozishda til imkoniyatini o‘ylash kerak. Ma’lum dastur uchun 2 til yozilish usullarini solishtirish oqilona ish emas.

Quyida biz yozilish osonligiga nimalar ta’sir ko‘rsatadi bilib olamiz.

3.2.1 Ortogonallik va oddiylik

Agar tilda juda ham ko‘p qurulmalar bo‘lsa, dasturchilar u til bilan yaqin bo‘lmaydilar. Bu vaziyat ba’zi xususiyatlarni noto‘g‘ri ishlatish va ba’zilarini qo‘llamaslik ko‘proq nafis bo‘lishi yoki ko‘proq natijali bo‘lishi mumkin. Ba’zan esa tasodifan bilmagan xususiyatlarimizdan foydalanish ajoyib natija olib kelishi mumkin. Dasturchi muayyan murakkab muammo uchun o‘zining loyiha rejasini sodda qurulmalarni o‘rgangandan keyin javob topishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda juda ko‘p ortogonallik dasturning yozilishiga zarar keltirishi mumkin.

3.2.2 Mavhumlikni anglash

Qisqacha qilib aytganda mavhumlik bu aniqlash qobiliyati va undan foydalanish dasturdagi murakkab strukturalar va detallar e’tiborsiz qoldiriladi. Mavhumlik dasturlash tili loyihasida zamonaviy qoida kaliti hisoblanadi.

1.4. Dasturlash tillari evolyusiyasi
Susning Plankalkul tili
Psevdokod

IBM 704 kompyuteri va Fortran tili
Funksional dasturlash: LISP tili
ALGOL 60 tilini mukammallashtirishga birinchi qadam
SOBOL tilida savdo sotiq yozuvlarini kompyuterlashtirish
BASIC tilining dastlabki vaqtdagi bosqichlari
PL /1 tili ([1] 68-71-betlar)

Bu mavzu ostida dasturlash tillari kolleksiyasining rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Bunda har bir tilning yaratilgan muhiti o‘rganiladi va tilning imkoniyatlari va rivojlanishi uchun asoslariga e’tibor qaratiladi. Tilning umumiy ta’riflari keltirilmagan, buning o‘rniga, har bir tilning ba’zi yangi o‘ziga hos hususiyatlarini ko‘rib chiqilgan. Kelgusidagi dasturlash tillariga yoki kompyuter ilmiga ta’sir qilgan hususiyatlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu mavzuda hech bir dasturlash tilining hususiyatlari va konsepsiyalari chuqur muhokama qilinmaydi; bu keyingi mavzularga qoldiriladi. Bu mavzuda hamma uchun ham birdek tushunarli bo‘lmagan dasturlash tillari va ularning konsepsiyalarining xilma-xilligi haqida gap boradi. Bu mavzuni toki kitobni o‘rganib bo‘lmaguncha takroran o‘qish mumkin.

Bu yerda muhokama qilinadigan dasturlash tillari ham sub’ektiv tanlab olingan va ayrimlar uchun sevimli bo‘lgan tillar keltirilmagan bo‘lishi ham mumkin. Bu yerda dasturlash tillarining va kompyuter olamining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan deb hisoblangan tillar tanlab olingan.

Bu mavzuning tashkillashtirilishi quyidagicha: tillarning dastlabki versiyalari hronologik tartibda muhokama qilinadi. Biroq, keyingi versiyalar keyingi qismlarda emas, balki, dastlabki versiyalari bilan bir vaqtda ko‘rib chiqiladi. Masalan, Fortran 2003 tili Fortran I (1956 yildagi) versiyasi bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga ayrim joylarda, ikkinchi darajali deb hisoblangan tillar ham agar boshqa tilga aloqador bo‘lsa shu mavzuda ko‘rib chiqiladi.

Bu mavzu har biri turli tillarda yozilgan 14 ta namuna dasturlar keltirilgan. Ushbu mavzudagi dasturlar to‘liqligicha tushuntirib berilmagan, faqatgina dasturlash tillaridagi ko‘rinishini tasvirlab berilgan. Umumiy buyruqlar sintaksisga ega bo‘lgan tillar bilan tanish bo‘lgan dasturchilar bu dasturlarning kodlarini oson o‘qiydilar va tushuna oladilar, faqat bundan LISP, COBOL va Smalltalk tillarida yozilgan kodlar mustasno (LISPda keltirilgan namunaga o‘xshash sxema funksiya 15- mavzuda muhokama qilinadi). Shu masalaning o‘zi Fortran, ALGOL 60, PL/I, BASIC, Pascal, C,

Perl, Ada , Java, JavaScript va C# dasturlarida ham tuzilgan. E'tibor bering bu mavzudagi zamonaviy dasturlash tillarining ko'pchiligi dinamik massivlar bilan ishlash imkoniyatiga ega, biroq namunaviy masalalarning osonligi sababli, bu yerda dinamik massivlardan foydalanilmagan.

Quyidagi sxemada bu mavzuda muhokama qilingan yuqori darajali dasturlash tillarining kelib chiqishi ko'rsatilgan.



Susning “ Plankalkul ” tili

Bu mavzuda gaplashadigan birinchi dasturlash tili g‘ayritabiiy bo‘lib tuyulishi mumkin. Birinchidan, u hech qachon ishlatilmagan. Undan tashqari, 1945- yilda ishlab chiqilganiga qaramay, u haqidagi ma’lumotlar 1972-yilgacha chop etilmagan. Chunki juda ozchilik bu til bilan tanish bo‘lgan, uning ko‘pchilik qobiliyatlari 15 yilgacha boshqa tillarda namoyon bo‘lmagan.

Tarixi

1936-1945 yillar oralig‘ida, nemis olimi Konrad Sus elektromexanik relelardan kompleks va murakkab kompyuterlarni seriyasini qurgan. 1945 yilning boshida, Ittifoqdoshlarining bombardimoni tufayli uning oxirgi 34 modelidan boshqa hamma modeli yo‘q bo‘lib ketgan. Shundan so‘ng u chekka Hintershteyndagi Bavariya qishlog‘iga ko‘chib ketadi, uning ilmiy tadqiqot jamoasi esa tarqab ketadi.

Sus yolg‘iz ishlab boshlaganidan keyin, u 34 modelida hisoblashni bajaradigan ifodalarni kiritish uchun til yasashga kirishib ketadi. Bu uning 1943-yilda boshlagan uning doktorlik ishi loyihasi edi. U bu tilni “Plankalkul” deb nomladi, ya’ni hisoblash dasturi. Qo‘l yozmalar 1945 yilga borib taqalsa ham, Sus uni 1972 yilda e’lon qilgan va turli tuman masalalarni yechish algoritmlarini shu tilda yozgan.

Umumiy tushunchalar

Plankalkul nihoyatda to‘liq, ayniqsa ma’lumotlar strukturasi sohasidagi eng yangi o‘ziga hosliklarga ega edi. Plankalkuldagi eng sodda ma’lumot tipi – bit edi. Butun va haqiqiy sonlar tiplari bit tipidan qurilgan.

Odatiy skalyar tiplardan tashqari, Plankalkulda massivlar va rekordlar (S ga asoslangan tillarda strukt deb ataladi) ham bor. Rekordlar o‘z ichiga ichki rekordlarni ham olishi mumkin.

Bu til aniq bir **“goto”** operatoriga ega bo‘lmasa ham, Ada tilidagi **for** operatoriga o‘xshash iteratsiya operatoriga ega. Undan tashqari bu tilda, siklning yakuniga yetganligi yoki yangi sikl ochilishi uchun **Fin** operatori ham bor. Plankalkulda tanlash operatori ham bor lekin **else** punktiga ega emas.

Sus dasturining eng qiziqarli hususiyatlaridan biri bu, matematik amallarni dasturdagi o‘zgaruvchilarning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan holda biriktirib olishidadir

Glossariy

- **while –** цикл оператори томонидан тестлаштириш жараёни;
- **Идентификатор –** катта ва кичик лотин ҳарфлари, рақамлар ва таг чизиқ („_“) белгиларидан ташкил топган ва рақамдан бошланмайдиган белгилар кетма–кетлиги тушунилади;
- **Тил генератори –** тилнинг гапларини яралишига сабаб бўлувчи мосламадир;
- **Метатили -** бошқа тилни тасвирлаш учун ишлатиладиган тилдир;
- **If –** шарт оператори бўлиб, қандайдир шартни ростликка текшириш натижасига кўра программада тармоқланишни амалга оширади;
- **Старт рамзи -** маҳсус грамматика билан бошланувчи тил жумлалари қоидаларнинг кетма-кетлиги асосида бошқарилади
- **Синтактик тармоқ –** белгили семантикадаги тармоқ
- **Тилнинг синтаксис қоидаси –** тилдаги боғланишни белгилайдиган қисми
- **BNF (Backus-Naur формаси) –** бошқа тилни тасвирлаш учун ишлатиладиган метатил
- **Жумла –** терминал белгилардан иборат форма
- Цуснинг “ **Планкалкул** ” тили-1943-йилда Цус томонидан ишлаб чиқилган
- **Fin**- Ада тилидаги циклнинг якунига етганлиги ёки янги цикл очилишини ифодаловчи оператор
- **goto** - шартсиз ўтиш оператори
- **For** - такрорлаш оператори
- **Бўш операция** - дастурнинг умимий таркиби бузмасдан ўчирилган буйриқ ўрнига қўйиш мумкин.
- **Short code тили** - 1949 йили BINAC камютери учун ДЖонМочли томонидан яратилган
- **Speedcoding тизими** - IBM 701 компьютери учун Джон Бекус томонидан яратилган
- **IF** - оператори қандайдир шартни ростликка текшириш натижасига кўра программада тармоқланишни амалга оширади
- **DO** - **FORTRAN I** тилининг цикл оператори

- **ALLOCATABLE** - **FORTRAN** тилида ишлатилиб, массивлар сифатида эълон қилинган ва улар буйруқ бўйича динамик ҳолда хотирага жойлашади ва ўчади
- **CASE** - кўп вариантли тармоқланиш оператори
- **EXIT** - циклдан чиқиб кетиши оператори
- **CYCLE** - узатиш бошқаруви циклдан туриб унинг бошига ўтувчи бошқарув оператори
- **PRIVATE** - маълумотлар ва кичик дастурлар ҳақида маълумотларни ўз ичига олувчи ва ташқи алоқани бошқарувчи ёпиқ спецификатор
- **PUBLIC** - маълумотлар ва кичик дастурлар ҳақида маълумотларни ўз ичига олувчи ва ташқи алоқани бошқарувчи очиқ спецификатор
- **Scheme тили** - 1970- йилнинг ўрталарида MIT институтида ишлаб чиқилган
- **Компиляция** – яратилган дастур компьютер томонидан тестлаштириш жараёни
- **IAL тил** - **ALGOL** тилини тарихдаги эски номи
- **integer** – бутун сон типи
- **array** – массивни эълон қилиш
- **reading** – бутун типдаги ўзгарувчиларни ўқиш учун ишлатилади
- **begin** – дастурни бошланишини ифодалайди ва блок ўрнида ишлатилади
- **end** - дастур тугаганлигини англатади
- **printstring** - сатрни экранга чиқариш учун ишлатлади
- **printint** – бутун сон типдаги ўзгарувчиларни экранга чиқариш учун ишлатлади
- **COBOL тили** - 1- дастур тили бўлиб, АҚШ ҳукумати томонидан ишлаб чиқилган
- **BAL-FWD-FILE файл** - махсулот рўйхатига эга ва қайта буюртма талаб қилади
- **BASIC тили** - **COBOL** тилининг олдинги версияси ҳисобланиб, 1979-йилнинг охири 1980- йилнинг бошларида вужудга келган

Ушбу таянч ифодалар айнан шу мавзуда фойдаланилган. Қавслар ичида улар биринчи маротаба учрайдиган китобдаги шу мавзу бетлари келтирилган.

- **Назорат тузилмалари турлари**;
- **Маълумотлар тузилмалари;**
- **Маълумотлардан фойдаланиш;**
- **Тил тузулмалари;**
- **Java дастурлаш тили** – юқори савияли дастурлаш тили ҳисобланади;

- **ALGOL 60 дастурлаш тили** – мураккаб ҳисоблашлар кўп бўлган дастурлар тузишда қўлланилади;
- **Fortran дастурлаш тили** - универсал тиллардан ҳисобланади (1950-1958 , John Backus, IBM);
- **COBOL** – биринчи муаффақиятга эришган тил;
- **LISP** – СИ дастурлари учун биринчи кенг фойдаланилган тил;
- **UNIX** – операцион тизим;
- **Ортогонал** – математикадан келган сўз яъни векторларнинг перпендикулярлиги.

Амалий машғулот 1.
C# тили синтаксиси ва унинг лексик асоси

Ишдан мақсад: C# дастурлаш тили дастур тузиш кўникмалари билан танишиш. Содда масалалар алгоритмини блок-схема кўринишида тасвирлаш, Visual Studio 2013 дастурлаш мухитида C# тили орқали масаланинг дастурини тузиш.

Масаланинг қўйилиши: Тингловчи вариант бўйича берилган масалани алгоритмини блок-схема кўринишида тасвирлаши, C# дастурлаш тилида ишлаши ва керакли натижа олиши лозим.

Ишни бажариш учун намуна

Мисол: Берилган x, y ва z сонлари учун формуланинг натижаси топилсин.

Берилганлар: x=14.26, y=-1.22, $z=3.5\times10^{-2}$

$$t=\frac{2\cos\left(x-\frac{\pi}{6}\right)}{0.5+\sin^2 y}\left(1+\frac{z^2}{3-z^2/5}\right)$$

Натижа: t=0.564849

Дастур коди:

dastur.cs файли:

```
#define _USE_MATH_DEFINES
#include<iostream>
#include<cmath>
using namespace std;
int main(){
     double x,y,z,a,b,c,t;
     x=14.26;
     y=-1.22;
     z=3.5*1/100.;
     a=2*cos(x-M_PI/6);
     b=0.5+sin(y)*sin(y);
     c=1+z*z/(3-z*z/5);
     t=a/b*c;
     cout << "Natija = " << t << endl;
     system("pause");
     return 0;
     }
```

Дастур ишлаши натижаси:



Масала алгоритми блок схемаси:



Амалий топшириқлар

Берилган x, y ва z сонлари учун формуланинг натижаси топилсин.

1. x=14.26, y=-1.22, z=3.5×10^{-2},

$$t = \frac{2\cos\left(x - \frac{\pi}{6}\right)}{0.5 + \sin^2 y}\left(1 + \frac{z^2}{3 - z^2/5}\right)$$

Натижа: t=0.564849

2. x=-4.5, y=0.75x10^{-4}, z=0.845x10^{2},

$$u = \frac{\sqrt[3]{8 + |x-y|^2 + 1}}{x^2 + y^2 + 2} - e^{|x-y|}\left(tg^2 z + 1\right)^x.$$

Натижа: u=-55.6848.

3. x=-15.246, y=4.642x10^{-2}, z=20.001x10^{2},

$$\alpha = \ln\left(y^{-\sqrt{|x|}}\right)\left(x - \frac{y}{2}\right) + \sin^2 arctg(z).$$

Натижа: α=-182.036

4. x=0.1722, y=6.33, z=3.25x10^{-4} ,

$$\gamma = 5arctgx - \frac{1}{4}\arccos x \frac{x + 3|x-y| + x^2}{|x-y|z + x^2}.$$

Натижа: γ=-172.025

5. x=1.825x10^{2}, y=18.225, z=-3.298x10^{-2},

$$\psi = \left| x^{\frac{y}{x}} - \sqrt[3]{\frac{y}{x}} \right| + (y-x)\frac{\cos y - \dfrac{z}{(y-x)}}{1+(y-x)^2}.$$

Натижа: ψ =1.2131

6. x=6.251, y=0.827, z=25.001,

$$b = y^{\sqrt[3]{|x|}} + \cos^3 y \frac{|x-y|\left(1+\dfrac{\sin^2 z}{\sqrt{x+y}}\right)}{e^{|x-y|} + x/2}.$$

Натижа: b=0.7121

7. x=17.421, y=10.365x10^{-3}, z=0.828x10^{5},

$$f = \frac{\sqrt[4]{y+\sqrt[3]{x-1}}}{|x-y|(\sin^2 z + tgz)}.$$

Натижа: f=0.33056

8. x=2.444, y=0.869x10^{-2}, z=-0.13x10^{3},

$$h = \frac{x^{y+1} + e^{y-1}}{1+x|y-tgz|}(1+|y-x|) + \frac{|y-x|^2}{2} - \frac{|y-x|^3}{3}.$$

Натижа: h=-0.49871

9. x=1, y=1, z=3

$$a = (1+y)\frac{x+y/(x^2+4)}{e^{-x-2}+1/(x^2+4)};$$

$$b = \frac{1+\cos(y-2)}{x^4/2+\sin^2 z}.$$

Натижа: a=9.608184; b=2.962605

10. x=3, y=4, z=5,

$$a = \frac{1+\sin^2(x+y)}{2+\left|x+2x/(1+x^2y^2)\right|} + x;$$

$$b = \cos^2(arctg\,\frac{1}{z}).$$

Натижа: a=3.288716; b=0.9615385

Amaliyot topshiriqlari

1. Konsolda ismingiz va familiyangizni chop qiluvchi dastur tuzing.

Тестлар

1. Биринчи дастурлаш тили қачон яратилган?

a) 1945 йил
b) 1972 йил
c) 1965 йил
d) 1970 йил

2. Қачондан дастурлаш тили ишлатила бошланган?

a) 1945 йил
b) 1972 йил
c) 1980 йил
d) 1945 йил

3. IPL тилиниг ривожланиши қачонгача давом етди?

a) 1961 йил
b) 1955 йил
c) 1960 йил
d) 1965 йил

4. Биринчи дастурлаш тили нима деб номланган?

a) Short Code
b) Pevdo Code
c) Plankalkul
d) Fortran

5. FORTRAN тилини тузишга сабабчи бўлган компьютер номи нима?

a) IBM 704
b) UNIX
c) AGAT
d) Linex

6. Рўйхатлар тузиш консепцияси ким томонидан ишлаб чиқилган?

a) Tsuze
b) Plankalkul
c) Allen Hyuel DJ.Show
d) Von Neiman

7. Қайси тил ҳеч қачон тадбиқ етилмаган?

a) IRL I
b) IRL II
c) IRL V
d) ALGOL

8. Теоремаларни механик исботлашда қайси тилдан фойдаланилади?

a) FLTR
b) FORTRAN
c) IRL
d) FORTRAN I

9. Қайси тилда икки хил структура бор?

a) LiSP
b) FORTRAN
c) ALGOL
d) IRL

10.Цюрихеда учрашувида қандай тил яратилган?

a) FORTRAN
b) IAL
c) ALGOL 58
d) LISP

11.FORTRAN тилининг давомчиси қайси?

a) ALGOL 58
b) IAL
c) LiSP
d) IRL

12.1959 йил ALGOL 58 тили қайси давлатларда кенг тарқалди?

a) Европада
b) АҚШда
c) Европада ва АҚШда
d) Россияда

13.Қайси тил SOBOL тилининг яратилишига сабаб бўлди?

a) FORTRAN
b) FLOW_MATIC
c) LiSP
d) ALGOL

14.Олдин тил турлари нечта категоряга ажратилган?

a) 3 та
b) 2 та
c) 5 та
d) 4 та

15.BASIC тили қачон яратилган?

a) 1977-1978 йиллар
b) 1979- 1980 йиллар
c) 1981-1982 йиллар
d) 1971-1978 йиллар

16.ВАРМАР нечта параметрнинг вазифаси була олади?

a) 2
b) 4
c) 1
d) 3

17.Бошкарувчилар кандай синволларга эга?

a) - , +
b) * , +
c) : , *
d) + , +

18.If операторига нечта шарт бериш мумкин?

a) 1
b) 2
c) 3
d) 4

19.while ва do цщиле фарки нимада?

a) Фарки ёк.
b) Иккаласи бирга ишлатилмайди
c) Иккаласи фа=ат бирга ишлатилади
d) Цикл биринчи текширалади до цикл эса шарт бажарилади.

20.goto операторини хамма жойда ишлатиш мумкинни?

a) Ха
b) йук
c) Хамма жойда ишлатиб булмайди.
d) goto оператори куп кулланилса хатоликка олиб келади.

21. Аксиоматик семантикада фойдаланиладиган мантикий иборалар нима деб аталади.

a) иборалар
b) тасдиклар
c) матинлар
d) сатрлар

22.Хулоса коидасининг энг юкори кисми нима деб аталади

a) утмиш
b) келажак
c) чакирув

d) келишув

23.Чизикдан тепадаги биринчи мантикий вазият кандай гапларни кўрсатади?

a) then
b) when
c) c) this
d) else

24.Аксиоматик семантикада нечта аник кулланиши бор?

a) 3 та
b) 2 та
c) 6 та
d) 4 та

25.Аксиоматик семантика нимага асосланган учун шундай номланган?

a) предметларга
b) сатрларга
c) математик мантикка
d) геометрик мантикка

26.Дастурлаш тилини ўрганиш қоидалари тўғри берилган жавобни топинг

a) Тушуниш қобилиятини ўсиши
b) Тўғри тилни танлай олиш
c) Янги тиллар ўрганиш қобилиятини ошиши
d) Барча жавоблар тўғри

27.Биринчи рақамли компьютерлар нечанчи йилда кашф қилинди?

a) 1890-1900 йилларда
b) 1940- 1950 йилларда
c) 1840-1850 йилларда
d) 1920-1930 йилларда

28.Нечанчи йилдан бошлаб компьютерлар бизнес дастурлари учун фойдалана бошланган?

a) 1940-йилдан
b) 1930-йилдан
c) 1950-йилдан

d) 1890-йилдан

29. Биринчи муаффақиятга эришган тил қайси?

a) C++
b) СИ
c) COBOL
d) LISP

30. СИ дастурлари учун биринчи кенг фойдаланилган тил қайси?

a) C++
b) СИ
c) COBOL
d) LISP

31. UNIX дастурий тизимлари қайси тилда ёзилган?

a) C++
b) СИ
c) Java
d) PHP

32. Ортогонал қандай тушунча?

a) Ортогонал сўзи математикадан келган сўз яъни векторларнинг перпендикулярлиги
b) Ортогонал сўзи математикадан келган сўз яъни векторларнинг паралеллиги
c) Ортогонал сўзи имло қоидалари деган маънони беради
d) Тўғри жавоб берилмаган

2-mavzu.O‘zgaruvchilar va tiplar

Reja

1. Kirish

2. Ma’lumotlarning elementar tiplari

3. Belgili satrlar

4. Foydalanuvchi tomonidan aniqlanuvchi ketma-ket tiplar

Ushbu mavzu boshlanishida ma’lumotlar tipi konsepsiyasi va ma’lumotlarning asosiy tiplari xossalari keltirilgan. Keyin sanaluvchi va cheklangan tiplar strukturasi ko‘rib chiqilgan. Bundan keyin ma’lumotlarning strukturali tiplari o‘rganib chiqilgan bo‘lib, asosiy e’tibor massivlar, yozuvlar va umumlashmalarga qaratilgan. Xulosada ko‘p turdagi va ssыlkali tiplar ko‘rib chiqilgan.

Tiplarning har bir kategoriyasi uchun ishlab chiqarish muammolari ko‘rib chiqilgan va kerakli tillar ishlab chiqaruvchilari tomonidan qabul qilinuvchi konstrukturaviy qarorlar tushuntirilgan. So‘ngra, ushbu tillarning strukturalariga baho berilgan.

Tiplar strukturasiga ularni amalga oshirish metodlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sababga ko‘ra ushbu mavzuga yana bir ahamiyatli bo‘lim qo‘shilgan bo‘lib, u ma’lumotlar, asosan massivlarni amalga oshirish muammolariga yo‘naltirilgandir.

Kirish

Ma’lumotlarni qayta ishlash orqali kompyuter natijalarga erishadi. Ushbu jarayonni bajarishning osonligi ma’lumotlar tipi ushbu masalaga qanchalik muvofiqligi bilan o‘lchanadi. Buning natijasida, mos tiplarning xilma-xilligi va ma’lumotlar strukturalarini qo‘llab-quvvatlash tilda oldindan ko‘rib chiqilishi juda muhim.

Ma’lumotlar tiplarining zamonaviy konsepsiyalari oxirgi 40 yillardan beri rivojlanib kelmoqda. Boshlang‘ich dasturlash tillarida aniq bir masalalarga mos keluvchi barcha ma’lumotlarning strukturalari ushbu tilda qo‘llaniluvchi ma’lumotlarning asosiy strukturalarining kichik miqdori bilan shakllantirilgan. Masalan, FORTRAN 90 tiligacha ishlab chiqilgan FORTRAN tili versiyalarida aloqa ro‘yxati va ikkilik daraxtlar, odatda, massivlar yordamida modellashtirilgan.

FORTRAN I tilida qo‘llanilgan modeldan tashqariga qo‘yilgan birinchi qadam COBOL tilidagi ma’lumotlar bazasi strukturasini ishlab chiqaruvchilari tomonidan

amalga oshirilgan bo‘lib, bu dasturchilarga o‘nlik sanoq sistemasidagi sonlar aniqligini o‘rnatish va axborot saqlovchi yozuvlarni taqdim etish uchun ma’lumotlarning strukturaviy tiplarini qo‘llash imkonini bergan. PL/I tilida butun sonli qiymatlar va haqiqiy sonlar aniqligini o‘rnatish imkoniyati yanada mukammallashtirildi. Keyinchalik, ushbu imkoniyatni taqdim etuvchi vositalar Ada va FORTRAN 90 tillariga kiritildi. Ilovalar sohasini kengaytirish maqsadida, PL/I tiliga turli tipdagi ma’lumotlar kiritildi. Fikrimizcha, dasturchiga asosiy tipdagi opreatorlar hamda ma’lumotlarni bergan yaxshi edi, bu esa foydalanuvchi tomonidan aniqlanuvchi ma’lumotlar tipini yaratishga imkon berardi, ularga struktura biriktirilar edi, xuddi bu ALGOL 68 tilida bajarilganidek. Bu ko‘rinib turganidek, ma’lumotlar tiplarini shakllantirish sohasidagi eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Foydalanuvchi tomonidan aniqlanuvchi ma’lumotlar tiplarining afzalliklarini aytib o‘tamiz. Ushbu tiplar dasturlarning o‘qiluvchanligini oshiradi, chunki ularga ma’noli ismlarni qo‘llash mumkin. Foydalaluvchi tomonidan aniqlanuvchi tiplar o‘zgaruvchilar tiplarini tekshiradi. Foydalaluvchi tomonidan aniqlanuvchi tiplar mavjud bo‘lmasligi mumkin emas. Bundan tashqari, ushbu tiplar dastur modifikatsiyasini yaxshilaydi: dasturchi dasturdagi o‘zgaruvchilar kategoriyalarining tiplarini e’lon qilish operatorini o‘zgartirish orqali o‘zgartirishi mumkin.

1970-yillar oxirlarida paydo bo‘lgan ma’lumotlar tiplarini shakllantirish konsepsiyasi foydalanuvchi tomonidan aniqlanuvchi tiplar g‘oyalarini birlashtirish natijasida Ada 83 tiliga kiritilgan edi. Foydalaluvchi tomonidan aniqlanuvchi ma’lumotlar tiplari asosida yotuvchi metodologiyasi shundan iboratki, dasturchi o‘zgaruvchilarning har bir alohida sinflari uchun alohia tip yaratishi lozim va u vazifaning predmetli sohasida aniqlanadi. Bundan tashqari, vazifaning predmetli sohasidan o‘zgaruvchilar abstraksiyasi bo‘lgan tiplar unikalligini dasturlash tili ta’minlashi lozim. Bu yetarli darajada kuchli konsepsiya bo‘lib, dasturiy ta’minot ishlab chiqarilish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yana bir qadam bosib Ada 83 tilida modellashtirilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning mavhum tirlariga o‘tamiz. Ma’lumotlarning mavhum tiplari asosida yotuvchi g‘oya tipni qo‘llashdan ushbu tipdagi o‘zgaruvchilarni e’lon qilish usuli hamda ular ustida bajariluvchi amallardan ajratishdan iborat. Yuqori bosqichli dasturlash tillarida ko‘rib chiqilgan ma’lumotlarning barcha tiplari mavhum hisoblanadi. Foydalanuvchi tomonidan aniqlanuvchi mavhum tipli ma’lumotlar 10 mavzuda ko‘rib chiqilgan.

Ma’lumotlarning eng ko‘p tarqalgan ikki strukturaviy (noskalyar) tiplari massivlar hamda qaydlar hisoblanadi. Ma’lumotlarning boshqa bir nechta turlari

}
catch {
Console.WriteLine("Tiplarni almashtirganda xatolik yuz berdi");
}
```

Quyidagi misolda suzuvchi nuqtali tipni butun son tipiga almashtirilyapti:

```
double d=10.23;
int i;
i = (int)(d + 2.4);
```

Keyingi misolda ishorasiz butun son **char** tipiga o‘tkaziladi:

```
ushort c = 38;
char sym = (char)c;
Console.WriteLine(sym);
```

Ekranga ASCII kodining 38-kodli & simvoli chiqariladi. Quyidagi misolda decimal qiymat char ga o‘tkazilgan:

```
decimal x = 105m;
char sim = (char) x;
      Console.WriteLine(sim);// i harfi hosil bo‘ladi
  char s = 'i';
decimal d = (decimal) s;
Console.WriteLine(d);// 105 qiymati qaytariladi
```

Agar hosil qilingan natija, yangi tipga o‘tkazilmasa, tip almashtirish baribir amalga oshiriladi. Ammo natija kutilayotgan qiymatni qaytarmaydi. Masalan,

```
int i = -1;
char symbol = (char) i;
```

Ushbu tip almashtirish amalga oshirilmasligi lozim. Ammo natija sifatida ? simvoli qaytariladi.

Agar sonli tipli qiymatni harfiy tipga o‘tkazish lozim bo‘lsa, **.NET** bibliotekasi klasslari metodlaridan foydalanish lozim. **object** klassi **ToString()** metodiga ega bo‘lib, ushbu amalni bajarish mumkin:

```
int i = 10;
string s = i.ToString();
```

Shuningdek, harfiy tipli qiymatni sonli tipga o‘tkazish uchun **Parse()** metodidan foydalaniladi:

```
string s = 100;
int i = int.Parse(s);
Console.WriteLine(i+50);
```

Converter klassi bir tipdan ikkinchi tipga o‘tkazuvchi metodlardan tashkil topgan bo‘lib ulardan quyidagilarni keltiramiz:

Metod nomi	Qaysi tipga o‘tkazishi
`Convert.ToByte()`	`byte`

`Convert.ToChar()`	Belgili Char
`Convert.ToDateTime()`	Sana va vaqt
`Convert.ToDecimal()`	decimal
`Convert.ToDouble()`	double
`Convert.ToInt16()`	short
`Convert.ToInt32()`	int
`Convert.ToInt64()`	long
`Convert.ToSByte()`	sbyte
`Convert.ToSingle()`	float
`Convert.ToString()`	string
`Convert.ToUInt16()`	ushort
`Convert.ToUInt32()`	uint
`Convert.ToUInt64()`	ulong

Asosiy adabiyotlar

1. Robert W. Sebesta, Concepts of Programming Languages, John Wiley & Sons, USA 2015.
2. Fundamentals of Computer Programming With C# (The Bulgarian C# Programming Book). Svetlin Nakov & Co., 2013
3. Andrew Troelsen. Pro C# 5.0 and the .NET 4.5 Framework Sixth Edition 2012 apress.

Glossariy

- **Operator** – jarayonki ma'lumotlar ustida bir nechta ishlarni amalga oshiradi
- **Unar (bittalik)** – faqatgina bitta operantni oladi
- **Binar (ikkilik)** – ikkita operantlarni olish

- **Ternar(uchlik) (?:)** – uchta operantlarni oladi
- **Arifmetik operatorlar** – matematikadagi amallar kabi bir xil amal bajariladi
- **Bo‘lish operatori** – (/) butun sonlar ustida ishlatiladigan bo‘lsa, butun qiymat va haqiqiy sonlar ustida ishlatiladigan bo‘lsa, haqiqiy son qiymatini qaytaradi
- **Qoldiq operatori** – (%) butunni bo‘ligandagi qoldiqni qaytaradi
- **Maxsus qo‘shish operatorida** – (++) o‘zgaruvchini qiymatini oshirishda ishlatiladi
- **Razryadli operator** – (~) barcha 0 da 1 ga va barcha 1 da 0 ga aylanadigan operatorlar
- **Kirish operatorlari** - «.» odatda ob’ektga bog‘liq holda qo‘llaniladi
- **To‘rtburchakli qavslar** – ([]) massivlarni indeksi va atributlari uchun qo‘llaniladi
- **Bir xil tipga o‘tkazish** – bir ma’lumot tipni boshqa ma’lumot tipi qiymatiga o‘tkazish
- **Oshkor ravishda tipga o‘tkazish** – o‘zgaruvchi oldiga qavs ichida boshqa tip nomi yoziladi

Amaliy mashg‘ulot

1-misol. 4 xonali butun ***n*** sonni konsoldan o‘qib oling va har bir xona birligi asosida ekranga chop eting.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi, **1.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



1.1-rasm. Visual Studio 2013 tizimining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **FirstProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz. Natijada **1.2 rasm**da keltirilgan quyidagi oyna shakllantiriladi.



1.2-rasm. Dasturiy kod oynasi

Endi berilgan masala kodini

```
static void Main(string[] args)
      {
        }
```

S# dagi asosiy metod blokiga yoziladi.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;
```

```
namespace FirstProgramm
{
    class Program
    {
        static void Main(string[] args)
        {
            Console.Write("To'r xonali sonni kiriting: ");
            int n = int.Parse(Console.ReadLine());
            Console.WriteLine("Birlar xonasi: {0}", n % 10);
            Console.WriteLine("O'nlar xonasi: {0}", (n %
100)/10);
            Console.WriteLine("Yuzlar xonasi: {0}", (n /
100)%10);
            Console.WriteLine("Minglar xonasi: {0}", n /
1000);
            Console.ReadKey();
        }
    }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. ***n*** sonini kiritamiz va 1.3-rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



1.3-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning

har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

Amaliyot topshiriqlari

1. Butun sonni juft yoki toqligini tekshiruvchi dastur tuzing.
2. Berilgan son ham 5 ga ham 7 ga bo‘linishini aniqlaydigan mantiqiy ifoda tuzing.
3. Kiritilgan sonning 3-raqami 7ga tengligini tekshiruvchi dastur tuzing.
4. Kiritilgan sonning necha bit ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
5. Berilganlarga ko‘ra uchburchak yuzini toping.
6. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan sonlarga ko‘ra konsolda uchburchak perimetri va yuzini hisoblovchi dastur tuzing.
7. Oy gravitatsiya doimiysi yer gravitatsiya doimiysining 17%ini tashkil etadi. Odamning yerdagi massasi oyda qancha bo‘lishini aniqlovchi dastur tuzing.(yerda g=9.81m/s2)
8. Kiritilgan ushbu juftlik {x, y} R=5 ga teng bo‘lgan aylananing markazlari bo‘lishini tekshiruvchi dastur tuzing.
9. Kiritilgan ushbu juftlik {x, y} R=5 ga teng bo‘lgan aylananing markazlari bo‘lishini tekshiruvchi va ushbu to‘g‘ri burchakli uchburchakdan [{-1, 1}, {5, 5}]. tashqaridaligini tekshiruvchi dastur tuzing.
10. Kiritigan 4 xonali abcd sonni quyidagi shartlar bo‘yicha tekshiruvchi dastur tuzing:

a. Raqamlar yig‘indisini hisoblovchi
b. Sonni ushbu tartibga o‘tkazuvchi dcba
c. Oxirgi raqamini boshiga o‘tkazuvchi dabc
d. 2- va 3- raqamlarini almashtiruvchi acbd

Testlar

1.Ifodalar operatorlarining baholash tartibini aniqlash semantik qoidalari nechinchi bo‘lib muhokama qilinadi?

a) birinchi

b) ikkinchi
c) uchinchi
d) muhokama qilinmaydi

2. Ifoda—……..

a) dasturiy tildagi hisoblarni ko‘rsatishni asosiy vositasi
b) dasturlash tillarining mohiyatini tayinlash
c) matematika, ilm-fan va muhandislikda topilgan arifmetik ifodalarni avtomatik baholash
d) to‘g‘ri javob berilmagan

3. Ko‘pchilik dasturlash tillarida, binar operatorlari infix ,ular operandni qaerida bo‘ladi?

a) o‘rtasida
b) boshida
c) bo‘lmaydi
d) ifodalar bilan birga

4. Yuqori darajadagi dasturlash tillari birinchi asosiy maqsadlari ?

a) matematika, ilm-fan va muhandislikda topilgan arifmetik ifodalarni avtomatik baholash
b) matematikada rivojlangan konvensiyalardan meros qoldirish
c) tayinlash ifodalarining dominant o‘rnini qoldirish
d) hech qanday maqsad ko‘rilmagan

5. Ko‘pchilik tillar ham yig‘ish va olib tashlash bo‘yicha bir terimli versiyalarini o‘z ichiga oladimi?

a) oladi
b) olmaydi
c) olishi ham olmasligi ham mumkin
d) ham oladi ham olmaydi

6. Funksional tillar, funksiya parametrlari kabi, qanday turdagi o‘zgaruvchilar foydalanadi?

a) har xil
b) bir xil
c) foydalanmaydi

d) funksiyalar parametrsiz bo‘ladi

7. Barcha imperativ tillarning ajralmas qismi nima?

a) dastur ijro paytida o‘zgaradigan o‘zgaruvchi tushunchasi.
b) operator va operand baholash tartibi
c) tilining bog‘liqlik va birinchilik qoidalari
d) semantik va sintaktik qoidalar

8. Qaysi ifodalar jarayoni, shu jumladan, qisqa tutashuv-baholash keyin muhokama qilinadi?

a) Relatsional va mantiqiy
b) Qayta yuklash operatorlari
c) pattern matching
d) Mantiqiy operatorlari

9. Ob’ektni baholash tartibi qanday?

a) bir tilning operator ustunlik, birlashish qoidalari tartibini aytib uning operatorlari baholash.
b) bir ifoda qiymati baholash tartibi
c) til foydalanuvchi belgilangan operatori ortiqcha yuk yo‘l oladi
d) to‘g‘ri javob berilmagan

10. Operandlar qanday ma’noni anglatadi?

a) oldin
b) ob’ekt
c) tartib
d) metod

4-Mavzu. Konsoldan kiritish va chiqarish operatorlari

Reja

Ushbu mavzuda ma’lumotlarni kiritish va chiqarish uchun konsol oynasidan foydalanamiz. Konsol oynasi va undan qanday foydaganish haqida ko‘rib chiqiladi. Matn va sonlarni chop etish va o‘qish hususiyatlarini **S#** tilida кщrib chiqiladi. Turli hil formatdagi ma’lumotlarni chop etish uchun satr formatidan foydalanamiz va **`Console.In`**, **`Console.Out`** va **`Console.Error`** foydalanib asosiy oqimni aniqlaymiz.

Kirish

Operatsion tizim dasturi yoki boshqa konsol ilovalarini foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqa o‘rnatadigan operatsion tizim oynasi. O‘zaro aloqa standard input dan kiritish yoki standard output dan chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonlar kiritish chiqarish amallar sifatida nomoyon bo‘ladi. Konsolda yozilgan matn, birqancha axborot va bir qancha dasturlar tomonidan yuborilgan belgilar ketma-ketligi chiqaradi. Har bir konsol ilovalar uchun kiritish va chiqarish qurilmalarini bog‘laydi. Boshlang‘ich holda bular klavish va ekrandir ammo ular fayllar yoki boshqa qurilmalarga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

1.1 Foydalanuvchi va dastur o‘rtasidagi aloqa

Ko‘pgina dasturlar foydalanuvchilar bilan bir qancha yo‘llar orqali aloqa qiladi. Bu ularga foydalanuvchiga qo‘llanma berish kerakligini anglatadi. Zamonaviy aloqa turlari ko‘p va turlicha. Ular grafik, vebga asoslangan interfeys, konsol yoki boshqalar bo‘lishi mumkin. Foydalanuvchi va dastur o‘rtasidagi aloqani o‘rnatadigan jihoz bu konsol rejimi hisoblanadi.

1.1.1 Konsol qanday chiqariladi

Har bir operatsion tizim konsolni chiqarishda o‘z yo‘liga ega. Misol uchun Windows da quyidagicha bajariladi:

Start -> (All) Programs -> Accessories -> Command Prompt

Yuqoridagi amallar bajarilgandan keyin, quyidagi konsol oynasi hosil bo‘ladi.



Konsol ishga tushirilganda boshlang‘ich xolatda foydalanuvchining asosiy papkasini yo‘li ko‘rsatiladi.

Konsol oynasini chiqarishda pusk tugmasini bosib va qidiruv qutisiga "cmd" yozib [Enter] tugmasini bosish orqali hosil qilishimiz mumkin(Windows Vista, Windows 7 va undan keyingi versiyalarida). Windows XP uchun quyidagi ketma-ketliklar orqali **Start -> Run… ->**, ni tanlab "**cmd**" ni yozib [Enter] tugmasini bosish orqali chiqariladi.

1.2 Windowsda konsol buyruqlari

Konsol ishlayotganda interprator buyrug‘i **"Command Prompt"** yoki **"MS-DOS Prompt"** (Windows ning eski versiyalarida) deb nomlanadi. Bu interprator uchun asosiy buyruqlarni ko‘rib chiqiladi.

Buyruqlar	**izoh**
dir	Joriy papka tarkibini kursatadi
cd <papka nomi>	Joriy papka nomini o‘zgartiradi
mkdir <papka nomi>	Joriy papkada bitta yangi papka yaratadi
rmdir <papka nomi>	Mavjud papkani o‘chirish
i <fayl nomi>	Fayl tarkibini chop etadi
copy <joriy fayl> <fayl adresi>	Bir faylni boshqa faylga nus’halaydi

Windowsda bajariladigan ko‘plab buyruqlar bir qancha misollarda keltirilgan.

```
C:\Documents and Settings\User1>cd "D:\Project2009\C# Book"

C:\Documents and Settings\User1>D:
```

```
D:\Project2008\C# Book>dir
 Volume in drive D has no label.
 Volume Serial Number is B43A-B0D6

 Directory of D:\Project2009\C# Book

26.12.2009   12:24    <DIR>          .
26.12.2009   12:24    <DIR>          ..
26.12.2009   12:23           537 600 Chapter-4-Console-Input-
Output.doc
26.12.2009   12:23    <DIR>          Test Folder
26.12.2009   12:24                 0 Test.txt
             2 File(s)        537 600 bytes
             3 Dir(s)  24 154 062 848 bytes free

D:\Project2009\C# Book>
```

1.3 Konsoldan kiritish va chiqarish qurilmalari

Ilovaga kiruvchi ma’lumot klavyaturadan tashqari ko‘pgina boshqa joylar fayl, mikrafondan ma’lumotlar kelishi mumkin. Dasturdan chiquvchi ma’lumot konsolda ekran bo‘lishi mumkin yoki boshqa chiqaruvchi qurilmalar shuningdek printer bo‘lishi mumkin:

C# dan foydalanib ma’lumotlarni standart kiritish va chiqarish yo‘llarini konsolga chop etish ko‘rsatiladi:

```
Console.Out.WriteLine("Hello World");
```

Yuqoridagi kodni natijasi quyidagicha bo‘ladi:

```
Hello World
```

1.4 Console.Out oqimi

System.Console sinfi o‘qishda foydalaniladigan va konsolda textni namoyish etadagan va uni format asosida chiqaruvchi turli hil xususiyat va metodlarga ega. Ular o‘rtasida 3 ta xususiyat mavjud va ular ma’lumotlarni kiritish va chop etish bilan bog‘lanadi. Misol uchun **Console.Out, Console.In** va **Console.Error**. Ular standart oqimdan konsolda chop etish, o‘qish, va xato xabar xaqida mos ravishda xabar beradi. Shunga qaramay biz konsole sinfining boshqa metodlaridan ham foydalanishimiz mumkin. **System.Console** bizga kiritish va chiqarish operatsiyalari bilan ishlashda bir qancha qulayliklar beradi . Aslida bu oqimlar ustida ishlash konsole funksiyasining qismidir. Biz input / output / error larni mos ravishda **Console.SetOut(...), Console.SetIn(...), Console.SetError(.)** lar bilan almashtirishimiz mumkin.

Konsolga chiqarish

Bu metodlar bilan ishlash ancha oson chunki ular barcha tipdagi ma’lumotlarni chop eta oladi. Misol uchun:

```
// chop etish string tip

Console.Writeline("Hello World");

// chop etish int tip

Console.Writeline("5");

// chop etish  double tip

Console.Writeline("3.14159265358979");
```

```
Hello World

5

3.14159265358979
```

Write(...) va **WriteLine(...)** larning farqi shundaki **WriteLine** ning ma'nosi "write line" ya'ni har birini yangi qatorga yozadi.

```
Console.Writeline(" I love ");

Console.Write(" this ");

Console.Write(" book ");
```

```
I love

This  book
```

Write metodi esa bir qatorga yozadi.

2.1 Satrlarni ulash

Umuman olganda **C#** da operatorlarni satr ustida amal bajarishga ruhsat berilmagan faqatgina "+" amalidan tashqari. Bunda u **n** satr ma'lumotlarni tartib bo'yicha qo'shadi va yangi satr sifatida qabul qiladi. Misol uchun:

```
String  yosh="yigirma bir";

String matn = "U " + yosh + " yoshda";

Console.WriteLine(matn);
```

Quyidagicha natijaga erishamiz.

```
U yigirma bir yoshda
```

2.2 Turli tiplarni qo'shish

Biz **S#** da turli tipdagi ma'lumotlarni "+" operatoridan foydalangan holda qo'shishimiz mumkin. Lekin agar satr tipi qatnashayotgan bo'lsa, yangi ma'lumot satri hosil bo'ladi.

Misol:

```
int yosh=21;

String matn ="U "+yosh +" yoshda";

 Console.WriteLine(matn);
```

Natija quyidagicha bo‘ladi.

```
U 21 yoshda
```

2.3 Satrda qo‘shishning bir qancha xususiyatlari

Bu usullarni bilish ahamiyatli va qiziqarli bo‘lishi bilan birgalikda ehtiyotkorlikni talab etadi.Misol:

```
string s="to’rt:" + 2 + 2;

Console.WriteLine(s);

//to’rt:22

string s1="to’rt:" + ( 2 + 2 );

Console.WriteLine(s1);

//to’rt:4
```

Bular juda muhim hisoblanadi. Dasturda qo‘shish chapdan o‘ngga tomon boradi. Shuning uchun biz 2- natijani olishda qavslardan foydalanamiz. Qavs qo‘yilsa dastlab qavs ichidagi amal bajariladi.

2.4 Write va WriteLine bilan formatlash (output)

Bu quyidagicha bo‘ladi.

```
String str="Hello World";

Console.Write(str);

//umumiy yo’l

//formatlangan yo’l

Console.Write("{0}",str);
```

Natija quyidagicha:

```
Hello World Hello World
```

Har ikkisi ham bir xil. Bu yerda {0} ning o‘rniga 1-argumentni qo‘yadi. Qo‘shimcha misol.

```
string  ism="Madina";
```

```
int yosh=20;
string shahar="Toshkent";
Console.Write("{0} {1} yoshda {2}dan!/n", ism, yosh, shahar);
```

Natija quyidagicha

```
Madina 20 yoshda Toshkentdan!
```

Bu yerda /n yangi qatorga ko‘chishni bildiradi.

2.5 Aralash formatlash

Ular asosan konsole ga chop etishda foydalaniladi. U 2 narsadan foydalanadi.1-si satr aralash formatlash 2-si argument seriyalari. Raqamlar uchun standart formalar:

Belgilar	**Ma’nisi**
C yoki c	Berilgan davlat uchun pul belgisini chiqarib beradi.
D yoki d	Butun son. 0 dan boshlanadigan butun sonlarni chiqarib beradi.
E yoki e	Matematikadagi e=2,7… soni chiqarib beradi.
F yoki f	Haqiqiy yoki butun sonni chiqarib beradi
N yoki n	F bilan 1 xil bir xil vazifa bajaradi faqat 1 bilan 0 lar orasiga vergul qo‘yadi
P yoki p	Foiz 100 ga bo‘lib, sonni foizini chiqarib beradi
X yoki x	Sonni 16 lik sanoq sistemasiga o‘tkazadi

Misollar ko‘rib chiqamiz:

```
class StandardNumericFormats
{
   static void Main()
   {
      Console.WriteLine("{0:C2}", 123.456);
      //Output: 123,46 лв.
      Console.WriteLine("{0:D6}", -1234);
      //Output: -001234
      Console.WriteLine("{0:E2}", 123);
      //Output: 1,23E+002
      Console.WriteLine("{0:F2}", -123.456);
      //Output: -123,46
```

Yuqoridagi kod natijasi quyidagicha bo‘ladi:

```
      Console.WriteLine("{0:N2}", 1234567.8);
      //Output: 1 234 567,80
      Console.WriteLine("{0:P}", 0.456);
      //Output: 45,60 %
      Console.WriteLine("{0:X}", 254);
      //Output: FE
   }
}
```

2.6 Sonlar uchun odatiy(formal bщlmagan) formalar

Quyidagi formatlar foydalanuvchilar tomonidan odatiy tusga aylangan lekin bu

```
      Console.WriteLine("{0:N2}", 1234567.8);
      //Output: 1 234 567,80
      Console.WriteLine("{0:P}", 0.456);
      //Output: 45,60 %
      Console.WriteLine("{0:X}", 254);
      //Output: FE
   }
}
```

formatlar S# ning standart formatlari emas. Standart formatlardan farqi shundaki bu formatlar belgilardan tashkil topgan:

Belgilar	Ma’nosi
0	Raqamni ifodalaydi. Agar raqam tushib

	qolsa 0 yoziladi
#	Raqamni ifodalaydi. Agar bu belgi yozilsa hech nima chop etmaydi.
.	O‘nlar xonasigacha yaxlitlab beradi
,	Minglar xonasigacha yaxlitlab beradi
%	Foizni chiqaradi. Natijani 100 ga ko‘paytirib, foizda chiqarib beradi
E0, E+0 va E-0	E0 va Ye+0 exponentani beradi Ye-0 ye sonini qaramma – qarshi qiymati

Odatiy formatlarni hammasi keltirilmagan. Ular haqidagi barcha ma’lumotlarni **MSDN**. Quyidagi misollar formatlardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi:

```
class CustomNumericFormats
{
  static void Main()
  {
     Console.WriteLine("{0:0.00}", 1);
     //Output: 1.00
     Console.WriteLine("{0:#.##}", 0.234);
     //Output: .23
     Console.WriteLine("{0:#####}", 12345.67);
     //Output: 12346
     Console.WriteLine("{0:(0#) ### ## ##}", 29342525);
     //Output: (02) 934 25 25
     Console.WriteLine("{0:%##}", 0.234);
     //Output: %23
  }
}
```

2.7 Sana uchun standart satr formalar

Sana formatlaridan faydalanganimizda standart va odatiy formatlarni ajratamiz.

2.7.1 Sana formatlarining standart shakli

Bu formatlar juda ko‘p biri qanchasi keltirildi va qolganlarini **MSDN** da tekshirib olinidi.

Belgilar	**Ma’nosi**

D	20/05/2016
D	May 20, 2016
T	13:16 (soat)
T	13:16:15 (soat)
Y yoki y	May 2016

2.7.2 Odatiy sana formatlari

Sananing odatiy formatlari sonlarning odatiy formatlariga o‘xshash va ularda ikkilangan format belgilar ham bor. Quyidagi jadvalda sana formatlari qanday ishlatilishi ko‘rsatib o‘tilgan:

Belgilar	Format ma’nosi
d	1 dan 31 gacha kunlar
dd	01 dan 31 gacha kunlar
M	1 dan 12 gacha oylar
MM	01 dan 31 gacha oylar
yy	Yilning oxirgi ikki raqami (00 dan 99 gacha)
yyyy	4 ta raqam yozilgan yil
hh	00 dan 11 gacha bo‘lgan soat
HH	00 dan 23 gacha bo‘lgan soat
M	0 dan 59 gacha bo‘lgan minut
Mm	00 dan 59 gacha bo‘lgan minut
S	0 dan 59 gacha bo‘lgan soniya
SS	00 dan 59 gacha sekund

Belgilarni ishlatganda ularni ajratish uchun 2 ta belgidan ya'ni "." yoki "/" lardan foydalaniladi.

```
DateTime d = new DateTime(2012, 02, 27, 17, 30, 22);
Console.WriteLine("{0:dd/MM/yyyy HH:mm:ss}", d);
Console.WriteLine("{0:d.MM.yy}", d);
```

Yuqoridagi kod natijasi:

```
27/02/2012 17:30:22
27.02.12
```

```
27.02.2012 17:30:22
27.02.12
```

Konsoldan kiritish

Kiritish standartlari dastur qaerdan kiritilgan ma'luotni qabul qilishini tekshirib turuvchi operatsion tizimning qismi hisoblanadi. Klavish orqali kiritilgan ma'lumotni avtomatik ravishda o'qiydi. Agar kiritgan ma'lumotimiz o'zgarsa, standart kiritish yana qayta ma'lumotlarni o'zgartiradi. Har bir dasturlash tilida konsolda o'qish va yozish uchun shunday mehanizm bor. Console.In. orqali ob'ekt C# dagi standart kiritish oqimini tekshiradi.

Konsoldan turli hil ma'lumotlarni o'qib olishimiz mumkin:

Text

Textni o'tkazganimizdan keyingi boshqa tiplar odatda **`Console.In.`** orqali kiritish kam ishlatiladi. Kolsol klassi kiritilgan ma'lumotni o'qishda 2 ta metodddan foydalaniladi: `Console.Read()`va `Console.ReadLine()`

3.1 Console.ReadLine() orqali o'qish

`Console.ReadLine()` metodi konsoldan o'qishda juda katta qulaylik yaratadi. U qanday ishlaydi? Qachon bu metod chaqirilganda u konsoldan ma'lumot kiritilishini kutib turadi. Foydalanuvchi bir qancha satrlarni kiritadi va **[Enter]** tugmasini bosadi. Shu vaqtda konsol foydalanuvchi kiritishni tugatganini tushinadi va satrni o'qishni boshlaydi. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan satrni `Console.ReadLine()` metodi natija sifatida qaytaradi. `Console.ReadLine()` deb nom qo'yilish sababi ham shundadir.

Console.ReadLine() ga misol ko‘rib chiqiladi:

```
class UsingReadLine
{
   static void Main()
   {
      Console.Write("Please enter your first name: ");
      string firstName = Console.ReadLine();

      Console.Write("Please enter your last name: ");
      string lastName = Console.ReadLine();

      Console.WriteLine("Hello, {0} {1}!", firstName, lastName);
   }
}

// Output:  Please enter your first name: John
//          Please enter your last name: Smith
//          Hello, John Smith!
```

Console.ReadLine() metodida bajarilgan natijani tahlil qilinadigan bo‘lsa, foydalanuvchi tomonidan so‘ralgan ma’lumot konsol orqali kiritiladi. **[Enter]** bosilguncha bo‘lgan ma’lumotni **ReadLine()** metodi o‘qiydi. Bu jarayon 2-so‘rovda ham takrorlanadi. Kerakli ma’lumot yig‘ilganidan so‘ng u konsolda chop etiladi.

3.2 Console.Read() metodi orqali o‘qish

Read() metodi va **ReadLine()** metodidan ozgina farq qiladi. Aytish joizki u bir belgini o‘qiydi, bo‘sh joygacha emas. Boshqa bir muhim farq shuki kod bo‘lsa ham javob qaytarmaydi. Agar biz natijadan o‘zgaruvchi sifatida foydalanmoqchi bo‘lsak biz uni belgiga almashtirishimiz kerak yoki **Convert.ToChar()** metodidan foydalanamiz. Bu yerda juda muhim xususiyat bor: belgi **[Enter]** tugmasi bosilguncha o‘qiladi. Konsoldan kiritilgan satr, satr kiritish standarti bufferiga ko‘chiriladi va **Read()** metodi undagi birinchi belgini o‘qiydi. Agar buffer bo‘sh bo‘lmasa metodning keyingi so‘rovlari uchun dastur natijasi to‘xtamasdan keyingi belgini buffer bo‘sh bo‘lguncha o‘qishni davom etadi. Bundan keyin foydalanuvchi **Read()** metodini kiritmaguncha dastur kutib turadi. Misol.

```
class UsingRead

{

  static void Main()
```

```
    {
      int codeRead = 0;
      do
      {
        codeRead = Console.Read();
        if (codeRead != 0)
        {
          Console.Write((char)codeRead);
        }
      }
      while (codeRead != 10);
    }
  }
```

Bu dastur foydalanuvchi tomonidan kiritilgan 1-qatorni o‘qiydi va uni belgi sifatida chop etadi. Biz shunga ahamiyat berishimiz kerakki **Console.Read()** metodi **Console.ReadLine()** ga qaraganda amaliyotda kam qo‘llaniladi.bunga sabab **Console.Read()** metodi bilan xatolar qilish ehtimoli mavjudligidadir.

3.3 Sonlarni o‘qish

S# da sonlarni konsoldan to‘gridan to‘gri o‘qish hali mavjud emas.sonni o‘qishimiz uchun biz kiritilgan sonni Konsole.ReadLine metodi orqali satr tipida o‘qib olamiz va keyin uni son tipiga o‘tkazamiz.bu jarayon parsing deb ataladi.quyidagi misol sonni o‘qib olishga va uni parse (o‘tkazish)ga berilgan.

```
class ReadingNumbers
{
```

```
        static void Main()
        {
            Console.Write("a = ");
            int a = int.Parse(Console.ReadLine());

            Console.Write("b = ");
            int b = int.Parse(Console.ReadLine());

            Console.WriteLine("{0} + {1} = {2}", a, b, a + b);
            Console.WriteLine("{0} * {1} = {2}", a, b, a * b);

            Console.Write("f = ");
            double f = double.Parse(Console.ReadLine());
            Console.WriteLine("{0} * {1} / {2} = {3}",
                a, b, f, a * b / f);
        }
    }
```

Natijasi:

```
a = 5
b = 6
5 + 6 = 11
5 * 6 = 30
f = 7.5
5 * 6 / 7.5 = 4
```

Bu misolda muhim narsa shuki biz **Parse** metodini sonlar uchun qo‘lladik. Qachonki biz xato natija olsak natija **System.FormatException** ga yuboriladi. Bunday

jarayon haqiqiy sonlarni o‘qishda bo‘ladi. Chunki sonlar orasida chegara mavjudligi va har bir kichik to‘plam uchun operatsion tizimda alohida muhit mavjudligidir.

3.4 Console.ReadKey() orqali o‘qish

Console.ReadKey() metodi konsoldan belgilarni kiritilishini kutib turadi va **[Enter]** tugmasini bosilishini kutmasdan o‘qiy boshlaydi. **ReadKey()** dan so‘ralgan natija bosilgan tugma ma’lumoti bo‘lib u **ConsoleKeyInfo.** tipiga tegishlidir.

Quyida misol

```
ConsoleKeyInfo key = Console.ReadKey();

Console.WriteLine();

Console.WriteLine("Character entered: " + key.KeyChar);

Console.WriteLine("Special keys: " + key.Modifiers);
```

Natija:

```
A
Character entered: A
Special keys: Shift
```

2.5 Sonlarni Nakov.IO.Cin orqali oson o‘qib olish

Sonlarni osongina o‘qib olishning alohida standarti mavjud emas. **S#** va **.Net Framewor**kda biz satrlarni o‘qishga ehtiyoj sezamiz, uni belgilarga bo‘lishda bo‘sh joylardan foydalaniladi boshqa tillar va platformalarda **S++** da sonlar belgilar va matnlarni parse qilmasdan o‘qiy olamiz. Lekin **S#** da qo‘shimcha kutubxona va klass lardan foydalanamiz.

```
using Nakov.IO;

…

int x = Cin.NextInt();

double y = Cin.NextDouble();

decimal d = Cin.NextDecimal();

Console.WriteLine("Result: {0} {1} {2}", x, y,
d);
```

Quyidagicha natijaga erishamiz:

```
3   2.5
 3.58
Result: 3 2.5 3.58
```

Asosiy adabiyotlar

1. Robert W. Sebesta, Concepts of Programming Languages, John Wiley & Sons, USA 2015.
2. Fundamentals of Computer Programming With C# (The Bulgarian C# Programming Book). Svetlin Nakov & Co., 2013
3. Andrew Troelsen. Pro C# 5.0 and the .NET 4.5 Framework Sixth Edition 2012 apress.

Glossariy

- **Konsol** – oynada ma'lumotlar va dastur natijasini ko'rish uchun ishlatiladi
- **System.Console** - **Console** sinfi yordamida konsolga chiqarish
- **Read(…)** – bitta belgini o'qish
- **ReadKey(…)** – klavish kombinatsiyasini o'qish
- **ReadLine(…)** – belgilarni bitta qatorini o'qish
- **Write(…)** – konsolga argumentlarni chiqarish
- **WriteLine(…)** – konsolga ma'lumotlarni chiqarish va keyingi qatorga o'tish
- **Console.ReadKey()** – klavish bosilguncha ekranni ushlab turadi
- **KeyChar** – kiritilgan belgini ushlab turadi
- **Modifiers** – **[Ctrl], [Alt],** … xoltini ushlab turadi
- **int.Parse(string)** – satrni butun tipga o'tkazadi
- **Convert klassi** – metodidan foydalangan holda boshqa tipga o'tkazish uchun ishlatiladi
- **try-catch** – hatoliklarni ushlab qolish uchun ishlatiladi
- **TryParse()** – hatoliklarni ushlab qolish uchun ishlatiladi

Amaliy mashg'ulot

- **1-misol.** 4 xonali butun ***n*** sonni konsoldan o'qib oling va har bir xona birligi asosida ekranga chop eting.

- **Visual Studio 2013 (VS 2013)** muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi, **1.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



- **1.1-rasm. Visual Studio 2013** tizimining boshlang‘ich sahifasi

- **VS 2012** muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **FirstProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz. Natijada **1.2 rasm**da keltirilgan quyidagi oyna shakllantiriladi.



- **1.2-rasm.** Dasturiy kod oynasi

- Endi berilgan masala kodini

```
static void Main(string[] args)
        {
        }
```

- S# dagi asosiy metod blokiga yoziladi.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
    class Program
    {
        static void Main(string[] args)
        {
            Console.Write("To'r xonali sonni kiriting:
");
            int n = int.Parse(Console.ReadLine());
            Console.WriteLine("Birlar xonasi: {0}", n %
10);
```

```
            Console.WriteLine("O'nlar xonasi: {0}", (n % 100)/10);
            Console.WriteLine("Yuzlar xonasi: {0}", (n / 100)%10);
            Console.WriteLine("Minglar xonasi: {0}", n / 1000);
            Console.ReadKey();
        }
    }
}
```

- Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. ***n*** sonini kiritamiz va 1.3-rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



1.3-rasm. Konsol oynasi.

- Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

Amaliyot topshiriqlari

2. Konsolda ismingiz va familiyangizni chop qiluvchi dastur tuzing.

3. Konsolda 1, 101, 1001 larni har birini yangi qatordan chop etuvchi dastur tuzing.
4. Konsolda bugungi kun va vaqtni chiqaruvchi dastur tuzing.
5. Konsoldan yoshingizni o‘qib olib 10 yildan keying yoshingizni chop etuvchi dastur tuzing.
6. int tipida 2 ta o‘zgaruvchi e’lon qiling. Ularning qiymatlarini mos ravishda 5 va 10 ga teng. Ularni almashtirib chop qiluvchi dastur tuzing.
7. Quyidagi qiymatlarning mos tiplarini aniqlang:
   sbyte, byte, short, ushort, int, uint, long va **ulong** 52,130; -115;4825932; 97; -10000; 20000; 224; 970,700,000; 112; -44; -1,000,000; 1990; 123456789123456789.
8. Quyidagi qiymatlar qaysi tipga tegishli:
   float, double va **decimal**
   5, -5.01, 34.567839023; 12.345; 8923.1234857; 3456.09112487595654215125668346 7?
9. 2 ta haqiqiy sonni 0.000001 aniqlikda taqqoslaydigan dastur tuzing.
10. **int** tipidagi 256 sonini 16 lik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.
11. Marketing bilan shug‘ullanuvchi kompaniya o‘z xodimlaridan ma’lumotlarni yozishini xoxladi. Ushbu ma’lumotnomada ismi, familiyasi, yoshi, jinsi, alohida kartasi (27560000 dan 27569999shungacha) bo‘lishi kerak. O‘zgaruvchilar e’lon qilgan holda har bir xodim uchun yarating.
12. 3 ta sonli tiplarni konsoldan o‘quvchi va ularni qiymatini chiqaruvchi dastur tuzing.
13. Aylanani **r** radusini konsoldan o‘qib primetri va yuzasini chop etuvchi dastur tuzing.
14. Kompaniyani nomi, adresi, telefon nomeri, faks nomeri, veb sayti va boshqaruvchisi bor. Boshqaruvchisining ismi, familyasi, yoshi, va telefon nomeri bor. ma’lumotlarni konsoldan o‘qib oluvchi va chiqaruvchi dastur tuzing.
15. 2 ta musbat butun sonni ekrandan o‘qib oling va shu sonlar orasidagi sonlar p soniga teng ular orasida 5 ga bo‘lganda qoldiq 0 qoladigan sonlarni nechta ekanini aniqlovchi dastur tuzing.
    Masalan: p(17,25) = 2.
16. Konsoldan 2 ta sonni o‘qib oling va ularni kattasini chop eting. **if** operatoridan foydalanmang.

17. $ax^2+bx+c=0$ kvadrat tenglamaning koeffitsentlari a, b va c konsoldan o‘qib olinsin va kvadrat tenglamaning yechimlari (haqiqiy son) chop etilsin.
18. **n** sonini ekran orqali kiriting va yana **n** ta son kiriting va ularni yig‘indisini hisoblang.
19. **n** butun sonni konsoldan o‘qing va **[1..n]** oralig‘dagi barcha sonlarni har birini alohida qatorga chop etish dasturini yozing.
20. Fibbonachi ketma-ketligini birinchi 100 ta elementini chop etish dasturini tuzing: 0, 1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, 34, 55, 89, 144, 233, 377, …
21. Quyidagi summani hisoblash dasturini yozing (0.001 aniqlikda):
    1 + 1/2 - 1/3 + 1/4 - 1/5 + ...

Testlar

1. Konsol oynasi nima vazifalarni bajaradi?

a) oynada ma’lumotlarni ko‘rish uchun ishlatiladi
b) oynaga ma’lumotlarni chiqarish uchun ishlatiladi
c) oynadan ma’lumotlarni o‘qib olish uchun ishlatiladi
d) berilgan javoblarni barchasi to‘g‘ri

2. Qaysi sinfi yordamida konsolga chiqariladi?

a) **System.Console**
b) **ConsoleKeyInfo**
c) **int.Parse(string)**
d) **float.Parse(string)**

3. Konsoldan belgilar ketma – ketligini o‘qish uchun qaysi metoddan foydalaniladi?

a) **WriteLine(…)**
b) **ReadKey(…)**
c) **ReadLine(…)**
d) to‘g‘ri javob berilmagan

4. Konsolga yozish qaysi metoddan foydalaniladi?

a) **WriteLine(…)**
b) **ReadKey(…)**
c) **ReadLine(…)**
d) **Read()**

5. Console.WriteLine(…) metodi nima vazifni bajaradi?

a) konsolga argumentlarni chiqarish

b) konsolga ma’lumotlarni chiqarish va keyingi qatorga o‘tish
c) klavish kombinatsiyasini o‘qish
d) bitta belgini o‘qish

6. Console.Write(…) va Console.WriteLine(…) metodlari orasida qanday farq bor.

a) ikkisi ham bir hil vazifani ba
b) tasdiklar
c) matinlar
d) satrlar

7. dir buyrug‘i nima vazifasini bajaradi?

a) Joriy papka nomini o‘zgartiradi
b) Joriy papkada bitta yangi papka yaratadi
c) Joriy papka tarkibini kursatadi
d) Fayl tarkibini chop etadi

8. Konsolda standart oqimlarni ko‘rsating?

a) Console.Out
b) Console.In
c) Console.Error
d) Berilgan javoblarni barchasi to‘g‘ri

9. Satrlar bilan ishlashda qaysi amalni ishlatishga ruhsat berilgan?

a) +
b) -
c) /
d) *

10./n nima vazifani bajaradi?

a) yangi qatorga ko‘chishni
b) satrlarni joyini almashtirishni
c) 2 ta satr orasida joy ajratishni
d) to‘g‘ri javob berilmagan

5-maruza. Shart operatorlari

Reja

1. Taqqoslash operatorlari va mantiqiy ifodalar
2. Mantiqiy operatorlar

3. “if” va “if – else” shart operatorlari
4. “if” strukturasini ichma – ich joylashishi
5. “if – else –if – else …”operatorining ketma – ketligi
6. “switch-case” tanlash operatori

Bu mavzuda **C#**da shartli operatorlar haqida ma’lumot beriladi. Biz shartli **if** va **else** operatorlarining sintaksisini va tanlash **switch-case** operatori tushuntiramiz. Biz quyida shart operatorlarini ishlatganda amaliy misollar bilan ko‘rsatib beramiz.

1. Taqqoslash operatorlari va mantiqiy ifodalar

Navbatdagi bo‘limda biz **C#** tilidagi asosiy taqqoslash operatorlarini esga olamiz. Ular muhim chunki biz ulardan shartli operatorlarda ularning shartini tasvirlashda foydalanamiz.

1.1 Taqqoslash operatorlari

C#da bir qancha taqqoslash operatorlari bor, ular asosan butun sonlar juftini, haqiqiy sonlarni, belgilarni, satrlarni va boshqa tiplarni taqqoslashda ishlatiladi:

Operator	**Ma’nosi**
==	Tenglik
!=	teng emas
>	qat’iy katta
>=	katta yoki teng
<	qat’iy kichik
<=	kichik yoki teng

Taqqoslash operatorlaridan ikkita sonlarni, ikkita raqamli ifodalarni yoki raqamli o‘zgaruvchilarni taqqoslashda foydalanamiz. Taqqoslash natijasi mantiqiy qiymat (**true** yoki **false**) bo‘ladi. C#da taqqoslash operatorga oid misol ko‘rib chiqamiz:

```
int weight = 700;
Console.WriteLine(weight >= 500); // True

char gender = 'm';
Console.WriteLine(gender <= 'f'); // False

double colorWaveLength = 1.630;
Console.WriteLine(colorWaveLength > 1.621); // True

int a = 5;
int b = 7;
bool condition = (b > a) && (a + b < a * b);
Console.WriteLine(condition); // True

Console.WriteLine('B' == 'A' + 1); // True
```

Bu namunada ko‘rsatilgan taqqoslashdagi dastur sonlar va belgilar o‘rtasida. Bu misolda sonlar o‘zlarining o‘lchami bo‘yicha taqqoslanyapti. Belgilar taqqoslanganda esa ularning **Unicode** da turgan tartibiga qaralyapti. Misolda ko‘rinib turibdiki **char** tipi o‘zini xuddi sonlardek tutadi. Biz bu tipni sonlar bilan istalgan amalimizni (**‘+’** va **“-”**) bajarishimiz mumkin va bir-biri bilan taqqoslay olamiz. Vaholanki bunday dastur kodini qiyinligi o‘qish va tushunish murakkab bo‘lsa ham foydalaniladi.

Misolning natijasi quyidagicha:

```
True
False
True
True
True
```

C#da quyidagi ma’lumot tiplari taqqoslanishi mumkin:

- ***sonlar*** *(int, long, float, double, ushort, decimal…)*
- ***belgilar*** *(char)*
- ***mantiqiy*** *(bool)*

- ***qiymatlarga havolalar, qiymatlar ko‘rsatkichlari*** *(string, object, massiv va boshqalar)*

Har doim ikkita sonlarni o‘zaro ta’sirini, ikkita mantiqiy qiymatlarni yoki ikkita qiymat havolalarini taqqoslaymiz. Turli xil tipdaga ifodalarni taqqoslay olamiz va misol uchun xaqiqiy sonlar bilan butun sonlarni. Ammo har birini ma’lumotlar tiplarini to‘g‘ridan – to‘g‘ri taqqoslay olmaymiz. Misol uchun sonlar bilan satrlarni taqqoslay olmaymiz.

1.2 Belgilar va sonlarni taqqoslash

Qachonki sonlar va belgilarni taqqoslayotganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri biz ularning xotiradagi ikkilik sanoq sistemasidagi ko‘rinishlarini taqqoslaymiz. Misol uchun agar biz butun tipdagi ikki sonni taqqoslaganda biz har birining 4 baytdagi qiymatini taqqoslaymiz. Quyidagi misolda butun sonlar va belgilar taqqoslangan:

```
Console.WriteLine("char 'a' == 'a'? " + ('a' == 'a'));  // True
Console.WriteLine("char 'a' == 'b'? " + ('a' == 'b'));  // False
Console.WriteLine("5 != 6? " + (5 != 6));               // True
Console.WriteLine("5.0 == 5L? " + (5.0 == 5L));         // True
Console.WriteLine("true == false? " + (true == false)); // False
```

Misolning natijasi:

```
char 'a' == 'a'? True
char 'a' == 'b'? False
5 != 6? True
5.0 == 5L? True
true == false? False
```

1.3 O‘zgaruvchilarning xotiradagi joyi bo‘yicha taqqoslash

.NET FRAMEWORKda o‘zgaruvchi ma’lumot tiplarining qiymatlari saqlanmaydi. Lekin xotiradagi manzili va qancha joy egallaganligi haqida ma’lumot turadi. Satr, massiv va klass tiplari shular jumlasidandir. Ular o‘zlarini qiymat bor yoki yo‘q **(null)**dek tutadi. Agar biz o‘zgaruvchilart tipi haqidagi ma’lumotlarni taqqoslaganimizda, ular egallagan joyni tekshiramiz. Tekshirish natijasi bir xil bo‘lsa, demak ular bir narsadir. Bunda ularda 3 xil ko‘rinishda ya’ni, ular bir qiymatli, turli qiymatli yoki ulardan biri bo‘sh **(null)** bo‘lishi mumkin.

Navbatdagi misolda ikkita bir xil qiymat ega bo‘lgan o‘zgaruvchi e’lon qildik.

```
string str = "beer";
string anotherStr = str;
```

Yuqoridagi bajarilgan kod natijasi shuni ko‘rsatadiki ikki **str** va **anotherStr** o‘zgaruvchilar bir xil narsa (satr tipli qiymati **“beer”**) va bosh xotirada bir xil joy egallaydi. Biz o‘zgaruvchilar qiymatlarining bir xil yoki bir xil emasligini **(==)** operatori orqali tekshiramiz. Ko‘plab ma’lumotlar tiplarida bu operator ularni qiymatlarini emas balki xotirada bir xil joy egallaganmi yo‘qmi ekanini tekshiradi. Ularni taqqoslaganda quyidagi amallardan foydalanamiz (**< , > , < =** va **>=**).

Quyidagi misolda o‘zgaruvchi qiymatlarining xotiradagi joyini taqqoslash ko‘rsatilgan:

```
string str = "beer";
string anotherStr = str;
string thirdStr = "be" + 'e' + 'r';
Console.WriteLine("str = {0}", str);
Console.WriteLine("anotherStr = {0}", anotherStr);
Console.WriteLine("thirdStr = {0}", thirdStr);
Console.WriteLine(str == anotherStr); // True - same object
Console.WriteLine(str == thirdStr); // True - equal objects
Console.WriteLine((object)str == (object)anotherStr); // True
Console.WriteLine((object)str == (object)thirdStr); // False
```

Bu misolni bajarganimizdan keyin, quyidagi natijani olamiz:

```
str = beer
anotherStr = beer
thirdStr = beer
True
True
True
False
```

Chunki bu misolda satr tipidan foydalanilgan (**C#** dasturlash tilida satr **string** kalit so‘zi orqali belgilanadi u **System.String** klassining ichida joylashgan), ularning qiymatlari xotiradan ob’ekt sifatida joy olgan. Bu ikki o‘zgaruvchi **str** va **thirdStr** ning qiymatlari teng, ammo turli o‘zgaruvchilar va xotirada joylashgan adresi turli xil. **anotherStr** o‘zgaruvchisining adresi **str** ning adresiniga murojaat qiladi va **str** o‘zgaruvchisiga teng. **str** va **anotherStr** o‘zgaruvchilarini taqqoslash orqali ular teng va bir xilligini ko‘ramiz. Ikkita **str** va **anotherStr** ni taqqoslash natijasi ularning tengligini ko‘rsatadi, chunki **==** operatori satr tipdagi o‘zgaruvchilarni qiymatlari orqali taqqoslaydi ularni adreslar orqali emas (adreslar orqali taqqoslash qoidasiga

istisno holat). Agar biz uchta o‘zgaruvchining qiymatlarini o‘zgartirsak va keyin ularni taqqoslasak, ularning qiymatlari joylashgan addreslarni taqqoslaymiz va ularning natijasi turlicha bo‘ladi.

Yuqoridagi misol shuni ko‘rsatadiki **==** operatorida satrlarni taqqoslash uchun maxsus xususiyatga ega, ammo qolgan tiplar xotiradagi joylashgan adresi bo‘yicha taqqoslanadi.

2. Mantiqiy operatorlar

S# dagi mantiqiy operatorlarni esga oladigan bo‘lsak, ular ko‘pincha mantiqiy ifodalarni qurishda ishlatiladi. Ular quyidagilar: **&&, ||, !, ^** lar kiradi.

2.1. && va || mantiqiy operatorlari

&& (va) va **|| (yoki)** mantiqiy operatorlar ko‘pincha mantiqiy tipdagi ifodalar uchun foydalaniladi (qiymatlar **bool** tipida). **&&** operator orqali ikkita ifodani taqqoslashda olingan natija – **true (**to‘g‘ri**)** bo‘ladi qachonki, ikkala o‘zgaruvchi qiymat ham bir vaqtda **true (**to‘g‘ri**)** bo‘lsa. Misol uchun:

Bu ifodada “**true**” chunki 2 ta operandlar: (2<3) va (3<4) bir vaqtda “**true**”.

```
bool result = (2 < 3) && (3 < 4);
```

&& mantiqiy operatori **qisqa hisoblash** deb ataladi, chunki u qo‘shimcha kerak bo‘lmagan hisoblashlar uchun vaqt sarflamaydi. U dastlab birinchi operandga qaraydi agar qiymat **false (**yolg‘on**)** bo‘lsa, u ikkinchi qismini hisoblash uchun vaqt yo‘qotmaydi. Birinchi qismi “**true**” bo‘lmasa oxirgi qiymati ham “**true**” bo‘lmasligi aniq. Shu sababli bu mantiqiy ifoda qisqa xisoblash **"and"** deb ataladi.

Shuningdek, **||** operatori **true** qiymat qaytaradi agar ikkalasining bittasi **true** qiymat bo‘lsa. Misol:

```
bool result = (2 < 3) || (1 == 2);
```

Bu misolda **“true”,** chunki birinchi operandi **“true”.** Shunga o‘xshab **&&** operator hisoblashni tez amalga oshiradi – agar birinchi operator “**true**” bo‘lsa, ikkinchi qismi hisoblanmaydi, ammo natija aniq bo‘ladi. Shu sababli bu mantiqiy ifoda qisqa xisoblash **"or"** deb ataladi.

2.2 & va | mantiqiy operatorlar

& va **|** operatorlar **&&** va **||** operatorlar bilan bir xil. Farqi shundaki **&&** va **||** operatorlar ikkila operandlarni biridan keyin boshqasini hisoblaydi, shunga qaramasdan oxirgi natija aniq bo‘ladi. **&** va **|** operatorlar esa ikkala operandlarni to‘liq tekshiradi shuning uchun bu operatorlar **to‘liq mantiqiy operatorlar** deb ataladi va ular kam foydalaniladi.

Misol uchun, ikki operand **&** operator orqali taqqoslanganda birinchisi **“false”(**yolg‘on) bo‘lsa ham, ikkinchisini ham hisoblaydi. Natija aniq **“false**” bo‘lsa ham. Shuningdek, ikki operand **|** operator orqali taqqoslanganda birinchisi **“true”** (rost) bo‘lsa ham, ikkinchisini ham tekshiradi, natijasi “**true**” bo‘lsa ham(ikkinchisini tekshirmasdan ham).

Biz mantiqiy **&** va **|** operatorlarini butun sonlardagi **&** va **|** amallar bilan garchi ular bir xil yozilsa ham adashtirmasligimiz kerak. Ular turli qiymatlar qabul qiladi (mantiqiy ifoda yoki butun son) va turli natijalar qaytaradi (mantiqiy yoki butun) va ularning bajarish vazifasi bir xil emas.

2.3 ^ va ! mantiqiy operatorlar

^ operatori maxsus **OR** (**XOR**), u to‘liq operatorga bog‘liq, chunki ikki qismi ham ketma – ket hisoblanadi. Agar birinchisini qiymati “**true**” bo‘lsa natija “**true**” bo‘ladi, ammo ikkalasi bir vaqtda bir xil bo‘lmaydi. Agar shunday bo‘lsa, natija “**false**” bo‘ladi. Masalan:

```
Console.WriteLine("Exclusive OR: "+ ((2 < 3) ^ (4 > 3)));
```

Natijasi:

```
Exclusive OR: False
```

Dastlab ikkila ifoda (2<3) va (4>3) bajariladi va ular natijasi “**true**” **OR** operatoridan so‘ng natija “**false**” ga teng bo‘ladi.

! operatori mantiqiy tipdagi ifodani aksini qaytaradi. Masalan:

```
bool value = !(7 == 5); // True
Console.WriteLine(value);
```

Yuqoridagi kod natijasi **true** qiymat qaytaradi chunki “7==5” ifoda **False** qiymat qaytaradi va **False** ni inkori esa **true (**rost)ni beradi. Eslatib o‘tamiz konsolda **true** qora ekranga chiqanda katta harf bilan yoziladi **“True”.** Bu kamchilik VB.NET tilidan **.NET FRAMEWORK** ga kirib kelgan.

“**if**” va “**if – else**” shart operatorlari

Ifodalarni qanday taqqoslashni ko‘rganimizdan so‘ng, biz shart operatorlari bilan ishlashni davom ettiramiz, u bizga dasturlashning mantiqiy qismini bajarishga ruxsat beradi.

Shart operatorlar **if va if – else** operatorlar bo‘lib, ular orqali shart tekshiradi va dasturda turli xil amallar bajariladi.

3. “ if ” shart operotori

if ning asosiy sintaksisi quyidagicha:

```
if (Boolean expression)
{
   Body of the conditional statement;
}
```

Yuqoridagi sintaksisda **if** dan so‘ng Boolean express-mantiqiy ifoda bo‘lib, agar u rost qiymat qaytarsa tana qismga. Mantiqiy ifoda butun tipda bo‘la olmaydi.

Tana qismi ya’ni ikkitalik qavs ichida berilgan: **{ }.** U bir va ko‘p operatorlardan iborat bo‘lishi mumkin. Bizda qo‘shimcha blok operatorlar yordamida boshqa jarayonlarni ham amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi va {} qavslar ketma – ketligida bajariladi.

{} qavs ichidagi operatorlarga o‘tishi uchun **if** operatoridagi mantiqiy qiymati **true** qiymatlarini qaytarishi zarur. Agar ifoda hisoblanganda qiymati **true** bo‘lsa, asosiy qismi bajariladi. Agar natija **false** bo‘lsa asosiy qismidan sakrab o‘tib ketadi.

“if” shart operatoriga – misol:

Misoldagi **if** shart operatori ishlatilishiga etibor qaratamiz:

```
static void Main()
{
   Console.WriteLine("Enter two numbers.");
   Console.Write("Enter first number: ");
   int firstNumber = int.Parse(Console.ReadLine());
   Console.Write("Enter second number: ");
   int secondNumber = int.Parse(Console.ReadLine());
   int biggerNumber = firstNumber;
   if (secondNumber > firstNumber)
   {
      biggerNumber = secondNumber;
   }
   Console.WriteLine("The bigger number is: {0}", biggerNumber);
}
```

Agar biz 4 va 5 butun sonlarini kiritsak natija quyidagicha bo‘ladi:

```
Enter two numbers.
Enter first number: 4
Enter second number: 5
The bigger number is: 5
```

3.1. If shart operatori va { } qavslar

Agar **if** shartining ichida bitta operator bo‘lsa, {} qavslar ish bajarmaydi. Ammo {} qavslardan foydalanish xatoliklarni kamayishiga zamin yaratadi.

Bu yerda {} qavslar bajarilmasligiga misol:

```
int a = 6;
if (a > 5)
   Console.WriteLine("The variable is greater than 5.");
   Console.WriteLine("This code will always execute!");
// Bad practice: misleading code
```

Bu misolda **if** operatorini asosiy qismining ikkita chiqarish amali a>5 ifoda rost bo‘lgan xolda birinchi chiqarish operatori bajariladi.

Doimo if bloklari uchun {} qavslarni qo‘ying hatto u bitta operator bo‘lsa ham.

3.2. “if – else” shart operatori

Ko‘p dasturlash tillarida shart operatorlari **else** bilan ishlatiladi shu jumladan C# da ham. **if – else** strukturasini tuzilishi quyidagicha:

```
if (Boolean expression)
{
  Body of the conditional statement;
}
else
{
  Body of the else statement;
}
```

if – else strukturasining sintaksisi **if** mantiqiy ifoda va uning tana qismi, **else** (u holda) tana qismidan iborat . **Else –** strukturasining asosiy qismi bir va ko‘p operatorlardan va {} qavslardan iborat bo‘lishi mumkin.

Bu jarayon quyidagicha ishlaydi: () qavslar ichidagi ifoda (mantiqiy ifoda) – **true** yoki **false** ga teng bo‘lishi mumkin. Uning natijasi ikkita ehtimolga bog‘liq. Agar mantiqiy ifodani hisoblaganda **true** ga teng bo‘lsa, **if** operatorining tana qismi bajariladi va **else –** operatori ishi bajarilmaydi. Agar mantiqiy ifodani hisoblaganda **false** ga teng bo‘lsa, **else –** qismi bajariladi, **if** operatorining tana qismi bajarilmaydi **else** operatorining tana qismi bajariladi.

“if – else” shart operatoriga misol:

Bu misolda **if – else** operatori ishlatilishini ko‘rib chiqamiz:

```
static void Main()
{
   int x = 2;
   if (x > 3)
   {
      Console.WriteLine("x is greater than 3");
   }
   else
   {
      Console.WriteLine("x is not greater than 3");
   }
}
```

Bu misoldagi kodda x butun son berilgan, agar x>3 bo‘lsa natija **“x ni qiymati 3 dan katta”** aks holda (**else**) uni qiymati **”x ni qiymati 3 dan kichik”** bo‘ladi. x butun sonni qiymati 2 ga teng, mantiqiy ifodani hisoblaganda mantiqiy ifoda natijasi “**false**” qiymat qaytaradi va biz yuqorida aytib o‘tganimizdek (agar mantiqiy ifoda “**false**” qiymat qaytaradigan bo‘lsa, shart operatorning tana qismi bajarilmaydi) keyingi **else** strukturasi bajariladi. Misol natijasi:

```
x is not greater than 3
```

Quyidagi sxema jarayonni qanday ishlashini ko‘rsatadi:



4. if strukturasini ichma – ich joylashishi

Ba’zan dastur ichida mantiqiy dastur yoki **if –** strukturalari ichma – ich joylashishi orqali ifodalaniladi. Biz bularni **ichma – ich if** yoki **ichma – ich if – else** strukturalari deb ataymiz.

if yoki if – else strukturasi boshqa bir **if** yoki **else** strukturasi ichida joylashishi mumkin. Ko‘p jarayonlarda **else** bo‘limi dastlabki **if** bo‘limiga o‘xshash bo‘ladi. Buni biz **else** bo‘limi **if** bo‘limiga bog‘liq deb tushumishimiz mumkin.

Ichma – ich joylashgan jarayonlarni uchtadan oshirib yuborish yaxshi emas, biz bitta shart ichida uchta va undan ko‘p shartlarni bajarmasligimiz kerak. Agar ba’zi sabablarga ko‘ra uch va undan ko‘proq strukturani ichma – ich joylashtiradigan bo‘lsak, biz bu qismini alohida metodaga o‘tkazishimiz kerak (metod bo‘limida ko‘ramiz).

“if” strukturasini ichma – ich joylashishi – misol:

```
int first = 5;
int second = 3;

if (first == second)
{
   Console.WriteLine("These two numbers are equal.");
}
else
{
   if (first > second)
   {
      Console.WriteLine("The first number is greater.");
   }
   else
   {
      Console.WriteLine("The second number is greater.");
   }
}
```

Yuqoridagi misolda biz ikki sonni taqqoslaymiz: birinchi biz ularni teng ekanini tekshiramiz agar tekshirish natijasi yolg‘on qiymat qaytarsa ularni yana taqqoslaymiz va qaysi biri kattaligini aniqlaymiz. Yuqoridagi kod natijasi:

```
The first number is greater.
```

5. “if – else –if – else …”operatorining ketma – ketligi

Ba’zan biz **if strukturasini ketma – ket** ishlatishimiz zarur bo‘lib, qoladi bunda **else** qismi yangi **if** strukturasiga teng bo‘ladi. Agar biz ichma – ich **if** strukturasidan foydalansak kod to‘g‘ri javobdan ancha uzoqlashadi. **Else** dan keyin yangi **if** dan foydalansak to‘g‘ri javobga yaqinlashamiz. Masalan:

```
char ch = 'X';
if (ch == 'A' || ch == 'a')
{
   Console.WriteLine("Vowel [ei]");
}
else if (ch == 'E' || ch == 'e')
{
   Console.WriteLine("Vowel [i:]");
}
else if (ch == 'I' || ch == 'i')
{
   Console.WriteLine("Vowel [ai]");
}
else if (ch == 'O' || ch == 'o')
{
   Console.WriteLine("Vowel [ou]");
}
else if (ch == 'U' || ch == 'u')
{
   Console.WriteLine("Vowel [ju:]");
}
else
{
   Console.WriteLine("Consonant");
}
```

Bu misoldagi dastur biz kiritgan o‘zgaruvchi ingliz tili alifbosidagi unli harflar bilan taqqoslaydi. Har bir taqqoslash ketma – ket bajariladi qachonki undan oldingi qismi to‘g‘ri bo‘lmasa. Agar hech bir **if** bo‘limi bajarilmasa oxirgi **else** bo‘limi bajariladi. Quyida dastur natijasi:

```
Consonant
```

5.1. “if” shart operatorini amaliyotdagi tavsifi

Quyida **if** da yozish uchun ba’zi tavsiyalar, strukturalar berilgan :

- chalg‘imaslik uchun **if** va **else** operatorlaridan so‘ng {} qavslardan foydalaning ;

- chalg‘imaslik va o‘qish oson bo‘lishi uchun har birini o‘z o‘rnida ya’ni o‘zining formatida (**else if** dan keyin) yozing;
- agar mumkin bo‘lsa **if**-**else**-**if**-**else** strukturalari yoki ichma-ich **if** strukturalari o‘rniga **switch**-case strukturasidan foydalaning

6. “switch-case” tanlash operatori

Bu bo‘limda **switch** operatoridan foydalanishni ko‘ramiz. U berilganlardan biror yechimni tanlash uchun foydalaniladi.

6.1. “switch – case” operatori qanday ishlaydi?

Switch – case strukturasi dastur kodining qaysi qismi berilgan ifoda bo‘yicha hisoblanishini tanlab beradi. Formati quyidagicha:

```
switch (integer_selector)
{
   case integer_value_1:
      statements;
      break;
   case integer_value_2:
      statements;
      break;
   // …
   default:
      statements;
      break;
}
```

Tanlovchi bu - natijaning qiymatini taqqoslab bo‘ladigan qilib qaytaradigan ifodadir. U son yoki satr bo‘lishi mumkin. **switch** operatori tanlovchining har bir natijasini **switch** strukturasidagi har bir **case label** lar bilan solishtiradi. Agar **case** lardan unga mosi topilmasa, **default** qismi mavjud bo‘lsa, unga o‘tiladi va bajariladi. Tanlovchining qiymati **switch** strukturasidagi qiymatlar solishtirilganidan keyin hisoblanadi.

Yuqoridagi tavsifdan ko‘rinadiki har bir **case break** operatori bilan tugaydi. C# dasturlash tili kodning **case** qismi oxirida **break** ni ishlatishni so‘raydi. Agar **case** da **break** operatori ishlatilmagan yoki tushirib qoldirilgan bo‘lsa, qachonki **break** operatorini topmaguncha keyingi **case** larga o‘tib ketadi. Hattoki **default** strukturasidan keyin ham **break** ni qo‘yish shart. **default** qism **switch** operatori

so‘nggida bo‘lishi shart emas, ammo uni oxirida qo‘yishni tavsiya etiladi va **switch** strukturasi o‘rtasida ishlatilmaydi.

6.2. Switch ifodalari uchun qoidalar

Switch operatori ko‘p operandlardan birini tanlashdagi to‘g‘ri yo‘l. U aniq qiymat bilan hisoblanadigan o‘zgaruvchi so‘raydi. O‘zgaruvchi tipi **int, char, string** yoki **enum** bo‘lishi mumkin. Agar biz massiv yoki haqiqiy son tipidagi (float) o‘zgaruvchi kiritsak, u ishlamaydi. Butun bo‘lmagan ma’lumot tiplari uchun **if** strukturasidan foydalanamiz.

6.3. Ikkilangan case lardan foydalanish

Qachonki bittadan ko‘p **case** larda bir hil strukturani ishlatmoqchi bo‘lsak, u holda biz ikkilangan **case** lardan foydalanamiz. Navbatdagi misolda ko‘rib chiqamiz:

```
int number = 6;
switch (number)
{
   case 1:
   case 4:
   case 6:
   case 8:
   case 10:
     Console.WriteLine("The number is not prime!"); break;
   case 2:
   case 3:
   case 5:
   case 7:
     Console.WriteLine("The number is prime!"); break;
   default:
     Console.WriteLine("Unknown number!"); break;
}
```

Yuqoridagi misolda biz **break** operatorlarisiz ikkilangan **case** lardan foydalandik. Bu holda kiritilgan o‘zgaruvchining qiymati 6 ga teng va bu qiymat **case** operatorlaridagi butun qiymatilari bilan solishtiriladi. Qachonki moslik topilganda undan keyingi **case** lar bloklanadi. Agar moslik topilmasa **default** qismi ishga tushadi. Yuqoridagi misolning natijasi quyidagicha:

```
The number is not prime!
```

6.4. Switch-case foydalanish uchun qo‘llanmalar

kod oson o‘qilishi uchun **default** operatorini **switch** operatoridan keyin qo‘yish yaxshi natija olib keladi

case larni birinchi qo‘yish samarali. **Case** operatorlari struktura oxirida joylashishi mumkin qachonki biz murakkab dastur tuzayotganimizda.

agar **case** da butun sonlardan foydalanilsa, ularni o‘sib borish tartibida joylashtirish maqsadga muvoffiq.

agar **case** qiymatlari belgili tipda bo’lsa ,belgilar al**if**bo bo’yicha tartiblash tavsiya qilinadi.

default qismi foydalanilgan dastur to‘liq dastur bo‘ladi. Bu to‘liq dasturda **default** qismidan foydalanilmagan bo‘lsa, dastur xatolikka yo‘l qo‘yilgan deb aytish mumkin.

Asosiy adabiyotlar

1. Robert W. Sebesta, Concepts of Programming Languages, John Wiley & Sons, USA 2015.
2. Fundamentals of Computer Programming With C# (The Bulgarian C# Programming Book). Svetlin Nakov & Co., 2013
3. Andrew Troelsen. Pro C# 5.0 and the .NET 4.5 Framework Sixth Edition 2012 apress.

Glossariy

- **if –** shart operatori bo‘lib, qandaydir shartni rostlikka tekshirish natijasiga ko‘ra programmada tarmoqlanishni amalga oshiradi
- **“if – else”** – shart operatori bo‘lib, qandaydir shartni rostlikka tekshirish natijasiga ko‘ra programmada tarmoqlanishni amalga oshiradi
- **System.String –** satr tiplarni o‘z ichiga oluvchi klass hisoblanadi
- **ReadKey(…) –** klavish kombinatsiyasini o‘qish
- **ReadLine(…)** – belgilarni bitta qatorini o‘qish
- **Write(…) –** konsolga argumentlarni chiqarish
- **WriteLine(…) –** konsolga ma’lumotlarni chiqarish va keyingi qatorga o‘tish

- **Console.ReadKey() –** klavish bosilguncha ekranni ushlab turadi
- **KeyChar –** kiritilgan belgini ushlab turadi
- **Modifiers –** [Ctrl], [Alt], … xoltini ushlab turadi
- **int.Parse(string) –** satrni butun tipga o‘tkazadi
- **Convert klassi –** metodidan foydalangan holda boshqa tipga o‘tkazish uchun ishlatiladi
- **try-catch –** hatoliklarni ushlab qolish uchun ishlatiladi
- **TryParse() –** hatoliklarni ushlab qolish uchun ishlatiladi

Amaliy mashg‘ulot.

1-misol. 2 ta sonni konsoldan o‘qib oling. Ulardan kattasini topuvchi dastur tuzing.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi, **1.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



5.1-rasm. Visual Studio 2013 muhitining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **FirstProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz. Natijada **1.2 rasm**da keltirilgan quyidagi oyna shakllantiriladi.



1.2-rasm. Dasturiy kod oynasi

Endi berilgan masala kodini

```
static void Main(string[] args)
        {
    }
```

S# dagi asosiy metod blokiga yoziladi.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;
namespace FirstProgramm
{
    class Program
    {
        static void Main(string[] args)
        {
            Console.Write("Birinchi sonni kiriting: ");
            int a = int.Parse(Console.ReadLine());

            Console.Write("Ikkinchi sonni kiriting: ");
            int b = int.Parse(Console.ReadLine());

            if (a > b)
```

```
            {
                Console.WriteLine("Birinchi son {0}  katta",
a);
            }
            else
            {
                Console.WriteLine("Ikkinchi son {0} katta",
b);
            }

            Console.ReadKey();
        }
    }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. ***a*** *va* ***b*** sonlarni kiritamiz va **1.3-rasmda** keltirilgan natijaga erishamiz.



1.3-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

2-misol. Quyidagi shartlar bajarilganda true, aks holda false qiymat qabul qiladigan ifoda C# tilida yozilsin:

a) butun n va m sonlari bir paytda toq (true) yoki juft (false) sonlar;

b) a, b mantiqiy o‘zgaruvchilardan faqat bittasi true qiymatiga ega;

d) a, b, s mantiqiy o‘zgaruvchilardan faqat bittasi true qiymatini qabul qiladi.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi, **2.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



2.1-rasm. Visual Studio 2013 tizimining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **SecondProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz.

Endi berilgan masala kodini kiritamiz.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace SecondProgramm
{
```

```
    class Program
    {
        static void Main(string[] args)
        {
            Console.Write("n sonni kiriting: ");
            int n = int.Parse(Console.ReadLine());

            Console.Write("m sonni kiriting: ");
            int m = int.Parse(Console.ReadLine());

            Console.WriteLine((n % 2 != 0) && (m % 2 != 0));
            Console.ReadKey();

        }
    }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. ***a*** *va* ***b*** sonlarni kiritamiz va **1.3-rasmda** keltirilgan natijaga erishamiz.



2.2-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

3 – misol. Ixtiyoriy butun ikkita son berilgan bu sonlar ustida tanlangan arifmetik amalga (“+”, “-”, “*”, “/”) mos hisoblash amalga oshiruvchi dastur tuzing. Arifmetik amallardan farqli belgi kiritilsa, bu haqda xabar berilsin.

Yangi proekt yaratamiz va dastur kodini yozamiz va ыuyidagicha:

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace ConsoleApplication2
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         int a,b;
         float natija=0;
         char amal;
         Console.Write("a=");
         a=int.Parse(Console.ReadLine());
         Console.Write("b=");
         b=int.Parse(Console.ReadLine());

         Console.Write("Amalni tanlang(+,-,*,/): ");
         amal=char.Parse(Console.ReadLine());
         switch(amal)
         {
          case '+':natija=a+b;break;
          case '-':natija=a-b;break;
          case '*':natija=a*b;break;
          case '/':natija=a/b;break;
          default: Console.WriteLine("bunday amal yo'q"); break;
         }
        Console.WriteLine("Hisoblash natijasi={0}",natija);

        Console.ReadKey();


        Console.ReadKey();
```

```
      }
   }
}
```

Amaliyot topshiriqlari

22. Ifodaning qiymati topilsin:

a. x * x + 2 * y <= 4, agar x = 0.3, y = -1.6;
b. c % 7 = = c / 5 - 1, agar c = 15;
c. (10 – p) % 2 = = 0, agar p = 0.182.

23. Quyidagi shartlar bajarilganda rost, aks holda yolg‘on qiymat qabul qiluvchi mantiqiy munosabatlar C# tilida yozilsin:

a. c butun soni 7 ga bo‘linadi;
b. ax^2+bx+c=0 tenglama haqiqiy ildizlarga ega emas;
c. (x,y) nuqta, markazi (1,0) nuqtada bo‘lgan r radiusli doiraning tashqarisida yotadi;
d. n natural soni - to‘liq kvadrat.

24.Ifodalarning qiymatlari hisoblansin:

a. !(n%2), agar n=15;
b. t && (p%3==0), agar t=true , p=101010;
c. (x+y!=0) && (y>x), agar x=2, y=1;
d. (x+y=0) || (y>x), agar x=2, y=1;
e. a || (!b), agar a=false, b=true.

25.Quyidagi shartlar bajarilganda rost, aks holda yolg‘on qiymat qabul qiluvchi mantiqiy munosabatlar C# tilida yozilsin:

a. 0<x<1;
b. x=max(x,y,z);
c. x ≠ max(x,y,z) (inkor amalidan foydalanilmasin);
d. a,b mantiqiy o‘zgaruvchilardan kamida bittasi true;
e. har ikkala a,b mantiqiy o‘zgaruvchilar qiymatlari true.

26.Ayniyatlar isbotlansin:

a. a && (!a) false;
b. a || (!a) true;
c. ! (!a) a;
d. true || a true;
e. false && a false;

f. a || a a.

27.Hisoblansin:

a. false || (1/1>0);
b. (1/2>0) && true.

28.Ifodalardagi amallar bajarilish tartibi ko‘rsatilsin:

a. a && b || ! c && d ;
b. (x>=0)|| t && toq(x) || (y*y!=4).

29.O‘zgaruvchilar qiymatlari a=true va b=false bo‘lganda quyidagi ifodalar hisoblansin:

a. a || b && !a ;
b. (a || b) && !a;
c. !a && b ;
d. !(a &&b).

30.Quyidagi shartlar bajarilganda rost, aks holda yolg‘on qiymat qabul qiluvchi ifodalar C# tilida yozilsin:

a. x [0,1] kesmaga tegishli;
b. x [0,1] kesmaga tegishli emas;
c. x [2,5] yoki [-1,1] kesmalarga tegishli;
d. x [2,5] yoki [-1,1] kesmalarga tegishli emas;
e. x, y, z sonlaridan har biri musbat;
f. x, y, z sonlaridan hech bo‘lmaganda biri musbat;
g. x, y, z sonlaridan hech biri musbat emas;
h. x, y, z sonlaridan faqat biri musbat;
i. mantiqiy o‘zgaruvchi a true, b esa false qiymatini qabul qilgan holda;
j. y - yil Kabisa yilidir (Kabisa yili 4 ga karrali yillar hisoblanadi. Biroq, 100 ga karrali yillar orasida faqat 400 ga karrali yillar kabisa yili deyiladi. Masalan, 1700, 1800, 1900-oddiy yillar, 2000-kabisa yili).

31. Quyidagi shartlarga mos keluvchi soha tekislikda chizilsin:

a. (y>=x) && (y+x>=0) && (y<=1);
b. (x*x+y*y<1) || (y>0) && (y<=1);
c. (floor(y)==0) && (ceil(x+1)==0).

32. Agar (x,y) nuqta bo‘yalgan sohaga tegishli bo‘lsa, t mantiqiy o‘zgaruvchi true qiymatini qabul qiladigan ifoda yozilsin.



Рис. 3.1, *а—г*



Рис. 3.1, *д—з*

33. Ifodaning qiymati hisoblansin:

a. false < true;
b. (32 || false)==1;
c. 9+3*true;
d. 16+true/2.

34. Ifodaning qiymati hisoblansin:

a. !(--s) &&((int)(s)==1), agar s=true;
b. (p<true)==(q==false), agar p=q=true;
c. a && b > a || b, agar a=true, b=false.

35. Quyidagi shartlar bajarilganda rost, aks holda yolg‘on qiymat qabul qiladigan ifoda S# tilida yozilsin:

a. butun n va m sonlari bir paytda toq yoki juft sonlar;
b. a, b mantiqiy o‘zgaruvchilardan faqat bittasi true qiymatiga ega;
c. a, b, c mantiqiy o‘zgaruvchilardan faqat bittasi true qiymatini qabul qiladi.

36. Quyidagi ifodalar o‘rinli bo‘ladigan soha XOY tekisligida chizilsin:

a) (fabs(x)<=1)==(fabs(y)>=1); b) (x*x+y*y<=4)== (y<=x).

37. Ayniyatlar isbotlansin:

a. !(a || b)≡ (!a) &&(!b) ;
b. a && (b || c) ≡ (a && b) || (a && c) ;
c. a<=b ≡ !a || b ;
d. a && b ≡ (a<true)<b ;
e. !a ≡ a<true.

38. Mantiqiy a,b,c o‘zgaruvchilar uchun quyidagi ifodalarni taqqoslash amallari qatnashmagan ko‘rinishga keltirilsin:

a. a<b;
b. a==b;
c. (a<b)==a.

39. Agar a=true va x=1 bo‘lsa, quyidagi mantiqiy d o‘zgaruvchi qanday qiymat qabul qiladi?

a. d=x<2;
b. d=!a || x%2;
c. d=a%2!=x.

40. Quyidagi shart bajarilganda t mantiqiy o‘zgaruvchisi true, aks holda false qiymatini o‘zlashtirsin:

a. x, y, z sonlar o‘zaro teng;
b. x, y, z sonlardan faqat ikkitasi o‘zaro teng;
c. x- musbat son;
d. p- soni q ga qoldiqsiz bo‘linadi (p va q-natural sonlar);
e. ax^2+bx+c=0 tenglama bitta yechimga ega, bu yerda a, b va c lar 0 ga teng bo‘lishi mumkin;
f. uch xonali butun c sonining o‘nli yozuviga ´5´ raqami kiradi;
g. shaxmat taxtasining (h1,v1) va (h2, v2) kataklari bir xil rangga ega (h1,v1, h2 va v2 o‘zgaruvchilar 1-8 oralig‘idagi qiymatlarni qabul qiluvchi o‘zgaruvchilar);
h. shaxmat taxtasining (h1,v1) katakida joylashgan «farzin» (h2,v2) katakka xavf soladi.

41. Agar tomonlarining uzunliklari ixtiyoriy a, b, c sonlarga teng bo‘lgan uchburchakni qurish mumkin bo‘lmasa 0, aks holda – uchburchak teng tomonli bo‘lsa 3, teng yonli bo‘lsa 2 va boshqa hollar uchun 1 qiymatini chop qiluvchi dastur tuzilsin.

42. Agar uchta haqiqiy, o‘zaro teng bo‘lmagan x,y,z sonlar yigindisi 1 kichik bo‘lsa, uchta sonning eng kichigi qolganlari yigindisining yarmisi bilan almashtirilsin, aks holda x va y kichigi qolganlarining yigindisining yarmi bilan almashtirilsin.

43. Berilgan 50 ta haqiqiy sonlarning eng kattasini topadigan programma tuzilsin.

Haqiqiy x,y,z sonlar berilgan bo‘lsa, quidagilar aniqlansin:

a) max(x,y,z);
b) max(x,y)+min(y,z);
k) max(x+y+z,x*y*z);
d) min((x+y+z)/2,x*z)+1;

44. Uchta X,Y,Z haqiqiy sonlar berilgan, agar ular monoton bo‘lsa ularning qiymatlari ikkilantirilsin, aks holda har bir uzgaruvchi qiymati qarama qarshisiga almashtirilsin.
45. Butun n>0 va n ta haqiqiy sonlar berilgan. Ular orasidan manfiylari nechtaligini aniqlaydigan dastur tuzilsin.

    OX va OY o‘qlarida yotmaydigan haqiqiy son ko‘rinishidagi koordinatalari berilgan. Bu nuqta joylashgan koordinata choragining nomeri chop etilsin.
46. Bo‘sh bo‘lmagan va oxiri 0 soni bilan tugaydigan musbat butun sonlar ketma-ketligi berilgan (0 ketma-ketlikka kirmaydi va uning tugaganligini bildiradi). Ketma-ketlikning o‘rta geometrik qiymatini hisoblaydigan dastur tuzilsin.
47. Haqiqiy x,y,z sonlar berilgan bo‘lsa, munosabat x<y<z to‘gri yoki yo‘qligi aniqlansin.
48. Haqiqiy x,y,z sonlar berilgan bo‘lsa, , munosabat x<y<z to‘gri bo‘lsa bu sonlar ikkilantirilsin aks holda absalyot qiymati bilan almashtirilsin.
49. Uchta ixtiyoriy son berilgan. Tomonlarining uzunliklari shu sonlarga teng bo‘lgan uchburchak yasash mumkinmi?
50. Son o‘qida uchta A, B, C nuqtalar joylashgan, B va C nuqtalardan qaysi biri A nuqtaga yaqin masofada joylashgan va bu masofani chop eting.
51. Berilgan uch xonali son raqamlari orasida bir xillari bormi?
52. Berilganlar turi va o‘zgaruvchilar quyidagicha aniqlangan:

    enum Oy {yan, fev, mar, apr, may, iyn, iyl, avg, sen, okt, noy, dek};

    int d1, d2; Oy m1, m2; bool t;

    Agar d1, m1 sana (yil hisobida) d2, m2 sanadan oldin kelsa, t o‘zgaruvchiga true qiymat, aks holda false qiymat berilsin.
53. Oy m, m1; {Oy turining aniqlanishi 1 masalada berilgan};

    int k, n;

m1 o‘zgaruvchiga qiymat berilsin:

a) m oydan keyingi oyning nomi (dekabrdan keyin yanvar kelishini hisobga olgan holda);

b) m oydan keyingi k-chi oyning nomi;

d) yilning n-chi oyi nomi berilsin.

54. enum Nota {do, re, mi, fa, sol, lya, si};
enum Oraliq {sekund, tersia, qvart, kvint, sekst, septima};
Nota n1, n2; Oraliq i;
Berilgan n1 va n2 (n1≠n2) notalardan tashkil topgan i-oraliq aniqlansin; sekund–bu ikkita qo‘shni (aylana bo‘ylab) notalardan tashkil topgan oraliq (masalan, re va mi, si va do), tersia – bu bitta notadan keyingi oraliq (masalan, fa va lya, si va re) va hokazo.

55. enum Mavsum {qish, bahor,yoz, kuz};
enum Oy {yan,fev,mar,apr,may, iyn,iyl,avg,sen,okt,noy,dek};
Oy m; Mavsum m;
Berilgan m oyga mos keluvchi s-mavsum aniqlansin.

56. enum Davlat {Germaniya,Quba,Laos,Monaqo,Nepal,Polsha};
enum Qita {Osiyo, Amerika, Evropa};
Davlat davlat; Qita: qita;
Davlatning davlat nomi bo‘yicha u joylashgan qit’a nomi qita aniqlansin.

57. enum Birlik {desimetr, kilometr, metr, millimetr, santimetr};
float x; Birlik r;
Berilgan r birlikdagi x o‘zgaruvchining qiymati metrlarda aniqlansin.

58. Berilgan k o‘zgaruvchi qiymati ( ) rim raqamlari ko‘rinishida chop qilinsin.

59. enum Kelishik {bosh, qar, tush, jun, ur_payt, chiq};
enum So‘z {ruchka, qalam, daftar, eshik};
So‘z s; Kelishik k;
Berilgan s so‘zni k kelishik, birlikda chop qilinsin. Masalan, s=daftar va k=jun bo‘lganda “davtarga” so‘zi chop qilinsin.

60. enum Yunalish {shimol, sharq, janub, garb};
enum Buyruq {oldinga, unga, orqaga, chapga};
Yunalish k1, k2;
Buyruq br;
Kema avvaliga k1 yo‘nalish bo‘yicha ketayotgan edi, keyin uning yo‘nalishi br buyruqqa asosan o‘zgartirildi. Kemaning yangi k2 yo‘nalishi aniqlansin.

61. Oy oy; {1 masalaga qaralsin }
    int kun;
    Berilgan oy oyning kunlari soni kun o‘zgaruvchiga o‘zlashtirilsin (yil kabisa yili emas deb hisoblansin).
    int yil; Oy oy; int kun; {Oy turi 1-masalada aniqlangan}
    bool t;
    Agar yil, oy, kun uchlik to‘g‘ri sanani aniqlasa, t o‘zgaruvchiga true qiymat berilsin, aks holda false qiymat berilsin (31 iyun va hakozalarda).
62. int yil,yil1; Oy oy, oy1; int kun, kun1; {Oy turi 1-masalada aniqlangan}
    Berilgan yil, oy, kun sanasi bo‘yicha keyingi kun sanasi – yil1,oy1,kun1 aniqlansin.
63. int yil_kuni, oy_kuni; Oy oy; {Oy turi 1-masalada aniqlangan}
    a) Kabisa yilning oy,oy_kuni sanasiga mos keluvchi kunning yildagi yil_kuni tartib nomeri aniqlansin.
    b) Kabisa yilining hisob bo‘yicha yil_kuni kuniga mos keluvchi oy, oy_kuni - sana aniqlansin.
64. enum Hafta_kuni {yaksh, dush, sesh, chor, paysh, juma, shanba};
    int kun, k13; Oy oy; Hafta_kuni h_kun1, h_kun2; {Oy turi 1-masalada aniqlangan}
    Agar yil kabisa yili bo‘lmasa, va uning 1 yanvari haftaning h_kun1 kuniga to‘g‘ri kelsa, quyidagilar aniqlansin:
    a) kun, oy sanaga mos keluvchi haftaning h_kun2- kuni;
    b) yildagi oyning 13 kuniga mos keluvchi dushanba kunlarining k-soni.
65. Eski yapon kalendarida 60 yillik takrorlanish qabul qilin-gan va bu takrorlanish o‘z navbatida beshta 12 yillik takrorlanish ostilaridan (qismlardan) iborat. Qism takrorlanishlar quyidagi ranglarning nomi bilan belgilangan: yashil, qizil, sariq, oq va qora. Har bir takrorlanish ostining ichidagi yillar hayvonlarning nomi bilan belgilangan: sichqon, sigir, yo‘lbars, quyon, ajdarho, ot, qo‘y, maymun, tovuq, it va to‘ng‘iz (1984 yil – yashil sichqon yili – keyingi takrorlanishning boshi bo‘lgan).
    Eramizning biror yili kiritilib, uning eski yapon kalendaridagi nomini chiqaruvchi programma tuzilsin.

Testlar

33.Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System.IO;
using System;
 class Program
{
    static void Main()
    {
        object a = 1;
        object b = 1;
        if (b == a)
        {
            Console.WriteLine("equal");
        }
        else
        {
            Console.WriteLine("not equal");
        }

    }
}
```

a) Equal

b) Notequal

s) Kompilyatsiyaning bajarilishida xatolik sodir bo‘ladi

d) Xech qanday natija chiqmaydi

34.Taqqoslanayotgan ifodani natijasi qanday qiymat qaytaradi

a) faqat mantiqiy qiymat

b) butun qiymat

s) satr qiymat

d) faqat butun va mantiqiy qiymat

35.C#da qanday ma’lumot tiplari taqqoslashimiz mumkin?

a) int, long, float, double, ushort, decimal

b) char

s) bool

d) yuqoridagi barcha tiplar

36. Qaysi tiplarni taqqoslayotganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri biz ularning xotiradagi ikkilik sanoq sistemasidagi ko‘rinishlarini taqqoslaymiz?

a) int, long, float, double, ushort, decimal
b) char
c) bool
d) int, long, float, double, ushort, decimal, char

37. S# dagi mantiqiy operatorlarni belgilang?

a) &&
b) ||, ^
s) !, ^
d) berilgan barcha javoblar to‘g‘ri

38.(2 < 3) && (3 < 4) mantiqiy ifodani natijasi qanday qiymatga ega bщladi?

a) true

b) false

s) 12

d) xech qanday qiymatga ega emas

39.7==5 ifodani natijasi qanday qiymatga ega bщladi?

a) true
b) false
s) 12
d) xech qanday qiymatga ega emas

40.shart operatorlari berilgan qatorni belgilang?

a) “**if**” va “**if – else**”

b) **switch case**

s) **?**

d) barcha javoblar to‘g‘ri

41.“if – else” operatorining ishlash jarayoni qanday?

e) Agar mantiqiy ifodani hisoblaganda **true** ga teng bo‘lsa, **if** operatorining tana qismi bajariladi va **else –** operatori ish bajarmaydi.

f) Agar mantiqiy ifodani hisoblaganda **false** ga teng bo‘lsa, **else –** qismi bajariladi, **if** operatorining tana qismi bajarilmaydi.

s) Agar mantiqiy ifodani hisoblaganda natija rost qiymat qaytarsa, **if** operatorining tana qismi bajariladi va **else –** operatori ish bajarmaydi.

d) Berilgan javoblarni barchasi to‘g‘ri

42.Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System.IO;
using System;
 class Program
{
    static void Main()
    {
        int a = 8;
        int b = 19;
       bool t=true;
        if ((b == a) && (b!=a) || t)
        {
            Console.WriteLine("+");
        }
        else
        {
            Console.WriteLine("-");
        }
      }
```

a) +

b) -

s) /

d) *

43. Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System;
public class Test
{
    public static void Main()
    {
        int i = 3;
        switch (i)
        {
            case 3:
            case 2:
                Console.WriteLine(2);
                break;
            case 1:
            default:
                Console.WriteLine(0);
        }
    }
}
```

a) 2

b) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

s) 0

d) 0, 2

44. Console.WriteLine("Exclusive OR: "+ ((2 < 3) ^ (4 > 3))); mantiqiy ifoda natijasi berilgan javobni belgilang?

a) Exclusive OR: False
b) Exclusive : True
c) True
d) Exclusive OR: True

45. **Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
public class Test
{
    public static void Main()
    {
        bool value = !(7 == 5);
        Console.WriteLine(value);
        }
    }
}
```

a) true

b) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

s) false

d) 0

46. **Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
int number = 6;
   switch (number)
   {
       case 1:
       case 4:
```

```
                case 6:
                case 8:
                case 10:
                    Console.WriteLine("The number is not
prime!");
                case 2:
                case 3:
                case 5:
                case 7:
                    Console.WriteLine("The number is prime!");
                default:
                    Console.WriteLine("Unknown number!");
break;
            }
```

a) The number is not prime!

b) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

s) The number is prime!

d) Unknown number!

6-mavzu. Sikl operatorlari

Reja

1. Kirish

Bu bo‘limda biz **sikl dasturning konstruksiyasini** kodni bo‘laklab bajarish orqali tahlil qilamiz. Shart bo‘yicha takrorlanishlar bo‘yicha qanday algoritm tuzish (**while** va **do - while** sikllari) va qanday qilib **for – sikl**li bilan ishlashni ko‘rib chiqamiz. Ko‘plab misollar bilan ma’lum masalaga qaysi sikl tanlashni va uni qurishning 1 necha usullarini ko‘rib o‘tamiz. Bo‘lim so‘ngida esa **foreach – sikli** konstruksiyasi va biz ichma – ich joylashgan siklardan foydalanishni o‘rganamiz.

1.1. “Sikl” nima?

Dasturda tez - tez jarayonlar takrorlanishiga ehtiyoj seziladi. **Sikl** asosiy dasturning kodini takrorlanishini bajaradi. Kod siklni ichida bir necha marta takrorlanadi yoki berilgan shartli ifoda yolg‘on bo‘lguncha takrorlanadi.

Hech qachon tugamaydigan sikllar **cheksiz sikl**lar deb ataladi. Bu sikldan juda kam holatda foydalaniladi. Agar dastur ishini o‘z vaqtidan oldin tugatmoqchi bo‘lsak, siklning tana qismida **break** operatoridan foydalanamiz.

2. While sikli

Sikllar ichida eng oddiy va eng umumiy **while** siklidir va quyida uni dasturda yozilish shakli ko‘rsatilgan.

```
while (condition)
{
   loop body;
}
```

Yuqoridagi dastur shartida biz mantiqiy qiymat qaytaradigan (**true** yoki **false**) istalgan tipdagi ifodadan foydalanishimiz mumkin. Uning siklning tana qismining necha marta takrorlanishini xisoblashdan iborat va u **shart sikli** deb ataladi. Siklning asosiy tana qismi dasturning asosiy kodini har bir siklda bajarilishi uchun kiritilgan shart har doim **true** bo‘lishi shart. **while sikli** quyidagi blok sxema orqali tavsiflangan.



While sikli dastlab mantiqiy ifodani hisoblaydi va agar u **true (rost)** bo‘lsa sikl jarayoni ketma – ketligi davom etadi. Keyin yana kiritilgan ma’lumotlarni tekshiradi va agar **true (rost)** bo‘lsa sikl yana bajariladi. Shart ifodasi **false** qiymat qaytarmaguncha sikl takrorlanadi. Agar shart ifoda **false** qiymat qaytarsa va o‘sha paytda sikl to‘xtaydi va siklning tana qismidan chiqib, dastur keyingi ishini davom ettiradi.

Agar siklning shart qiymati **false** bo‘lsa, **while siklining** asosiy qismi bajarilmaydi. Agar siklning jarayoni hech qachon to‘xtamasa bu sikl ishini cheksiz davom ettiradi. Bu sikl cheksiz sikl jarayoni deb ataladi.

2.1. while siklidan foydalanish

while siklidan foydalanishga oddiy misolni ko‘rib chiqamiz. Siklning maqsadi ekran (konsol) ga 0 dan 9 gacha sonlarni tartib bo‘yicha chiqarishdan iborat.

```
// Initialize the counter
int counter = 0;

// Execute the loop body while the loop condition holds
while (counter <= 9)
{
   // Print the counter value
   Console.WriteLine("Number : " + counter);
   // Increment the counter
   counter++;
}
```

Bajarilgan kodning natijasi :

```
Number : 0
```

```
Number : 1
Number : 2
Number : 3
Number : 4
Number : 5
Number : 6
Number : 7
Number : 8
Number : 9
```

Ko‘plab misollar berish orqali sikllarning ishlash jarayonini va sikllar orqali yechiladigan ba’zi muamolarni ko‘rsatib o‘tamiz.

2.2. 1 dan N gacha bo‘lgan sonlar yig‘indisini hisoblash

Bu misolda **while sikli** orqali **1** dan **n** gacha bo‘lgan sonlarning yig‘indisini hisoblaymiz. **n** raqami konsoldan o‘qib olinadi:

```
Console.Write("n = ");
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
int num = 1;
int sum = 1;
Console.Write("The sum 1");
while (num < n)
{
   num++;
   sum += num;
   Console.Write(" + " + num);
}
Console.WriteLine(" = " + sum);
```

Dastlab biz **num** va **sum** o‘zgaruvchi qiymatlariga 1 ni o‘zlashtiramiz. Agar biz kiritgan **n** son qiymat **num** o‘zgaruvchisini qiymatidan katta bo‘lsa, **num** qiymati 1 ta ga oshiriladi va oldindan beriladigan **sum** o‘zgaruvchisiga qo‘shamiz. Har bir siklda **num** ning qiymatini 1 ga oshadi va bu jarayon **num** ning qiymati **n** bo‘lguncha davom etadi. **sum** ning qiymati 1dan **num** ning qiymatigacha bo‘lgan sonlar yeg‘indisiga teng bo‘ladi. Siklning ichida **num** ning har bir qiymati **sum** ni qiymatiga qo‘shiladi. Konsolga **num** ning har bir qiymati chiqariladi. **sum** ning qiymati sifatida 1 dan **n** gacha sonlar yig‘indisi chiqaradi. Dasturning natijasi quyidagicha bo‘ladi (**n**=17):

```
N = 17
The sum 1 + 2 + 3 + 4 + 5 + 6 + 7 + 8 + 9 + 10 + 11 + 12 + 13 +
14 + 15 + 16 + 17 = 153
```

2.3. Sonni tub yoki tub emasligini aniqlash

Tub sonmi yoki yo‘qligini tekshiradigan dastur tuzamiz. U sonni konsoldan o‘qib olamiz. Biz matematikadan bilamiz, tub sonlar butun musbat sonlar bo‘lib, bu sonlar 1 ga va o‘ziga bo‘linadi. Agar bu son tub sonligini sikl ichida tekshirmoqchi bo‘lsak, uni 2 dan boshlab kiritgan sonimizdan ildiz chiqarilgan songacha berilgan sonimizni bo‘lishimiz kerak bo‘ladi.

```
Console.Write("Enter a positive number: ");
int num = int.Parse(Console.ReadLine());
int divider = 2;
int maxDivider = (int)Math.Sqrt(num);
bool prime = true;
while (prime && (divider <= maxDivider))
{
   if (num % divider == 0)
   {
      prime = false;
   }
   divider++;
}
Console.WriteLine("Prime? " + prime);
```

Biz **divider** o‘zgaruvchisidan mavjud bo‘luvchining qiymatini saqlash uchun foydalandik. Uning dastlabki qiymati 2 ga teng (eng kichik bo‘linuvchi). **maxDivider** maksimum bo‘luvchi bo‘lib, uning qiymati kiritgan sonimizning kvadrat ildiziga teng. Agar bizda **divider** ning qiymati**√num (**kiritgan sonimizning kvadrat ildiz**)** dan katta bo‘lsa, bu holda uni tekshirish foydasiz bo‘ladi, chunki **√num** dan katta sonlarni **√num** dan kichik sonlar orqali xosil qilishimiz mumkin. Biz bu yo‘l bilan siklni ishini kamaytiramiz.

Natija uchun biz mantiqiy tipidagi o‘zgaruvchini **prime** deb belgiladik. Dastlab uning qiymati **true (rost).** Agar kiritgan sonimizni bo‘luvchisi bo‘lsa, **prime** ning qiymatini **false** bo‘ladi.

while siklning shart qismi ikkita mantiqiy operatorlardan tashkil topgan (mantiqiy operator **and**). Siklni bajarilishi uchun ikkila maniqiy ifoda bir vaqatda **true** bo‘lishi shart. Dastur davomida shunday bo‘luvchi topiladiki, **prime** ning qiymati **false** bo‘ladi va shu paytda o‘sha sikl o‘z ishini yakunlaydi. Bu shuni anglatadiki, sikl o‘z ishini kiritgan sonimizga bo‘luvchi topgunicha bajaradi yoki biz kiritgan son 2 dan **√num** gacha bo‘lgan sonlarning hech biriga bo‘linmasligini isbotlaydi. Bu esa sonni tub ekanligini bildiradi.

Agar biz yuqoridagi dasturga 37 va 34 sonlarini kiritsak natijasi quyidagicha bo‘ladi:

```
Enter a positive number: 37
Prime? True
```

```
Enter a positive number: 34
Prime? False
```

3. “BREAK” operatori

Break operatoridan sikldan chiqib ketishda foydalaniladi. Qachonki sikl **break** operatoriga yetganida sikl darhol o‘z ishini tugatadi va siklni tana qismidan chiqib, keyingi qatorga o‘tib ishini davom ettiradi. Sikl ishlash jarayonida uning tana qismida **break** operatori ishlatilgan bo‘lsa, u sikldan chiqib ketishni ta’minlab beradi Qachonki **break** operatori ishga tushganda sikl kodining qolgan qismi bajarilmasdan, sikldan chiqib ketadi. Biz **break** operatori bilan sikldan chiqishni misollar orqali ko‘rsatib o‘tamiz.

3.1. Faktorialni hisoblash

Konsoldan kiritilgan sonning faktorial qiymatini ushbu misolda ko‘ramiz. Bu hisoblash sikl operator va **break** operatoridan foydalanib amalga oshiriladi. Keling matematikadan faktorial nima va u qanday hisoblanishini esga olaylik. **n**! shunday funksiyaki u o‘zidan oldingi barcha sonlarni ko‘paytmasiga teng. Quyidagi misollar orqali tushuntirib o‘tiladi:

- N! = 1 * 2 * 3 … (n-1) * n, for n> 1;
- 2! = 1 * 2;
- 1! = 1;
- 0! = 1.

N! ni undan kichik sonlar faktoriali bilan ifodalash mumkin va quyidagicha bo‘ladi.

N!=(**N**-1)!***N**, 0!=1 => deb qabul qilingan.

n! faktorialni qiymatini hisoblash uchun yuqoridagi ta’rifdan foydalanamiz:

```
int n = int.Parse(Console.ReadLine());

// "decimal" is the biggest C# type that can hold
```

```
integer values
    decimal factorial = 1;
    // Perform an "infinite loop"
    while (true)
    {
      if (n <= 1)
      {
          break;
      }
      factorial *= n;
      n--;
    }
    Console.WriteLine("n! = " + factorial);
```

Biz dastlab **factorial** o‘zgaruvchisiga 1 qiymatini beramiz va **n** ni konsoldan o‘qiymiz. Biz siklning shartini qaytaradigan qiymati **true** dan foydalanib, cheksiz **while** siklini qurdik. Bu dasturda **break** operatoridan **n** ning qiymati 1 dan kichik yoki teng bo‘lganda siklni to‘xtatish uchun foydalanganmiz. Aks holda biz natijaga **n** ko‘paytiraimiz va **n** ning qiymatini 1 taga kamaytiramiz. Hisoblash jarayonida **factorial** o‘zgaruvchisining dastlabki qiymati **n** ga keyingi sikl jarayonida **n** * (**n**-1) ga teng va bu **n** ning qiymati 2 ga teng bo‘lguncha davom etadi. Agar **n** ning qiymati 2 ga teng bo‘lganda olingan **factorial** o‘zgaruvchisining qiymatiga ko‘paytiriladi va keyingi qatorda **n** ning qiymati 1 ga teng bo‘ladi. Keyingi siklga o‘tadi. Bu siklda shart operatori **true** qiymat qaytarib, **break** operatoriga o‘tadi va sikl o‘z ishini tugatadi. **factorial** o‘zgaruvchisining qiymatiga quyidagicha bo‘ladi, ya’ni:

Factorial=n*(n-1)*(n-2)*…*3*2

n=1

Agar biz dastur kodiga konsoldan 10 ni kiritsak, natija quyidagicha bo‘ladi.

```
10
n! = 3628800
```

4. Do - While sikli

Do - **while** sikl operatori **while** sikliga o‘xshash, lekin u siklning shart qismini tana qismini bajarib bo‘lganidan keyin tekshiradi. Bu tipdagi sikl shartni oxirida tekshiruvchi sikl deyiladi. **Do** - **while** siklining ko‘rinishi quyidagicha:

```
do
{
   executable code;
} while (condition);
```

Do - **while** sikli quyidagi blok sxemadagidek ish bajaradi.



Dastlab tana qismi bajariladi. Keyin uni shart qismi tekshiriladi. Agar shart qismi rost bo‘lsa, siklning tana qismi takrorlanadi, aks holda sikl tugatiladi. Bu mantiqiy jarayon shart qismi yolg‘on qiymat qaytarmaguncha davom etadi. Siklning tana qismi hech bo‘lmaganda bir marta bajariladi. Agar shart doim **true** bo‘lsa, sikl hech qachon to‘xtamaydi va bo‘ sikl cheksiz sikl deb ataladi.

4.1. Do - while siklidan foydalanish

Do - **while** sikli operandlarni hech bo‘lmaganda bir marta ishlashini ta’minlab beruvchi sikl operatoridir.

4.2. Faktorial ni hisolashga misol

Bu misolda biz yana konsoldan kiritilgan **n** sonini faktorialini hisoblashni ko‘rib chiqamiz. Bu mantiqiy misol avvalgi misolga o‘xshish bo‘lib, bunda **while**ning o‘rniga do - **while**dan foydalanilgan.

```
Console.Write("n = ");
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
decimal factorial = 1;
do
{
   factorial *= n;
   n--;
} while (n > 0);
Console.WriteLine("n! = " + factorial);
```

Dastlab biz natijani 1 bilan boshlaymiz va **n** dan kichik sonlarga ketma – ket ko‘paytiramiz va **n** ning qiymatini 1 dan kamaytirib boramiz bu jarayon **n** ning qiymati 0 ga teng bo‘lgancha davom etadi. Bu bizga quyidagi natijani beradi, ya’ni **n** * (**n**-1) * … * 1 . Nihoyat biz konsolda natijani chop etamiz. Bu algoritm har doim ko‘paytirishni kamida bir marta bajaradi va shuning uchun ham **n**<=0 bo‘lganda ishlamaydi.

Agar biz dastur kodiga konsoldan 7 ni kiritsak, natija quyidagicha bo‘ladi.

```
n = 7
n! = 5040
```

4.3. Katta sonlarni faktorialini hisoblash

Agar biz yuqoridagi dasturdagi **n** ning qiymatiga katta sonni kiritsak, masalan **n**=100 bo‘lsa, shu sonni faktorialini hisoblashni so‘rasak, biz **System.OverflowException** natija olamiz, ya’ni qiymat decimal tipidan ham oshib ketadi.

```
n = 100
```

```
Unhandled Exception: System.OverflowException: Value was either
too large or too small for a Decimal.
   at System.Decimal.FCallMultiply(Decimal& result, Decimal d1,
Decimal d2)
   at System.Decimal.op_Multiply(Decimal d1, Decimal d2)
   at TestProject.Program.Main() in
C:\Projects\TestProject\Program
.cs:line 17
```

Demak biz bu kabi misollarni yechishda bu dastur kodini qo‘llay olmaymiz.

Agar biz 100! ni hisoblashni xoxlasak **BigInteger** tipidan foydalanamiz (**.NET Framework 4.0** versiyasida bor boshqa versiyalarida mavjud emas). Bu tip butun tipning (i**n**t) kengaytirilgan varianti bo‘lib (100,000 ta raqamdan iborat), u juda katta. Ushbu **BigInteger** klassida cheklanmagan miqdordagi raqamlar yozilgan.

BigInteger dan foydalanish uchun, biz o‘z loyihamizdan **add a reference** ni tanlash orqali **System.Numerics.dll** kutubxonani qo‘shishimiz kerak (bu juda katta sonlar bilan ishlashdagi .**N**ET kutubxonasini standarti bo‘lib, VS loyihasida bu ishni bu kutubxonani qo‘shmasdan bajarib bo‘lmaydi) . **Visual Studio** dagi **Solution Explorer** oynasidan sichqonchaning o‘ng tugmasini bosib, **Adding a reference** ni tanlaymiz va u quyidagicha:

Biz ro‘yxatdan **assembly System.Numerics.dll** kutubxonani topamiz va tanlaymiz:



Agar biz bu kutubxonani topa olmasak, bu shuni anglatadiki **Visual Studio** da NET FRAMEWORK 4.0 o‘rnatilmagan yoki bizning **Visual Studio** eski versiyadir va versiyasini yangi versiyaga almashtirishimiz kerak.



So‘ngra biz **“using System.Numerics;”**ni qo‘shishimiz zarur, shunda **decimal** o‘rnini **BigInteger** egallaydi. Dastur esa quyidagicha bo‘ladi:

```
using System;
using System.Numerics;

class Factorial
{
   static void Main()
   {
      Console.Write("n = ");
      int n = int.Parse(Console.ReadLine());
      BigInteger factorial = 1;
      do
      {
         factorial *= n;
         n--;
      } while (n > 0);
      Console.WriteLine("n! = " + factorial);
   }
}
```

Yuqoridagi dastur natijasi **n**=100 bo‘lsa, 100! ning qiymatini quyidagicha olamiz, natijada 158-xonali son hosil bo‘ladi.

```
n = 100
n! =
933262154439441526816992388562667004907159682643816214685929638952175999932299156089414639761565182862536979208272237582511852109168640000000000000000000000000
```

BigInteger da siz 1000! ni ham, 10000! va hattoki 100000! hisoblay olsiz. Bu biroz vaqt oladi, ammo **OverflowException** natija paydo bo‘lmaydi. **BigInteger** klassi katta imkoniyatlarga ega, ammo i**n**t va lo**n**g ga qaraganda sekin ishlaydi. Bizda **"big decimal"** degan klass mavjud emas, lekin **.NET FRAMEWORK** da faqatgina **"big integer"** klass mavjud .

4.4. [N…M] oraliqdagi sonlarni ko‘paytirish

Do-**while** sikli bilan ishlashga doir misol ko‘rib chiqamiz. Bu misolda ko‘zlangan maqsad [**N**…M] oraliqdagi sonlarni ko‘paytirishdan iborat. Quyida ushbu masalaning yechimi ko‘rsatilgan.

```
Console.Write("n = ");
int n = int.Parse(Console.ReadLine());

Console.Write("m = ");
int m = int.Parse(Console.ReadLine());

int num = n;
long product = 1;
do
{
   product *= num;
   num++;
} while (num <= m);

Console.WriteLine("product[n...m] = " + product);
```

Bu misol kodida **num** ning qiymatlarini **n** dan boshlab, m gacha ketma – ket ravishda oshirib borib, **product** o‘zgaruvchisiga ularning ko‘paytmasini berib boramiz. Biz foydalanuvchidan **n** va m sonlarini kiritishni so‘raymiz va **n,** m dan kichik bo‘lishi kerak. Aks holda dastur natijasi sifatida **n** ni chiqarib beradi.

Agar **n**=2 va m=6 sonlari uchun dasturni ishlatsak, quyidagi natijaga erishamiz:

```
n = 2
m = 6
product[n...m] = 720
```

Ehtiyot bo‘ling: ko‘paytma juda tez o‘sadi, shuning uchun siz **long** tipining o‘rniga **BigInteger** dan foydalanishingiz mumkin, chunki aniq natijaga erishish uchun va **long** tipidan oshib ketishi mumkin. Ko‘rib chiqilmagan dastur kodi qiymat oshib ketganda xatolikni ko‘rsatmasdan xato javob chiqarib berishi mumkin. Bundan siz “**tekshirish kalit so‘zi**” orqali xatolikni aniqlashingiz mumkin.

5. For sikli

For sikli **while** va **do** - **while** sikliga qaraganda bir – oz murakkab, lekin boshqa tomondan **for** sikli orqali ancha murakkab masalalarni boshqa sikllarga qaraganda kam kod bilan amalga oshiriladi. Quyida sikl jarayonini sintaksisi va blok sxemasi berilgan.

```
for (A; B; C)
{
    D;
}
```




```
for (int i=0; i<10; i++)
{
    /* loop body */
}
```

Ular (A) boshlash bloki, (B) shart, (D) tana va o‘zgaruvchilarning ishga tushishi(C) bloklarini o‘z ichiga oladi. Biz ular haqida qisqacha ma’lumot beramiz. Oldin keling for siklining dastur kodini ko‘rib chiqaylik:

```
for (initialization; condition; update)
{
   loop's body;
}
```

Ushbu kod sanagichning boshlang‘ich qiymati (misol uchun **int i =0**), mantiqiy shart (**i<10**), hisoblagichning ishga tushishi (i++, yoki i-- bo‘lishi mumkin misol uchun i=i+3) va siklning tana qismidan iborat.

Bu siklning hisoblagichi siklning boshqa tiplaridan farq qiladi.

Ko‘pincha hisoblagich qiymati berilgan dastlabki qiymatdan oxirgi qiymatgacha tartib bo‘yicha o‘zgaradi. Siklda berilgan qiymatni oxiriga borguncha

hisoblaydi misol uchun 1 dan 100 gacha. Kod ishga tushishi boshlanishidan oldin odatda for sikli necha marta takrorlanishlar soni aniq. **For** sikli har birini ola oladi yoki oddiy sikl qiymatlari tartib bilan ko‘tarilishi yoki tushishi yoki biz bergan qiymat asosida oshishi yoki kamayishi mumkin. Ehtimol birinchi siklning qiymati oshadi va boshqasi kamayadi. Hattoki ikkini ko‘paytirish natijasida siklning natijasi 2 dan 1024 gacha o‘zgarishi mumkin. Keyingisida faqat sikl qo‘shishni o‘z ichiga ola olmaydi, ammo boshqa arifmetik jarayonini bajaradi.

For siklining elementlarida hech narsa bo‘lmasligi mumkin va bunda sikl cheksiz davom etadi va u quyidagicha:

```
for ( ; ; )
{
   // Loop body
}
```

5.1. For siklning initsializatsiya qilish

Bu qismda for siklining initsializatsiyasining berilishi:

```
for (int num = 0; …; …)
{
   // The variable num is visible here and it can be used
}
// Here num can not be used
```

Faqatgina birini o‘z ichiga oladi, sikl boshlanishidan oldin. Odatda initsializatsiyasida qiymatlarni hisoblashda foydalanish mumkin va dastlabki qiymatni oladi. Qiymat “**visible**” faqat siklning ichida foydalaniladi. Qismda initsializatsiya jarayoni boshlanishi mumkin va birinchiga qaraganda ko‘proq qiymat qabul qiladi.

5.2. For siklini hisoblash

For siklida hisoblash jarayoni:

```
for (int num = 0; num < 10; …)
{
   // Loop body
}
```

Siklning har biri ichma-ich joylashishidan oldin birinchi (sikl) qiymat hisoblanadi. Siklning shart natijasi **true** bo‘lsa bajariladi , false bo‘lsa sikldan chiqib ketadi va to‘xtaydi.

5.3. Sikl o‘zgaruvchilarining o‘zgarishi

Siklning qiymatining o‘zgarishi for siklining oxirgi elementida amalga oshiriladi:

```
for (int num = 0; num < 10; num++)
{
   // Loop body
}
```

Bu har biri ichma-ich joylashgan kod shundan keyin bajarilishi shart. Unda qiymatning o‘zgarishidan foydalanilgan .

5.4. Siklning asosiy tana qismi

Siklni asosiy qismi blok va koddan iborat. Sikl qiymatlari sikl ishlaydigan blokning ichida e’lon qilinadi.

5.4.1. For siklliga – Misol

for siklliga misol ko‘rib chiqiladi:

```
for (int i = 0; i <= 10; i++)
{
   Console.Write(i + " ");
}
```

Bu misolning natijasi quyidagicha:

```
0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10
```

Bu yerda **for** sikliga boshqa bir misol berilgan va bizda ikkita **i** va **sum** qiymat va ularning qiymati birga teng ammo biz ularni sikl ichida qiymatini oshiramiz:

```
for (int i = 1, sum = 1; i <= 128; i = i * 2, sum += i)
{
  Console.WriteLine("i={0}, sum={1}", i, sum);
}
```

Sikldan quyidagi natija chiqadi:

```
i=1, sum=1
i=2, sum=3
i=4, sum=7
i=8, sum=15
i=16, sum=31
i=32, sum=63
i=64, sum=127
i=128, sum=255
```

5.4.2. N ni M darajasini hisoblashga – misol

n ni m darajasini hisoblash dastur tuzamiz va uni hisoblash uchun **for** siklidan foydalanamiz:

```
Console.Write("n = ");
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
Console.Write("m = ");
int m = int.Parse(Console.ReadLine());
decimal result = 1;
for (int i = 0; i < m; i++)
{
  result *= n;
}
Console.WriteLine("n^m = " + result);
```

Bizda result o‘zgaruvchising qiymati 1 ga teng (**result=1**). Sikl qiymatlarni hisoblash uchun (**int i=0**) dan boshlaydi. Sikl bajarilishi uchun (**i<m**) deb belgilaymiz.

Bunda sikl m marta 0 dan m-1 gacha ish bajaradi. Biz siklning natijasini n gacha ko‘paytiramiz va keyin n ni m ning darajasiga ko‘taramiz (1, 2, … m). Oxirida biz dastur ishini ekranga chiqaramiz.

Bu yerda dastur qanday ishlashini ko‘rishimiz uchun n=2 va m=10 qiymatni berib ko‘ramiz:

```
n = 2
m = 10
n^m = 1024
```

5.5. Bir qancha o‘zgaruvchilar bilan for sikli

Biz for siklida qiymatlarni qanday ko‘paytirilishini ko‘rdik. Bu misolda bizda ikki o‘zgaruvchi bor. Birinchi o‘zgaruvchi 1 dan oshib boradi va ikkinchisi 10 dan kamayib boradi:

```
for (int small=1, large=10; small<large; small++, large--)
{
  Console.WriteLine(small + " " + large);
}
```

Natija quyidagicha bo‘ladi:

```
1 10
2 9
```

```
3 8
4 7
5 6
```

5.6. “continue” operatori

continue operatori xuddi **break** operatoridek takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi, lekin programmani qurilmadan chiqib ketmasdan takrorlashning keyingi qadamiga “sakrab” o‘tishini tayinlaydi. Quyidagi misolda bu operatordan qanday foydalanishni ko‘rib chiqamiz.

Biz barcha 1 dan n gacha bo‘ldan toq sonlarni hisoblaymiz va 7 ga bo‘linadiganlarini olmasdan **for** sikli orqali davom ettiramiz:

```
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
int sum = 0;
for (int i = 1; i <= n; i += 2)
{
   if (i % 7 == 0)
   {
      continue;
   }
   sum += i;
}
Console.WriteLine("sum = " + sum);
```

Dastlab siklni qiymati bilan birinchi [1…n] toq son qiymatini hisoblaymiz. Eng kichik toq son qiymati 1 ga teng. **i <= n** dan oshib ketmasligi siklning har bir amalida tekshiriladi. Bu ifodada biz qiymatni 2 ga oshiramiz va toq songa ega bщlamiz. 7 ga bo‘linishi sikl ichida tekshiriladi. Biz sikl ichida **continue** operatorini chaqirsak bu yana siklning asosiy qismiga o‘tadi. Agar o‘zgaruvchi 7 ga bo‘linmasa u **sum** ning qiymatiga **i** ga qo‘shib boraveradi.

n=11 ga bo‘lgandagi natijani ko‘rishimiz mumkin:

```
11
sum = 29
```

5.7. foreach sikl operatorlari

foreach sikli C/C++/C# dasturlash tillari oilasi uchun yangi ammo bu **VP va PHP** dasturchilari uchun yaxshi tanish. Bu dasturning konstruksiyasida massivning barcha elementlarini va ro‘yxatdan yoki elementlar yig‘indisida (**IEnumerable**) ishlatiladi. Agar elementlari indekslanmagan bo‘lsa ham to‘plamning barcha elementlari orqali ifodalash mumkin.

Biz massivlarga “**massiv**” bo‘limida to‘xtalamiz, ammo hozirga dastur uchun boshqa elementlar yoki raqamlar ketma – ketligini tassavur qilishimiz kerak.

foreach sikli tuzilishi:

```
foreach (type variable in collection)
{
   statements;
}
```

Biz ko‘rishimiz mumkin bu **for** sikliga qaraganda oddiyroq va shuningdek uning ayzalligi sizga berilga to‘plamning barcha elementlarini yozilganlarini saqlab boradi. **Foreach** opreatoridan qanday foydalanishga misol:

```
int[] numbers = { 2, 3, 5, 7, 11, 13, 17, 19 };
foreach (int i in numbers)
{
   Console.Write(" " + i);
}
Console.WriteLine();
string[] towns = { "London", "Paris", "Milan", "New York" };
foreach (string town in towns)
{
   Console.Write(" " + town);
}
```

Bu misoda biz raqamlar masssivini yaratdik va ular **foreach** sikli bilan ishlaydi va uning qiymatini konsol ga chiqaradi. Shaharlar nomi **satr** tipidagi massivda e’lon qilindi va uning elementlarini konsolga **foreach** sikli orqali chiqariladi. Misol natijasi quyidagicha bo‘ladi:

```
2 3 5 7 11 13 17 19
London Paris Milan New York
```

6. Ichma – ich joylashgan sikl operatorlari

Ichma – ich sikllar dastur konstruksiyasida sikllar bir birini ichida joylashadi. Dasturda birinchi sikl ko‘p bajariladi va undan keyingi sikllar oz bajariladi. Ichma – ich siklni ko‘ramiz:

```
for (initialization, verification, update)
{
  for (initialization, verification, update)
  {
```

```
    executable code
  }
  …
}
```

Birinchi sikl initsializatsiyadan keyin uning asosiy qismi bajarilishni boshlaydi va ikkinchi siklga o‘tadi. U qiymati initsializatsiya qilinadi va tekshiriladi keyin kod bajariladi va sikl qachon **false** qiymati qaytarmaguncha davom etadi. Birinchi **for** siklining ikkinchi ifodasi ishlaydi. Uning qiymati oshiriladi va ikkinchi sikl yana bajariladi. Tashqaridagi siklga chiqguncha ichkaridagi sikllar ko‘p marta bajariladi.

6.1. Uchburchak shaklda chiquvchi – misol

Quyidagi muammoni yechamiz: Berilgan n ta sondan konsolga raqamlarni uchburchak sifatida chiqaring:

```
1
1 2
1 2 3
…
1 2 3 … n
```

Biz ikkita sikl muammosini yechamiz. Oxirgi sikl qatorlarni va ichidagi bittasi ularning elementlari belgilaydi. Birinchi qatorda biz “1” bir chiqarishimiz kerak. Ikkinchi siklda “1 2” chiqishi kerak. Biz qatorlar va raqamlar o‘zaro bog‘liqligini ko‘ramiz. Ichki sikl qanday tuzilganini ko‘rsatib o‘tamiz:

Siklning qiymatini 1 bilan boshlaymiz (birinchi raqamni chiqaramiz): **col=1;**
Takrorlanish qatorlarga bog‘liq bo‘ladi: **col<=row;**
Har bir siklning ichida siklning qiymatini bittaga oshiramiz

Asosiysi biz **for – sikl**ni 1 dan n gacha bajaramiz va boshqa (ichki) sikl ichiga tashlaymiz, qatorlar raqamini 1 dan boshlab bittaga oshirib boramiz. Tashqi va ichki sikllar tenglikda boradi va ular ustunni tashkil qiladi.

Oxirida biz shu kodga erishamiz:

```
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
for (int row = 1; row <= n; row++)
{
   for (int col = 1; col <= row; col++)
   {
      Console.Write(col + " ");
   }
   Console.WriteLine();
}
```

Agar hozir buni bajarsak, n=7 bo‘lgandagi qiymatni natijasini ko‘ramiz:

```
1
1 2
1 2 3
1 2 3 4
1 2 3 4 5
1 2 3 4 5 6
1 2 3 4 5 6 7
```

Ye**slatma:** Agar n>9 uchburchakda kamchilik bo‘ladi. Buni o‘ylab ko‘ring!

6.2. Tub sonlarga – misol

Ichma – ich siklga boshqa bir misol ko‘ramiz. Bizning maqsadimiz [n…m] orasidagi tub sonlarni konsolga chiqarishdan iborat. Biz oraliqni **for sikli** bilan cheklaymiz va tub sonlarni tekshirish uchun **while sikl**lidan foydalanamiz:

```
Console.Write("n = ");
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
Console.Write("m = ");
int m = int.Parse(Console.ReadLine());

for (int num = n; num <= m; num++)
{
   bool prime = true;
   int divider = 2;
   int maxDivider = (int)Math.Sqrt(num);
   while (divider <= maxDivider)
   {
      if (num % divider == 0)
      {
         prime = false;
         break;
      }
      divider++;
   }
   if (prime)
   {
      Console.Write(" " + num);
   }
}
```

for sikli n, n+1, … m tubligini oxirida tekshiradi. **num** qiymati tubligini har bir tashqi siklda tekshiriladi. Mantiqan biz tub sonlarni bilamiz. Dastlab biz **prime** qiymatini **true (rost)** deb $[2...\sqrt{num}]$ kiritamiz. Ichki **while siklida** har bir son tekshiriladi agar **num** ning bo‘luvchisi bo‘lsa davom etadi aks holda **prime false** ga teng bo‘ladi. **while sikli** tugagandan keyin mantiqiy **prime** qiymati boshqa son yo‘qligini ko‘rsatadi va o‘sha son konsolga chiqariladi.

Agar n=3 va m=75 bo‘lsa quyidagi natija chiqadi:

```
n = 3
m = 75
 3 5 7 11 13 17 19 23 29 31 37 41 43 47 53 59 61 67 71 73
```

6.3. Baxtli sonlarga – misol

Boshqa misol orqali biz ikki va undan ortiq ichma – ich joylashgan sikllarni ko‘rishimiz mumkin. Bizning maqsadimiz ABCD sonlarini aniqlash. Agar A+B=C+D bo‘lsa (biz bularni omadli raqamlar) deb ataymiz. Biz buni to‘rtta **for** siklida bajaramiz. Birinchi sikl minglarni tasvirlaydi. Sikl 1 dan boshlanadi va 0 da to‘xtaydi. Biz yuzlar, o‘nlar va minglar deb belgilaymiz. Biz omadli raqamlarni ichki sikldan tekshirib kelamiz va oxirida konsolga chiqaramiz. Bu yerda dastur kodini кщrib chiьiamiz:

```
for (int a = 1; a <= 9; a++)
{
  for (int b = 0; b <= 9; b++)
```

```
  {
    for (int c = 0; c <= 9; c++)
    {
      for (int d = 0; d <= 9; d++)
      {
        if ((a + b) == (c + d))
        {
          Console.WriteLine(
            " " + a + " " + b + " " + c + " " + d);
        }
      }
    }
  }
}
```

Bu yerda natija qisman chiqarilgan (butub natija juda uzun):

```
1 0 0 1
1 0 1 0
1 1 0 2
1 1 1 1
1 1 2 0
1 2 0 3
1 2 1 2
1 2 2 1
…
```

6.4. 6/49 Lotereya masalasi

Bu misolda biz “6/49” o‘yinida mumkin bo‘lgan barcha kombinatsiyalar mavjudligini topamiz. Biz 6 dan farq qiluvchi hamma sonlarni topamiz va ko‘rsatamiz [1…49] oralig‘idagi 6 talik turli raqamlar o‘rin almashtirishlar qiymatlar sonini topib chop etishimiz kerak. Biz 6 ta for siklidan foydalanamiz. Oldingi misolga o‘xshamagan holda sonlar takrorlanmaydi. Sonlar takrorlanmasligi uchun har bir n – ketma – ketlik n-1 – ketma –ketlikdan katta bo‘ladigan qilib yozishimiz kerak. Shuning uchun mavjud sikl 1 dan boshlamaydi lekin oldingi siklga +1 ni qo‘shgan sondan boshlaydi. Biz birinchi siklni 44 ga yetguncha olib borishimiz kerak.keyingisi 45 ga yetguncha va hakozo…agar biz hamma sikllarni 49 gacha qilsak biz bu kombinatsiyalarda 1 xil qiymat olamiz. Shu sababli har bir sikl o‘zidan oldingi siklga 1 ni qo‘shib oladi. Dastur quyidagicha

```
for (int i1 = 1; i1 <= 44; i1++)
{
```

```
   for (int i2 = i1 + 1; i2 <= 45; i2++)
   {
      for (int i3 = i2 + 1; i3 <= 46; i3++)
      {
         for (int i4 = i3 + 1; i4 <= 47; i4++)
         {
            for (int i5 = i4 + 1; i5 <= 48; i5++)
            {
               for (int i6 = i5 + 1; i6 <= 49; i6++)
               {
                  Console.WriteLine(i1 + " " + i2 + " " +
                     i3 + " " + i4 + " " + i5 + " " + i6);
               }
            }
         }
      }
   }
}
```

Hammasi to‘g‘ri berilgan. Keling yuqoridagi dasturni ishlatib ko‘ramiz. Bu dastur ishlaydiganga o‘xshaydi ammo bir muammo bor. Kombinatsiya juda ko‘p va dastur to‘xtamaydi (u juda sekin va juda ko‘p vaqt oladi). Shundan “6/49” tanlanganini tushinish mumkin. Chunki bunda juda ko‘p kombinatsiyalar mavjud. Yuqoridagi o‘yinda hamma kombinatsiyalarning sonini hisoblashning tezligini kutib

turibmiz, vaholanki uni chop etish emas. Bu tezlik chop qilingan natijalarni qisqartirishi natijasida dastur kutilmagan darajada tez tugaydi.

Katta textlarni konsolda chiqarish juda sekin amalga oshadi. Zamonaviy kompyuterlarda bir sekundda 300,000,000 tezlikda ishlaydi (2012) ammo sekundiga 10,000-20,000 oralig‘idagi text qatorlarni chiqarib beradi.

Asosiy adabiyotlar

1. Robert W. Sebesta, Concepts of Programming Languages, John Wiley & Sons, USA 2015.
2. Fundamentals of Computer Programming With C# (The Bulgarian C# Programming Book). Svetlin Nakov & Co., 2013
3. Andrew Troelsen. Pro C# 5.0 and the .NET 4.5 Framework Sixth Edition 2012 apress.

Glossariy

- **Sikl operatori** – takrorlash sharti deb nomlanuvchi mantiqiy ifodani rost **(true)** qiymatida programmaning ma’lum bir qismlaridagi operatorlarni (takrorlash tanasini) ko‘p marta takror ravishda bajarishni amalga oshiradi (itaratsiya)
- **Break** – operatori sikldan chiqib ketishda foydalaniladi
- **BigInteger –** katta sonlar bilan ishlashga mo‘ljallangan klass
- **continue** – bu operatori xuddi **break** operatoridek takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi, lekin programmani qurilmadan chiqib ketmasdan takrorlashning keyingi qadamiga “sakrab” o‘tishini tayinlaydi
- **foreach –** bu sikl operatori **C/C++/C#** dasturlash tillari oilasi uchun yangi ammo bu **VP va PHP** dasturchilari uchun yaxshi tanish dasturning konstruksiyasida massivning barcha elementlarini va ro‘yxatdan yoki elementlar yig‘indisida (**IEnumerable**) ishlatiladi
- **Write(…) –** konsolga argumentlarni chiqarish
- **WriteLine(…) –** konsolga ma’lumotlarni chiqarish va keyingi qatorga o‘tish

- **Console.ReadKey() –** klavish bosilguncha ekranni ushlab turadi
- **KeyChar –** kiritilgan belgini ushlab turadi
- **int.Parse(string) –** satrni butun tipga o‘tkazadi
- **Convert klassi –** metodidan foydalangan holda boshqa tipga o‘tkazish uchun ishlatiladi
- **try-catch –** hatoliklarni ushlab qolish uchun ishlatiladi
- **while, do – while, for, foreach** – sikl operatorlari

Topshiriqlar

1. Konsolda 1 dan n gacha sonlarni chiqaradigan dastur tuzing. (n kiritilsin).
2. 1 dan n gacha sonlar berilgan. Ekranga 3 ga va 7 ga bo‘linmaydigan sonlarni bir vaqtda chiьiaruvchi dastur tuzing. (n soni kiritilsin).
3. Konsolda bir qancha butun son tipidagi sonlarni eng kichik va eng kattasini chiqaradigan dastur tuzing.
4. Kartaning standard doskasidan barcha ehtimoliylarini chiqaradigan dastur tuzing. Jokerslarsiz (u yerda 52 karta bor: 13 juft kartaning 4 tasi Jokers).
5. N ta raqamdan iborat fibonachchi sonlarini chiqaruvchi dastur tuzing. Fibanochchi ketma – ketligi: 0,1,1,2,3,5,8,13,21,34,55,89,144,233,337,…
6. N!/C! ni hisoblaydigan dastur tuzing. (1<C<N).
7. N!*C!/(N-C)! hisoblaydigan dastur tuzing. (1<N<C).
8. Quyidagi formulani hisoblovchi dastur tuzing.

$$C_n = \frac{1}{n+1}\binom{2n}{n} = \frac{(2n)!}{(n+1)!n!} \quad n \geq 0$$

9. N va x berilgan S ni toping.

$$S = 1 + {}^{1!}/_{x} + {}^{2!}/_{x^2} + \ldots + {}^{n!}/_{x^n}$$

10. Quyida matritsa berilgan (N<20).

N = 3

1	2	3
2	3	4
3	4	5

N = 4

1	2	3	4
2	3	4	5
3	4	5	6
4	5	6	7

11. N kiritilganda shu ko‘rinishada hosil bo‘ladigan matritsa dasturini tuzing.

12. Oxirgi raqamlari 0 lar bilan tugaydigan faktorial ga dastur tuzing. Masalan:

N = 10 -> N! = 3628800 -> 2

N = 20 -> N! = 2432902008176640000 -> 4

13. O‘nlikdan ikkilikka o‘tuvchi dastur tuzing.
14. Ikkilikdan o‘nlikka o‘tuvchi dastur tuzing.
15. O‘nlikdan o‘n oltilikka o‘tuvchi dastur tuzing.
16. O‘n oltilikdan o‘nlikka o‘tuvchi dastur tuzing.
17. N berilgan. 1 dan N gacha bo‘lgan sonlarni ixtiyoriy tarzda chiqaradigan dastur tuzing.
18. Berilgan a va b ni EKUB va EKUKkini toping. EKUK (a,b)=|a*b|/EKUB(a,b).
19. Spiralsimon matritsa dasturini tuzing. Masalan:

n=4:

1	2	3	4
12	13	14	5
11	16	15	6
10	9	8	7

Amaliy mashg‘ulot.

1-misol. $S = \frac{1}{1} + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \cdots + \frac{1}{50}$ yig‘indini hisoblash dasturini tuzing.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi va yangi loyiha yaratamiz.



Endi berilgan masala kodini

```
static void Main(string[] args)
 {
     }
```

S# dagi asosiy metod blokiga yoziladi.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         float s = 0;
         for (float i = 1; i <= 50; i++ )
         {
            s += 1 / i;
         }
         Console.WriteLine("yigindi=> {0}",s);
         Console.ReadKey();
      }
   }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasida quyidagi 1.1-rasm rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



1.1-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

2-misol. Konsoldan 2 ta son kiritiladi. Sonlar ustida amallar bajaruvchi menyu xosil bo‘lsin va foydalanuvchi tomonidan tanlangan menyu asosida amal bajaruvchi dastur tuzing.

Visual Studio 2013 (VS 2013) tizim ishga tushiriladi, **2.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



2.1-rasm. Visual Studio 2013 tizimining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **SecondProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz.

Endi berilgan masala kodini kiritamiz.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace SecondProgramm
{
```

```
class Program
{
    static void Main(string[] args)
    {

Console.WriteLine("1.qo'shish\n2.ayrish\n3.ko'paytirish\n4.bo'lish\n5.chiqish\n----------
-----------------------------------");
        while(true)
        {
            Console.Write("Birinchi sonni kiriting: ");
            float a = float.Parse(Console.ReadLine());
            Console.Write("Ikkinchi sonni kiriting: ");
            float b = float.Parse(Console.ReadLine());
            Console.Write("Amalni tanlang: ");
            int s=int.Parse(Console.ReadLine());
            if(s==1)
            {
                Console.WriteLine("{0}+{1}={2}",a,b,a+b);
            }
            else
            {
                if(s==2)
                {
                    Console.WriteLine("{0}-{1}={2}",a,b,a-b);
                }
                else
                {
                    if (s == 3)
                    {
                        Console.WriteLine("{0}*{1}={2}", a, b, a * b);
                    }
                    else
                    {

                        if (s == 4)
```

```
                {
                    Console.WriteLine("{0}/{1}={2}", a, b, a / b);
                }
                else
                {
                    if(s==5)
                    {
                        System.Environment.Exit(-1);
                    }
                    else
                    {
                        Console.WriteLine("Amalni qaytadan bajaring");
                    }

                }

            }

        }

    }
    Console.ReadKey();
    }
  }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. ***a*** *va* ***b*** sonlarni kiritamiz va 1.3-rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



2.2-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari

Boshlang‘ich bosqich

Topshiriq: bloksxema va tanlash operatorini qo‘llab masalaga muvofiq dastur yozing.

1. A sonini butun **N** darajaga oshiring
2. Berilgan sonni faktorialini hisoblang. **N** sonining faktorialini quyidagi formula bo‘yicha xisoblang: N!=1*2*3*…N
3. 1 dan **N** gacha bo‘lgan sonlar kvadratlari summasi S ni xisoblang.
4. 1 dan **N** gacha bo‘lgan juft sonlar kvadratlari va toq sonlar kublari summasi S ni xisoblang.

5. 5 ga karrali bo‘lmagan va 3 ga karrali bo‘lgan sonlarni toping, shuningdek 5 ga karrali bo‘lmagan va 3 ga karrali bo‘lgan sonlarni summasini toping.
6. 1 dan **N** gacha berilgan sonlarning 5 ga karralilarini toping
7. Berilgan natural son ikkining darajasi bo‘la oladimi?
8. Berilgan sonni ko‘paytuvchilarga ajrating.
9. Bir sonini ham inobatga olgan holda, bo‘luvchilari yig‘indisiga teng bo‘lgan son tub son deyiladi. 2 dan h oralig‘igacha bo‘lgan sonlar ichidan tub sonlarni toping va chop qiling.
10. M dan **N** gacha bo‘lgan sonlarning kvaratlari yig‘indisini toping.
11. Berilgan **M** va **N** sonlari oralig‘idagi toq sonlarning kvaratlari yig‘indisini toping.
12. -80 dan 80 gacha bo‘lgan, sonlardan 7 ga karrali butun sonlarning toqlarini ko‘paytmasini toping.
13. -10 dan 10 gacha bo‘lgan, 9 ga karrali butun musbat sonlarning yig‘indisini toping.
14. 100 dan 800 gacha diapazonda bo‘lgan **N** natural soni berilgan. **N** dan katta bo‘lgan 3 xonali sonlarni qanchaligini aniqlang.
15. **N** natural soni berilgan. **N** dan kichik bo‘lgan barcha natural sonlarni va o‘zaro tub(agar sonni ±1 dan boshqa bo‘luvchisi bo‘lmasa) sonlarni aniqlang.
16. **p** va **q** butun sonlar berilgan. **p** bilan o‘zaro tub bo‘lgan **q** sonini barcha bo‘luvchilarini toping.
17. **N** natural soni berilgan. Bu sonni barcha oddiy bo‘luvchilarini toping.
18. Birinchi 100 ta tub sonni toping. (tub son o‘ziga va 1 ga bo‘linadi)
19. **M** va **N** qiymatlar oralig‘idagi juft sonlarning kvadratini ko‘paytmasini toping.
20. Natural son **n** berilgan. xisoblang: $1\cdot2+2\cdot3\cdot4+\ldots+n(n+1)\cdot\ldots\cdot2n$.
21. Natural sonlardan **N** toq sonlarni kubini bo‘linmasini toping.
22. **M** dan **N** gacha bo‘lgan natural sonlarning bo‘linmasini kvadratini toping.
23. -20 dan 20 gacha bo‘lgan, 5 ga karrali butun manfiy sonlarning yig‘indisini toping.
24. 4 ga karrali va 100 dan kichik bo‘lgan butun musbat sonlarning yig‘indisini toping.
25. 1 dan **N** gacha bo‘lgan barcha sonlarning kvadratlari bo‘linmasini hisoblovchi dastur tuzing.
26. 100 dan 200 ni ham hisobga olgan holda barcha toq sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing.
27. **M** dan **N** gacha bo‘lgan sonlarning kublarini ko‘paytmasini toping.

28. **n**, **m** natural sonlari berilgan. Barcha **n** dan kichik, kvadratlari yig‘indisi **m** ga teng bo‘lgan natural sonlari aniqlang.
29. Berilgan **M** va **N** o‘zgaruvchilarning qiymatlari oralig‘idagi toq sonlarning kvadratlari ko‘paytmasini toping.
30. Berilgan **M** va **N** o‘zgaruvchilarning qiymatlari oralig‘idagi juft sonlarning kvadratlari yig‘indisini toping.

Testlar

1. Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System.IO;
using System;
 class Program
{
   static void Main()
   {
      object a = 1;
      object b = 10;
      object s = 0;
      while(b == a)
      {
            s=s+a;
            a++;
      }
            Console.WriteLine(s);

   }
}
```

a) 0
b) 55
c) Kompilyatsiyaning bajarilishida xatolik sodir bo‘ladi
d) Xech qanday natija chiqmaydi

2. Siklning shart ifodasi qanday qiymat qaytaradi

a) faqat mantiqiy qiymat

b) butun qiymat

s) satr qiymat

d) faqat butun va mantiqiy qiymat

3. Cheksiz sikl nima?

a) asosiy dasturning kodini takrorlanishini bajaradi

b) Hech qachon tugamaydigan sikllar

s) bunday sikllar mavjud emas

d) yuqoridagi a) va b) javoblar to‘g‘ri

4. While sikli dastlab nimani bajaradi?

a) mantiqiy ifodani

b) siklni tana qismini

s) sonlar yig‘indisini

d) a) va b)

5. **Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
            int counter = 0;
            while (counter < 9)
```

```
            {
                Console.WriteLine("Number : " + counter);
                counter++;
            }
        }
    }
}
```

a) 0 dan 9 gacha sonlarni tartib bo‘yicha chiqaradi

b) 0 dan 8 gacha sonlarni tartib bo‘yicha chiqaradi

s) 1 dan 9 gacha sonlarni yig‘indisini chiqaradi

d) 0 dan 7 gacha sonlarni tartib bo‘yicha chiqaradi

6. Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
    class Program
    {
        static void Main(string[] args)
        {

            Console.Write("n = ");
            int n = int.Parse(Console.ReadLine());
            int num = 1;
            int sum = 1;
            Console.Write("The sum 1");
            while (num < n)
```

```
        {
            num++;
            sum += num;
            Console.Write(" + " + num);
        }
        Console.WriteLine(" = " + sum);

    }
  }
}
```

a) n tub sonmi yoki yo‘qligini tekshiradi

b) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

s) 0

d) 1

7. while (true)

{

Operatorlar;

}

Bu opreator nima deb ataladi

e) Oddiy sikl opreatori
f) Cheksiz sikl operatori
g) Shartli sikl opreatori
h) True sikl opreatori

8. **Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
```

```
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {

         int n = int.Parse(Console.ReadLine());

         decimal factorial = 1;

         while (true)
         {
          if (n <= 1)
          {

            break;
          }
          factorial *= n;
          n--;
         }
         Console.WriteLine("n! = " + factorial);

      }
   }
}
```

a) Faktorialni hisoblash programmasi

b) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

s) n=3 kiritsak, n!= 6 natijani qaytaradi

d) a) va s) javoblar to‘g‘ri

9. **Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
```

```
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {

         int n = 5;

         decimal factorial = 1;

         while (true)
         {
          if (n <= 1)
          {

            break;
          }
          factorial *= n;
          n--;
         }
         Console.WriteLine(factorial);

      }
   }
}
```

a) n!=120

b) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

s) 120

d) Unknown number!

10. **Do** - **while** sikl operatori **while** sikl operatorini farqi nimada.
    a) **Do** - **while** sikl operatori **while** sikliga o‘xshash, lekin u siklning shart qismini tana qismini bajarib bo‘lganidan keyin tekshiradi
    b) **while** sikl operatori **Do** - **while** sikliga o‘xshash, lekin u siklning shart qismini tana qismini bajarib bo‘lganidan keyin tekshiradi
    c) Bu sikl operatorlarni hech qanday farqi yo‘q



    d) To‘g‘ri javob berilmagan

11. Do - while sikli qaysi blok sxemadagidek ish bajaradi.

a)

b)



c)



d) To‘g‘ri javob berilmagan

12.Katta sonlar bilan ishlashda qaysi tipdan foydalaniladi

a) BigInteger
b) Integer
c) Numerics
d) BigDecimal

13.BigInteger dan foydalanish uchun qaysi kutubxonani qo‘shishimiz kerak

a) Reference.dll
b) System.Numeric.dll
c) System.IO.dll
d) System.Numerics.dll

14.**Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;
```

```
namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {


         int n =0;

         int m =5;
         int num = n;
         long product = 1;
         do
         {
            product *= num;
            num++;
         } while (num <= m);
         Console.WriteLine(product);
      }
   }
}
```

a) 1
b) 0
c) 120
d) 125

For sikli qaysi blok sxemadagidek ish bajaradi

a)
b)





c)



d) To‘g‘ri javob

berilmagan

15.Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {

         for (int i = 0; i <= 10; i++)
         {
            Console.Write(i + " ");
         }
      }
   }
}
```

a) 0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

b) 0 1 2 3 4 5 6 7 8 9

s) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

d) 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

16. Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
```

```
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         for (int i = 1, sum = 1; i <= 128; i = i * 2, sum += i)
         {
            Console.WriteLine("i={0}, sum={1}", i, sum);
         }
      }
   }
}
```

a) i=1, sum=1

i=2, sum=3

i=4, sum=7

i=8, sum=15

i=16, sum=31

i=32, sum=63

i=64, sum=127

i=128, sum=255

b) i=2, sum=3

i=4, sum=7

i=8, sum=15

i=16, sum=31

i=32, sum=63

i=64, sum=127

i=128, sum=255

s) i=1, sum=1

i=2, sum=3

i=4, sum=7

i=8, sum=15

i=16, sum=31

i=32, sum=63

i=64, sum=127

d) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

17.**Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         int n = 5;
         int m = 2;
         decimal result = 1;
         for (int i = 0; i < m; i++)
         {
```

```
            result *= n;
        }
        Console.WriteLine("{0}^{1} = {2}", n, m, result);

    }
  }
}
```

a) n^m =25

b) 2^5 =32

s) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

d) 5^2 =25

18.**Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;
namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         for (int small = 1, large = 5; small < large; small++, large--)
         {
            Console.WriteLine(small + " " + large);
         }
         Console.ReadKey();
      }
   }
```

```
}
```

a) 1 10

2 9

b) 3 8

4 7

s) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

d) 1 10 2 9

19.continue operatori vazifasi to‘liq berilgan javobni toping?

a) takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi, lekin programmani qurilmadan chiqib ketmasdan takrorlashning keyingi qadamiga “sakrab” o‘tishini tayinlaydi
b) takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi
c) break operatoridek takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi
d) takrorlashning keyingi qadamiga “sakrab” o‘tishini tayinlaydi

20. **Quyidagi kodning kompilyatsiya va ijro natijasi qanday bo‘ladi:**

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         int n = 10;
         int sum = 0;
         for (int i = 1; i <= n; i += 2)
```

```
            {
               if (i % 7 == 0)
               {
                  continue;
               }
               sum += i;
            }
            Console.WriteLine("sum = " + sum);
            Console.ReadKey();
         }
      }
   }
```

a) 0

b) sum = 55

s) Kompilyatsiya xatoligi vujudga keladi

d) sum =18

7-mavzu. Massivlar

Reja

1. Kirish ([2] 235-betlar)
2. Massivlarni e’lon qilishi uchun xotiradan joy ajratish ([2] 236- betdan)
3. Massivning elementlarini joylashtirish ([2] 239-betdan)
4. Konsoldan massivni o‘qish ([2] 242-betdan)
5. Ko‘p o‘lchamli massivlar ([2] 247-betdan)
6. Massivning massivi ([2] 253-betdan)

Kirish

Biz bu bo‘limda bir xil tipdagi elementlar ketma-ketligi bilan ishlashni massivlar orqali o‘rganamiz. Biz massivlar nima ekanligini, ularni qanday qilib e’lon qilinishini, son kiritilishini va foydalanishni tushuntirib o‘tamiz. Biz bir - o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli massivlarni ko‘rib chikamiz. Biz massiv orkali konsoldan kiritish va standart o‘qib olish jarayoni ketma-ketligi usullarini o‘rganamiz. Biz massivlar orqali ishlanadigan ko‘plab misollar orqali ularning qanchalik foydaliligini ko‘rsatamiz.

1.1 Massiv nima

Massivlar dasturlash tillari uchun eng muhim hisoblanadi . Ular biz elementlar deb ataydigan o‘zgaruvchilarning massividan iborat.



Massivlarning bir qator elementlari S# da 0, 1, 2, ... N- 1 bilan nomerlanadi. Ana shu raqamlar indekslar deb ataladi. Berilgan massivdagi qator elementlarning umumiy soni esa bu massiv uzunligi deyiladi. Massiv elementlari bir xil tipda bo‘ladi. Bu bizga bir guruh o‘xshash elementlarning belgilangan ketma – ketlikda namoyon bo‘lishi va umuman ular ustida ishlash imkonini beradi.

Massivlar o‘lchami turli bo‘lishi mumkin, lekin eng ko‘p foydalaniladigan massivlar bir o‘lchovli va ikki o‘lchovlilardir. Bir – o‘lchovli massivlar vektor va ikki o‘lchovli massivlar esa matritsalar deyiladi.

Massivlarni e’loni uchun xotiradan joy ajratish

Ushbu S# tilida massivlar uzunligi massiv e’loni paytida aniq bo‘ladi va aynan shu paytda elementlar soni ham aniq bo‘ladi. Bir marta massivning uzunligi kiritildimi, uni boshqa o‘zgartirib bo‘lmaydi.

2 Massivlarni e’lon qilishi uchun xotiradan joy ajratish

Biz massivni quyidagicha e’lon qilamiz:

```
int[] myArray;
```

Ushbu misolda myArray o‘zgaruvchisi massivning nomi hisoblanadi, qaysiki butun sonlar tipiga(int) tegishli. Bu shuni anglatadiki biz massiv elementlarini butun sonlar tipidan olamiz. Ushbu belgi [] orqali biz bu o‘zgaruvchi massiv elemetlari yagona emasligini ko‘rsatamiz.

Biz massiv o‘zgaruvchisini tipini e’lon qilganimizda u qiymatga ega bo‘lmaydi (bo‘sh). Chunki, unda hali elementlar uchun xotira ajratilmagan bo‘ladi.

Quyidagi rasmda e’lon qilinmagan massiv elementlari uchun xotira ajratilmagan paytida qanaqa ko‘rinishda bo‘lishini ko‘rsatadi.



Dasturning amalga oshirish jarayonida myArray o‘zgaruvchisi kiritiladi va unga qiymati nolga teng(qiymatga ega emas) bo‘ladi.

2.1 Massiv yaratish - "new" opreatori

Biz C# da "new" kalit so‘zi orqali massivni e’lon qilamiz. Bu xotiradan joy olishda foydalaniladi

.

int [] myArray = new int [6] ;

```
int[] myArray = new int[6];
```

Bu misolda biz elementlari int tipiga tegishli uzunligi 6 ga teng massiv yaratdik. Bunda 6 ta butun tipli son uchun dinamik xotira(heap) joy ajratiladi va ular 0 qiymati bilan initsializatsiya qilinadi:



Bu rasm shuni ko‘rsatadiki, massiv elemetlari uchun xotiradan olingan joy qattiq xotirada bo‘ladi. C# da massivning elementlari doimo qattiq (dinamik) xotirada saqlanadi. Massiv uchun xotiradan joy ajratish jarayonida qavs ichida elementlar sonini kiritamiz*(manfiy bo‘lmagan butun son), bu uning uzunligini bildiradi. Elementning tipi **new** kalit so‘zidan keyin yoziladi, biz bu orqali xotiradan qanday tipdagi elementlar uchun joy ajratilishini ko‘rsatamiz.

2.2 Massiv ishga tushishi va mavjud qiymatlar

Berilgan massiv elementlarini qo‘llashdan oldin, uning qiymatlarini kiritishimiz kerak. Bazi dasturlash tillarida massiv elementlarining boshlang‘ich qiymati

bo‘lmaganligi sababli , biz undan foydalanmoqchi bo‘lsak ,xatolik beradi. S# da massiv elementlarining boshlang‘ich qiymati bor,xoh uning qiymati 0 yoki bo‘sh bo‘lsin(ular ham tiplarga tegishli). Albatta boshlang‘ich qiymatlarni ochiqchasiga kiritishimiz mumkun. Buni turli yo‘llar orqali amalga oshirish mumkun.

Mana ulardan biri:

```
int[] myArray = { 1, 2, 3, 4, 5, 6 };
```

Ushbu holatda biz massiv va uning boshlang‘ich qiymatlarini e’lon qilayotgan paytimizda kiritamiz. Quyidagi shakl orqali biz massivning qanday qilib uning elementlari qiymatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri e’lon qilinayotgan paytda xotiradan joy olishini ko‘rishimiz mumkin.



Ushbu sintaksisda biz **new** operator o‘rniga figurali qavslardan foydalandik. Qavslar orasiga vergullar bilan ajratgan g‘olda massiv elementlarining boshlang‘ich qiymatini kiritdik. Elementlar soni massiv uzunligini bildiradi.

2.3 Massivni e’lon qilish va initsializatsiya qilishga –misol

Bu yerdagi misol massivni e’lon qilish va initsializatsiya qilishga oid:

```
string[] daysOfWeek =
  { "Monday", "Tuesday", "Wednesday","Thursday", "Friday",
  "Saturday", "Sunday" };
```

Bu misolda biz massivni satr tipiga tegishli 7 ta elementni xotiraga joylashtirdik. Satr tipi refrens tipiga tegishli bo‘lib , ularning qiymati dinamik xotirada saqlanadi. **daysOfWeek** o‘zgaruvchi stak xotirasida saqlanadi va uning elementlari esa dinamik xotirada saqlanadi. Massivning har bir elementi satr tipiga tegishli bo‘ladi va har bir massiv elementi uchun dinamik xotiradan alohida joy ajratiladi.

Ushbu rasmda massivning elementlari qanday qilib xotiradan joy olganini ko‘rishingiz mumkin:



3 Massivning chegarasi

Massiv elementlari 0 dan boshlab indekslanadi. Birinchi element 0 bilan, 2-element 1 bilan va shu tartibda n-element n-1bilan indekslanadi.

3.1 Massiv elementlarini kiritish

Biz massiv elementlarini ularni indekslaridan foydalangan holda kiritamiz. Har bir elementning indeksi massivning nomidan keyin va to‘rtburchak qavs ichiga joylashadi. Berilgan massivning elementlariga o‘qish va yozish uchun kira olasiz.

Massiv elementlarini kiritish doir misol:

```
myArray[index] = 100;
```

Yuqoridagi misolda, massivning indeks o‘rinda turgan elementiga 100 qiymatini beramiz.

Quyidagi misolda, biz massivni nomerladik va bazi elementlariga qiymat kiritdik.

```
int[] myArray = new int[6];
myArray[1] = 1;
myArray[5] = 5;
```

Yuqoridagi o‘zgarishdan keyin massiv quyidagi ko‘rinishda xotiradan joy oladi.



Rasmdan ko‘rish mumkinki xotirada biz qiymat bergan 2 ta elementdan tashqari barcha elementlar 0 bilan to‘ldirilgan. Biz massiv elementlarini ketma – ketma sikl operatoridan foydalangan holda kiritishimiz mumkin. Massiv elementlarini kiritishni eng ko‘p tarqalgan usuli **for** sikl operatoridan foydalanishdir.

```
int[] arr = new int[5];
for (int i = 0; i < arr.Length; i++)
{
   arr[i] = i;
}
```

3.2 Massivni chegaralash

.NET Framework kiritilgan indeks massivga tegishli yoki tegishli emasligini **automatic check** (avtomatik tekshirish) orqali tekshirib beradi. Biz agar massivda mavjud bo‘lmagan element kiritsak, **System.IndexOutOfRangeException** yozuv chiqadi. Bu tekshirish foydalanuvchilarga massiv bilan ishlashda qayerda xatolik bo‘layotganligi ko‘rsatib turadi. Lekin bu pullik. Bu tekshirishda qayerda xatolik bo‘lganini aniqlash mumkin.

Quyidagi misolda biz massivda mavjud bo‘lmagan elementni kiritamiz.

IndexOutOfRangeExample.cs

```
class IndexOutOfRangeExample
{
   static void Main()
   {
      int[] myArray = { 1, 2, 3, 4, 5, 6 };
      Console.WriteLine(myArray[6]);
   }
}
```

Yuqorida misolda 6 ta butun sonlardan iborat bo‘lgan massiv uchun xotiradan joy ajratdik. Birinchi indeksi 0 va oxirgi indeksi 5 ga teng. Biz konsolga massivning



indeksi 6 ga teng bo‘lgan elementni chop etishga harakat qilyapmiz lekin bunday element mavjud bo‘lmaganligi uchun quyidagi istisno holatni olib keladi.

3.3 Massivni teskari tartiblash

Keyingi misolda massiv elementlarini kiritamiz va ularning indekslaridan foydalangan holda o‘zgartiramiz. Ushbu misolda massiv elementlarini teskari tartibda chop etish talab qilingan. Biz massiv elementlarini 2-yordamchi massivdan foydalangan holda teskari tartibda chop etamiz. Bunda 1-massiv elementlari teskari tartibda 2-massivning elementlari ham bo‘ladi. Har ikki massivlarning ham uzunligi 1

ArrayReverseExample.cs

```
class ArrayReverseExample
{
  static void Main()
  {
    int[] array = { 1, 2, 3, 4, 5 };
    // Get array size
    int length = array.Length;
    // Declare and create the reversed array
    int[] reversed = new int[length];

    // Initialize the reversed array
    for (int index = 0; index < length; index++)
    {
      reversed[length - index - 1] = array[index];
    }

    // Print the reversed array
    for (int index = 0; index < length; index++)
    {
      Console.Write(reversed[index] + " ");
    }
  }
}
// Output: 5 4 3 2 1
```

xil bo‘ladi.

Bu misol quyidagicha ishlaydi. Dastlab biz elementlari int tipiga tegishli bir o‘lchami 5 ga teng bo‘lgan massiv e’lon qilamiz. elementlarga 1 dan 5 gacha bo‘lgan qiymatlarni ketma-ket beramiz. Undan so‘ng massiv uzunligini **length**

o‘zgaruvchisiga saqlaymiz. Ushbu qiymatni xosil qilishda **Length** xossasidan foydalanamiz va bunda u massiv elementlarining umumiy sonini qaytaradi. C# da har bir massiv uzunligini aniqlashda **Length** xossasidan foydalaniladi.

Bundan so‘ng, dastlabki massivni uzunligi bilan bir hil bo‘lgan **reversed** nomli massiv e’lon qilamiz. **reversed** nomli massiv elementlari dastlabki massiv elementlaridek bo‘lib, faqat teskari tartibda bo‘ladi.

Elementlarni testari tartiblash uchun **for**-sikl operatoridan foydalanamiz. Har bir jarayon ketma – ketligida biz indeks o‘zgaruvchisini birma – bir oshirib boramiz va bu orqali biz dastlabki massiv elementining hech bir elementi tushib qolmayotganiga ishonch hosil qilamiz. Sikl operatori ishlash ketma – ketligi soni massiv uzunligiga teng.

Biz bu ketma – ketlik jarayonida massiv ustida nima sodir bo‘lganini kuzatamiz?

Jarayon boshida indeksni qiymati 0 ga teng bo‘ldi. Massivni **array[index]** dan foydalangan holda massivning birinchi elementini kiramiz va bu elementni yangi **reversed** massivining **[length - index - 1]** elementi bo‘lib, yangi massiv **reversed** ning oxirgi elementi bo‘lib xotiraga joylashadi. Shunday qilib biz dastlabki massivning birinchi elementini **reversed** massivining oxirgi elementiga mos qo‘yamiz. Har bir jarayon ketma – ketligida indeksni qiymati bittaga oshadi. Bu yo‘l orqali biz keyingi element **array** massivining to‘g‘ri tartibida **reversed** massivining teskari tartibida joylashadi.

Natijada, biz massivni teskar tartibda joylashtirdik va shu tartibda chop etamiz. Bu misolda biz **for** sikli orqali amalga oshirdik, lekin bu jarayonni boshqa sikl operatorlari (while va **foreach** sikl operatorlari) dan foydalangan holda bajarish mumkin.

4 Konsoldan massivni o‘qish

Konsoldan massiv qiymatlarini qanday o‘qishimiz mumkinligi ko‘rib chiqamiz. Biz konsolidan o‘qish uchun NET Framework vositalari va sikl operatorlardan foydalanamiz.

Dastlab biz **Console.ReadLine( )** yordamida konsoldan qatorni o‘qib, keyin biz **int.Parse** yordamida qatorni butun soni tipiga o‘tkazamiz va uni **n** o‘zgaruvchisiga o‘zlashtiramiz. Biz bu **n** o‘zgaruvchisidan massivni uzunligi sifatida foydalanamiz.

```
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
int[] array = new int[n];
```

Biz yana massiv ustida takrorlash uchun sikl operatorlaridan foydalanamiz. Har bir takrorlash davomida biz konsoldan o‘qib olingan joriy elementni massivga yuklaymiz. Massivning barcha elementlarini o‘qib olish uchun sikl **n** marta takrorlanadi .

```
for (int i = 0; i < n; i++)
{
   array[i] = int.Parse(Console.ReadLine());
}
```

4.1 Simmetrik massivni tekshirish

Agar massivning birinchi va oxirgi elementi, ikinchi elementi unga mos ravishda massivning oxirgi elementdan bitta oldingi elementi va shu tartibda tenglik mos ravishda davom etsa, bu simmetrik massiv deyiladi. Quyidagi shakllarda simmetrik massivlarga misollar keltirilgan.

1



Keyingi misolda massiv simmetrik yoki simmetrik emasligini tekshiramiz :

```
Console.Write("Enter a positive integer: ");
int n = int.Parse(Console.ReadLine());
int[] array = new int[n];

Console.WriteLine("Enter the values of the array:");

for (int i = 0; i < n; i++)
{
   array[i] = int.Parse(Console.ReadLine());
}

bool symmetric = true;
for (int i = 0; i < array.Length / 2; i++)
{
   if (array[i] != array[n - i - 1])
   {
      symmetric = false;
      break;
   }
}

Console.WriteLine("Is symmetric? {0}", symmetric);
```

Biz massivni initsializatsiya qilamiz va uning elementlarini konsoldan o‘qiymiz. Simmetrik ekanligini tekshirish uchun bizga massivning yarmi orqali takrorlashni amalga oshirishimiz kerak bo‘ladi. Massivning o‘rtadagi elementi **array.Length / 2** indeksidir. Agar uzunlik toq son bo‘lsa, bu indeks o‘rta qiymatidan bitta kam bo‘ladi, lekin, agar u juf son bo‘lsa, indeks o‘rtasi (ikki elementning o‘rtasi)dan boshlanadi. Shunday qilib, sikl 0 dan **array.Length / 2** gacha takrorlashni bajaradi.

Massivning simmetrik ekanligini tekshirish uchun, biz **bool** o‘zgaruvchisidan foydalanamiz va dastlab biz massivni simmetrik deb tasavur qilamiz. Takrorlashlar davomida biz birinchi elementni oxirgi element bilan, ikkinchi elementni oxiridan bitta oldingisi bilan taqqoslaymiz. Agar qaysidir paytda elementlar teng bo‘lmasa, keyin **bool** o‘zgaruvchisi **false** qiymatini oladi va massiv simmetrik emasligi aniq bo‘ladi.

Va nixoyat konsolga **bool** o‘zgaruvchisini qiymati chop ettiriladi.

4.2 Konsolga massivni chop etish

Ko‘p xollarda massiv bilan ishlashni tugatganimizdan keyin massiv elementlarini konsolga chop etishimiz kerak bo‘ladi.

Biz initsializatsiya qilingan (kiritilgan) massiv elmentlarini konsolga chop etamiz, masalan sikl operatorlaridan foydalangan holda. Massivlarni chop etishda aniq bir qoida yo‘q amma bir qancha tanlab olingan usullardan foydalaniladi.

Ko‘pincha tez – tez uchrab turadigan xatolardan biri son sifatida chop etish hisoblanadi.

```
string[] array = { "one", "two", "three", "four" };
Console.WriteLine(array);
```

Afsuski bu kod massiv elementlarini chiqarmaydi faqatgina uni tipini chiqarib beradi. Kod natijasini ko‘rishimiz mumkin.



Biz **for** sikli yordamida birma – bir massiv elementlarini chop etish.

```
string[] array = { "one", "two", "three", "four" };

for (int index = 0; index < array.Length; index++)
{
   // Print each element on a separate line
   Console.WriteLine("Element[{0}] = {1}", index, array[index]);
}
```

Biz **for**-siklidan foydalangan holda massiv elementlari ko‘rib chiqiladi va bu jarayon **array.Length** davom etadi va satr formatida **Console.WriteLine()** dan foydalanib joriy elementlarini chop etamiz. Natijasi quyidagicha:

```
Element[0] = one
Element[1] = two
Element[2] = three
Element[3] = four
```

4.3 Massiv elementlarini ketma – ketligi

Ko‘rib turganimizdek, massiv bilan ishlashda eng ko‘p ishlatiladigan texnikalardan biri bu massiv elementlaridan foydalanishdir. Sikl operatori orqali jarayonni ketma – ket amalga oshirish bizga massiv bilan ishlashda ya’ni ularni

indeks orqali kiritishda qulaylik yaratib beradi va ularni hoxlaganimizdek boshqara olamiz. Biz buni turli sikl operatorlari yordamida amalga oshirishimiz mumkin lekin bizga mos keladigani **for** sikl operatoridi. Biz bu ketma – ketlik qanday ishlashini birma – bir ko‘rib chiqamiz.

4.4 "for" sikli bilan jarayon ketma - ketligi

Massiv strukturasi va indekslari bilan ishlaganimizda **for** siklini qo‘llash yaxshi natija beradi. Biz quyidagi misolda barcha massiv elementlarini ikkilantirib chop etamiz.

```
int[] array = new int[] { 1, 2, 3, 4, 5 };

Console.Write("Output: ");
for (int index = 0; index < array.Length; index++)
{
   // Doubling the number
   array[index] = 2 * array[index];
   // Print the number
   Console.Write(array[index] + " ");
}
// Output: 2 4 6 8 10
```

For yordamida massiv indeksining joriy qiymati saqlanadi va indeksini qiymatini ham kiritib boriladi. Bu ketma – ketlikni bajarishini for siklini o‘zi amalga oshiradi. Quyidagi misolda biz massiv elementlarini bazilarini ketma – ketlikda olib boramiz lekin barchasini emas.

```
int[] array = new int[] { 1, 2, 3, 4, 5 };

Console.Write("Output: ");
```

```
for (int index = 0; index < array.Length; index += 2)
{
   array[index] = array[index] * array[index];
   Console.Write(array[index] + " ");
}
// Output: 1 9 25
```

Bu misolda massivni juf o‘rindagi barcha elementlarini kvadratga oshirib konsolga chop etadi.

Biz bazan massivni teskari tartibda olishni hoxlaymiz. **For** sikli massivning oxirgi indeksdan ishini boshlaydi va har bir qadamda indeksning qiymati 0 ga teng

```
int[] array = new int[] { 1, 2, 3, 4, 5 };

Console.Write("Reversed: ");
for (int index = array.Length - 1; index >= 0; index--)
{
   Console.Write(array[index] + " ");
}
// Reversed: 5 4 3 2 1
```

bo‘lguncha bittaga kamayadi. U quyidagicha:

Bu misolda massivni teskari tartibda joylashtirish olib borilmoqda va har bir qiymat konsolga chop etilmoqda.

4.5 "foreach" sikli bilan takrorlash

Massiv elementlari orqali takrorlanishni eng ko‘p qo‘llaniluvchi konstruksiyalaridan biri bu **foreach** operatoridan foydalanishdir. **Foreach** siklini C# dagi konstruksiyasiyasi quyidagicha:

```
foreach (var item in collection)
{
   // Process the value here
}
```

Bu dasturlash konstruksiyasida **var** takrorlanishlar ketma – ketligidagi elementlar tipidir. **collection** massiv (elementlar to‘plami) va **item** o‘zgaruvchisi esa har qadamdagi massivning joriy elementlari.

Umuman olganda **foreach** sikl konstruksiyasi **for** sikl bilan bir xil bo‘lgan qulayliklar mavjud. Asosiy farq shundaki jarayon ketma – ketligi barcha massiv elementlarining boshdan oxirigacha bajariladi. Biz joriy indeksni kirita olmaymiz o‘zini – o‘zi yeg‘ish usuli orqali jarayon ketma – ket olib boriladi. Massivlar uchun bu jarayon ketma – ketligi birinchi elementdan oxirgi elementga tartib bo‘yicha olib boriladi. **Foreach** siklidagi o‘zgaruvchilar faqat o‘qib olinadi shuning uchun siklning tana qismidagi joriy sikl o‘zgaruvchilarini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

foreach-siklidan elementlarini o‘zgartirmasdan faqat o‘qib olish uchun ishlatilinsa foydalaniladi. Foreach bilan ketma – ketlik

Quyidagi misolda massiv ketma – ketligidan foydalanish **foreach** sikli orqali

```
string[] capitals =
   { "Sofia", "Washington", "London", "Paris" };

foreach (string capital in capitals)
{
   Console.WriteLine(capital);
}
```

ko‘rsatilgan

Bu misolda satr tipidagi **capitals** nomli massiv e’lon qilinganidan keyin **foreach** sikl operatori yordamida massiv elementlarini konsolga chop etiladi. Har bir element har bir qadamda **capital** o‘zgaruvchisiga joylashadi. Bu kod bajarilgandan so‘ng quyidagi natijaga erishiladi.

```
Sofia
Washington
London
Paris
```

6 Ko‘p o‘lchamli massivlar

Bir o‘lchamli massivlar matematikada vector sifatida ma’lum. Ko‘pincha ko‘p o‘lchamli massivlarga extiyoj seziladi. Masalan, shaxmat taxtasini o‘lchami 8 ga 8 bo‘lgan ikki o‘lchamli massiv sifatida qarash mumkin (8 ta katak gorizontal bo‘yicha va 8 ta katak vertikal bo‘yicha)

6.1 Ko‘p o‘lchamli massiv va matritsa

C# dagi xar bir mavjud tip massiv tipi sifatida ishlatilishi mumkin. Bir o‘lchamli elementlari butun son bo‘lgan massiv int[], ikki o‘lchamli massiv esa int[,] ko‘rinishda e’lon qilinadi. Quyidagi misolda ikki o‘lchamli massivni e’lon qilish keltirilgan:

```
int[,] twoDimensionalArray;
```

Ushbu massivni ikki o‘lchamli deb ataladi, chunki uning o‘lchami ikkiga teng. Ular matematik terminga ko‘ra matritsalar deb ataladi. Umuman olganda, bir o‘lchamdan ko‘p bo‘lgan massivlarni ko‘p o‘lchamli massiv deb ataladi.

Quyida uch o‘lchamli massivni e’lon qilish ko‘rsatilgan:

```
int[,,] threeDimensionalArray;
```

Matematikadagi teoremaga asosan massiv o‘lchami uchun chegara yo‘q ammo amaliyotda ikki o‘lchamli massivdan yuqori tartibi ishlatilmaydi.

6.2 Ko‘p o‘lchamli massivni e’lon qilish va xotiraga joylashtirish

Ko‘p o‘lchamli massivlar bir o‘lchamli massivlarga o‘xshash yo‘l orqali e’lon qilinadi. Bir o‘lchamli massivlardan tashqari qolgan massivlarda massiv o‘lchamidan

```
int[,] intMatrix;
float[,] floatMatrix;
string[,,] strCube;
```

bitta kam vergul bilan ajratiladi.

Yuqoridagi misolda, ikki o‘lchamli va uch o‘lchamli massivlarni yaratish keltirib o‘tilgan. Har bir o‘lcham vergul bilan to‘rtburchak qavslar orqali belgilanadi [].

Ko‘p o‘lchamli massivlarni xotiraga joylashtirishda **new** kalit so‘zidan foydalaniladi va har bir o‘lchami uchun uzunligi aniqlanadi. Massivni e’lon qilish quyida misolda keltirilgan:

```
int[,] intMatrix = new int[3, 4];
float[,] floatMatrix = new float[8, 2];
string[,,] stringCube = new string[5, 5, 5];
```

Bu misolda **intMatrix** ikki o‘lchamli massiv bo‘lib, int[] tipidagi 3 element va ularni har biri 4 uzunlikdan iborat. Ikki o‘lchamli massivlar turli usullarda turlicha tushuntiriladi. Tasavvur qilish uchun ikki o‘lchamli massivlarni ustuni va qatori quyidagi rasmda keltirilgan:

	0	1	2	3
0	1	3	6	2
1	8	5	9	1
2	4	7	3	0

Kvadrat massivning satr va ustunlari indeksi 0 dan n-1 gacha sonlar bilan nomerlanadi. Agar ikki o‘lchamli massivni o‘lchami ustun bo‘yicha – *m* va qator bo‘yicha *n* ga teng bo‘lsa, u holda elementlari m*n ta bo‘ladi.

6.3 Ikki-o‘lchamli massivlarni initsializatsiya qilish

Ikki o‘lchamli massivlar bir o‘lchamli massivlar kabi bir xil initsializatsiya qilinadi. Quyidagi misolda massiv elementlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri e’lon qilish ro‘yhati

```
int[,] matrix =
{
  {1, 2, 3, 4}, // row 0 values
  {5, 6, 7, 8}, // row 1 values
};
// The matrix size is 2 x 4 (2 rows, 4 cols)
```

keltirilgan:

Yuqoridagi misolda 2 qator va 4 ustundan iborat ikki o‘lchamli massiv initsializatsiya qilingan. Birinchi fugurali qavsda yozilgan sonlar birinchi qator qiymatlarini ikkinchisi esa ikkinchi qator qiymatlarini bildiradi. Har bir qator bir o‘lchamli massivni o‘z ichiga oladi.

6.4 Ko‘p o‘lchamli massiv elementlarini kiritish

Ikki o‘lchamli matritsaning elementlari ikkita indeksdan foydalangan holda kiritiladi. Bunda birinchi indeks qator elementini, ikkinchi indeks ustun elementini bildiradi. Ko‘p o‘lchamli massivlarda har bir o‘lcham uchun turlicha indeks bor.

Ko‘p o‘lchamli massivning har bir o‘lchamining indeksi 0 dan boshlanadi

Quyidagi misolda keltirilgan:

```
int[,] matrix =
{
  {1, 2, 3, 4},
  {5, 6, 7, 8},
};
```

matrix nomli massivda 8 ta elementi mavjud bo‘lib, 2 qator va 4 ta ustundan

```
matrix[0, 0]  matrix[0, 1]  matrix[0, 2]  matrix[0, 3]
matrix[1, 0]  matrix[1, 1]  matrix[1, 2]  matrix[1, 3]
```

iborat. Har bir element quyidagicha kiritiladi.

Bu misolda har bir element indekslar yordamida kiritiladi. Agar qator indekslari uchun **row**, ustun indekslarini **col** deb olinsa, u quyidagicha bo‘ladi.

```
matrix[row, col]
```

Ko‘p o‘lchamli massiv elementlari o‘zlarining indeks nomerlari bilan farqlanadi va u quyidagicha bo‘ladi:

```
nDimensionalArray[index1, …, indexN]
```

6.5 Ko‘p o‘lchamli massivlaring uzunligi

Ko‘p o‘lchamli massivning har bir o‘lchamini uzunligi bo‘lib, u dastur bajarilishi jarayonida aniqlanadi. Ikki o‘lchamli massiv uchun quyidagi misolda ko‘rsatilgan.

```
int[,] matrix =
{
  {1, 2, 3, 4},
  {5, 6, 7, 8},
};
```

Ikki o‘lchamli massiv qatorlari soni **matrix.GetLength(0)** dan, ustunlar soni esa **matrix.GetLength(1)** foydalanib olinadi. Yuqoridagi misolda **matrix.GetLength(0) 2** ni va **matrix.GetLength(1) esa 4** ni qaytaradi. Demak massiv 2 ta qator va 4 ta ustundan iborat.

6.6 Matritsani chop etish

Keyingi misolda qanday qilib ikki o‘lchovli massiv elementlarini konsolga chop etish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan:

```
// Declare and initialize a matrix of size 2 x 4
int[,] matrix =
{
  {1, 2, 3, 4}, // row 0 values
  {5, 6, 7, 8}, // row 1 value
};

// Print the matrix on the console
for (int row = 0; row < matrix.GetLength(0); row++)
{
  for (int col = 0; col < matrix.GetLength(1); col++)
  {
    Console.Write(matrix[row, col]);
  }
  Console.WriteLine();
}
```

Dastlab massiv e'lon qilindi va unga qiymat berildi. Bu ikki o'lchamli massiv elementlarini ekranga chop etish uchun **for** sikl operatoridan foydalanildi. Birinchi **for** sikli qator bo'yicha ketma – ketlikni ta'minlab bersa, ichma – ich joylashgan ikkinchi **for** sikli esa o'z navbatida har bir qator bo'yicha ustunlar ketma – ketligini

```
1 2 3 4
5 6 7 8
```

ta'minlab beradi. Har bir jarayon ketma –ketligida bu ikki indeksdan foydalangan holda elementlar konsolga chop etiladi (qator va ustun bo'yicha). Bu kod ishga tushishi natijasi quyidagicha:

6.7 Matritsa elementlarini konsoldan o'qish

Bu misolda ikki o'lchamli massivni konsoldan qanday qilib o'qib olish ko'rsatilgan. Dastlab ikki o'lchamli massiv qiymati (uzunligi) o'qib olinadi. Ichma – ich joylashgan sikl operatoridan foydalangan holda har bir element qiymati kiritiladi (va kiritilgan qiymatlar yana ekranga chiqariladi).

```
Console.Write("Enter the number of the rows: ");
int rows = int.Parse(Console.ReadLine());

Console.Write("Enter the number of the columns: ");
int cols = int.Parse(Console.ReadLine());

int[,] matrix = new int[rows, cols];

Console.WriteLine("Enter the cells of the matrix:");

for (int row = 0; row < rows; row++)
{
   for (int col = 0; col < cols; col++)
   {
      Console.Write("matrix[{0},{1}] = ",row, col);
      matrix[row, col] = int.Parse(Console.ReadLine());
   }
}

for (int row = 0; row < matrix.GetLength(0); row++)
{
   for (int col = 0; col < matrix.GetLength(1); col++)
   {
      Console.Write(" " + matrix[row, col]);
   }
   Console.WriteLine();
}
```

Yuqoridagi dastur natijasi quyidagicha bo‘ladi (bu misolda massiv 3 ta qator va 2 ta ustunlardan iborat):

```
Enter the number of the rows: 3
Enter the number of the columns: 2
Enter the cells of the matrix:
matrix[0,0] = 2
matrix[0,1] = 3
matrix[1,0] = 5
matrix[1,1] = 10
matrix[2,0] = 8
matrix[2,1] = 9
 2 3
 5 10
 8 9
```

6.8 Matritsani maksimal qiymat

Keyingi misolda yana bir boshqa bir qiziqarli misolni ko‘ramiz. Bizga elementlari butun son bo‘lgan ikki o‘lchamli to‘rtburchakli massiv berilgan bo‘lib,bu ko‘p o‘lchamli massiv ichidan shunday ikkiga ikki massiv olishimiz kerakki ushbu massiv elementlari boshqa bir ikki o‘lchamli massiv elementlaridan katta bo‘lsin, va uni hamda elementlari yig‘indisini chop etishimiz kerak.

Bu masal1aning yechimi quyidagicha:

```
            long sum = matrix[row, col] + matrix[row, col + 1] +
              matrix[row + 1, col] + matrix[row + 1, col + 1];
            if (sum > bestSum)
            {
               bestSum = sum;
               bestRow = row;
               bestCol = col;
            }
         }
      }

      // Print the result
      Console.WriteLine("The best platform is:");
      Console.WriteLine("  {0} {1}",
         matrix[bestRow, bestCol],
         matrix[bestRow, bestCol + 1]);
      Console.WriteLine("  {0} {1}",
         matrix[bestRow + 1, bestCol],
         matrix[bestRow + 1, bestCol + 1]);
      Console.WriteLine("The maximal sum is: {0}", bestSum);
   }
}
```

Agar dastur amalga oshirilsa, quyidagi natija olinadi

```
The best platform is:
  9 8
  7 9
The maximal sum is: 33
```

Algoritm quyidagicha tushintiriladi. Dastlab, elementlari butun son bo‘lgan o‘lchamli massiv yaratiladi. bestSum, bestRow, bestCol nomlanuvchi yordamchi o‘zgaruvchilar e’lon qilinadi va bestSum ning qiymati sifatida long tipli eng kichik son beriladi. 4 ta butun sonni yig‘indisi **int** tipga sig‘masligini inobatga olgan holda, **long** tipidan foydalanildi.

bestRow, bestCol o‘zgaruvchilarida elementlari boshqa ikki o‘lchamli massiv elementlaridan katta bo‘lgan massiv elementlari ularni yig‘indisi esa **bestSum** o‘zgaruvchisida saqlanadi.

2 x 2 massiv elementlarini kiritish uchun birinchi element indekslari kerak bo‘ladi. Ularni amalga oshirgach qolgan 3 ta elementlarini ham kiritiladi:

```
matrix[row, col]
matrix[row, col + 1]
```

```
matrix[row + 1, col]
matrix[row + 1, col + 1]
```

Ushbu misolda row va col o‘zgaruvchilari **matrix** nomli massivga tegishli 2 ga 2 matritsani elementlarini indekslaridir.

Bu orqali 2 x 2 matritsaning birinchi elementining indekslarini bilgan holda qolgan elementlarni topish mumkin. Bu algoritm elementlari boshqa 2 x 2 massiv elementlaridan katta bo‘lgan massivni aniqlash uchun foydalaniladi. Bu 2 ga 2 matritsani topish jarayoni matritsani elementlarining yig‘indisi eng katta bo‘lguncha davom etadi. Bu ish 2 ta ichma – ich joylashgan **for** sikl operatori hamda **row** va **col** orqali amalga oshiriladi. Shuni yodda tutish kerakki jarayon butun matritsa bo‘yicha amalga oshirilmaydi chunki agar **row + 1** yoki **col + 1** elementlar kiritilsa, matritsa o‘lchamidan oshib ketishi mumkin va xatolikka olib keladi va **System.IndexOutOfRangeException** istisno holatga olib keladi.

Joriy elementning qo‘shni elementlari bo‘yicha yangi matritsa tuziladi va ularning yig‘indisi hisoblanadi va bu qiymat oldingi qiymatlar bilan taqqoslanadi. Agar bu qiymat katta bo‘lsa, joriy yig‘indi eng katta bo‘ladi va bu elementlar indekslari **bestRow** va **bestCol** ga joylashadi. Bu jarayonni asosiy matritsa bo‘yicha ko‘rib chiqqanimizdan keyin elementlari eng katta bo‘lgan 2 ga 2 matritsa topiladi. Agar asosiy matritsada o‘lchami 2 ga 2 bo‘lgan, elementlar eng katta va yig‘indisi teng bo‘lgan yana bitta matritsa topilsa natija sifatida birinchi massivni olinadi.

Jarayon oxirida topilgan 2 x 2 matritsa elementlari va ularning yig‘indisi konsolga chop etiladi.

7 Massivlarning massivi

C# dasturlash tilida massivlarning massivi bo‘lib, u **jagged** massiv deb ataladi.

Jagged massiv massivning massivi (ichma –ich joylashgan) bo‘lib, massiv qatori elementlari massivlardan iborat bo‘ladi.

7.1 Massivning massivini e’lon qilish va hotiradan joy ajratish

Ko‘p o‘lchamli massiv bilan **jagged** massivni e’lon qilishdagi asosiy bitta farq bir juft qavsning ko‘p bo‘lishidadir. Massivning har bir o‘lchami uchun juft qavslar bor va u quyidagicha joylashadi:

```
int[][] jaggedArray;
jaggedArray = new int[2][];
jaggedArray[0] = new int[5];
jaggedArray[1] = new int[3];
```

Bu yerda jagged massivining qanday qilib e’lon qilish, elementlariga qiymat berish va xotiraga joylashtirish ko‘rsatilagan (jagged massiv elementlari elementlari butun tipli massivdan iborat):

```
int[][] myJaggedArray = {
   new int[] {5, 7, 2},
   new int[] {10, 20, 40},
   new int[] {3, 25}
};
```

7.2 Xotiraga joylashtirish

myJaggedArray nomli **jagged** massivini qanday qilib e’lon qilish xotiraga joylashtirish quyidagi rasmda ko‘rsatilgan. Yuqorida ko‘rganimizdek **jagged** massiv massivlarni to‘plami hisoblanadi. **jagged** massivi hech qanday massivni o‘z ichiga olmaydi lekin shunga qaramasdan ularni elementlarini ko‘rsatib turadi. O‘lchamini bilib bo‘lmaydi shuning uchun ham ular haqidagi massivning mavjud ma’lumotlari CLR da saqlanadi. Keyin xotiradan **jagged** massivining elementlari uchun alohida massiv ajratiladi, keyin ushbu ma’lumotlar dinamik xotiradan ajratilgan yangi blokka joylashadi. **myJaggedArray** statik xotirada saqlanadi va u dinamik xotiraga qaratilgan bo‘ladi. Ushbu dinamik xotirada ketma-ketlikdagi 3 ma’lumot 3 ta blokda saqlanadi.har bir blok elementlari butun son bo‘lgan massivni o‘z ichiga oladi.



7.3 Elementlarni e’lon qilish va initsializatsiya qilish

Biz **jagged** massiv elementlar (o‘z navbatida massiv) ini ularning indekslaridan foydalangan holda kiritamiz. Quyidagi misolda massivning 0 –indeksida joylashgan

```
myJaggedArray[0][2] = 45;
```

```
int[][,] jaggedOfMulti = new int[2][,];
```

```
jaggedOfMulti[0] = new int[,] { { 5, 15 }, { 125, 206 } };
jaggedOfMulti[1] = new int[,] { { 3, 4, 5 }, { 7, 8, 9 } };
```

massivning 3-indeksida turgan elementi quyidagicha e’lon qilingan:

Paskal uchburchagi- misol

Keyingi misolda biz jagged massividan paskal uchburchagini yaratish va formatlash uchun foydalanamiz. Matematikadan ma’lumki uchburchakning birinchi qatori 1 dan boshlanadi va keyingi qatorlar iborat. Matimatikadan bilganimizdek, uchburchakning har bir qatori 1 raqamidan boshlanadi va har bir keyingi raqam esa undan yuqoridagi qator elementlari yig‘indisiga teng.paskal uchburchagi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi

Berilgan balandlikdagi paskal uchburchagini hosil qilish uchun biz 0-qatori 1

```
        1
      1   1
    1   2   1
  1   3   3   1
1   4   6   4   1
      . . .
```

dan iborat jagged massivini e’lon qilamiz.elementlar soni qatorlar bilan mos ravishda o‘sadi.dastlab biz **triangle[0][0] = 1** ni beramiz, qolgan katakchalardagi qiymat 0 ga nisbatan joylashadi. Keyin sikl operatori orqali **row** qiymati birma – bir oshib boradi. Bu ichma - ich joylashgan sikl orqali joriy sikl ustunlar bilan ham ishlaydi va paskal uchburchagining qiymati quyidagicha, ya’ni joriy qator **(triangle[row][col])** katakchaga, pastagi **(triangle[row+1][col])** katakchaga va pastdan o‘ng tarafdagi **(triangle [row+1][col+1])** qiymat kiritiladi. Bo‘sh katakchadagi mos qiymatlarni (satr tipiga tegishli **PadLeft ()** metodidan foydalanib) ekranga chop etamiz.

Quyida algoritmining kodi tasvirlangan:

PascalTriangle.cs

```
class PascalTriangle
{
  static void Main()
  {
    const int HEIGHT = 12;

    // Allocate the array in a triangle form
    long[][] triangle = new long[HEIGHT + 1][];

    for (int row = 0; row < HEIGHT; row++)
    {
```

Agar bu dasturni amalga oshirsak, uni to‘liq darajada ishlayotganiga va Paskal uchburchagini berilgan qator nomeri bo‘yicha yaratadi (bu misolda balandlik 12 ga teng).

```
      triangle[row] = new long[row + 1];
    }

    // Calculate the Pascal's triangle
    triangle[0][0] = 1;
    for (int row = 0; row < HEIGHT - 1; row++)
    {
      for (int col = 0; col <= row; col++)
      {
        triangle[row + 1][col] += triangle[row][col];
        triangle[row + 1][col + 1] += triangle[row][col];
      }
    }

    // Print the Pascal's triangle
    for (int row = 0; row < HEIGHT; row++)
    {
      Console.Write("".PadLeft((HEIGHT - row) * 2));
      for (int col = 0; col <= row; col++)
      {
        Console.Write("{0,3} ", triangle[row][col]);
      }
      Console.WriteLine();
    }
  }
}
```

```
                    1
                  1   1
                1   2   1
              1   3   3   1
            1   4   6   4   1
          1   5  10  10   5   1
        1   6  15  20  15   6   1
      1   7  21  35  35  21   7   1
    1   8  28  56  70  56  28   8   1
  1   9  36  84 126 126  84  36   9   1
1  10  45 120 210 252 210 120  45  10   1
1  11  55 165 330 462 462 330 165  55  11   1
```

Asosiy adabiyotlar

1. Robert W. Sebesta, Concepts of Programming Languages, John Wiley & Sons, USA 2015.
2. Fundamentals of Computer Programming With C# (The Bulgarian C# Programming Book). Svetlin Nakov & Co., 2013
3. Andrew Troelsen. Pro C# 5.0 and the .NET 4.5 Framework Sixth Edition 2012 apress.

Glossariy

- **Massiv** - bir xil tipdagi elementlar ketma-ketligi
- **Length** – massiv uzunligi (o‘lchami) ni aniqlash funksiyasi
- **New** - massiv yaratishda bu operatordan foydalaniladi
- **Sikl operatori** – takrorlash sharti deb nomlanuvchi mantiqiy ifodani rost (true) qiymatida programmaning ma’lum bir qismlaridagi operatorlarni (takrorlash tanasini) ko‘p marta takror ravishda bajarishni amalga oshiradi (itaratsiya)
- **Break –** operatori sikldan chiqib ketishda foydalaniladi
- **BigInteger –** katta sonlar bilan ishlashga mo‘ljallangan klass
- **continue** – bu operatori xuddi break operatoridek takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi, lekin programmani qurilmadan chiqib ketmasdan takrorlashning keyingi qadamiga “sakrab” o‘tishini tayinlaydi

- **foreach –** bu sikl operatori C/C++/C# dasturlash tillari oilasi uchun yangi ammo bu **VP va PHP** dasturchilari uchun yaxshi tanish dasturning konstruksiyasida massivning barcha elementlarini va ro‘yxatdan yoki elementlar yig‘indisida (**IEnumerable**) ishlatiladi
- **Write(…) –** konsolga argumentlarni chiqarish
- **WriteLine(…) –** konsolga ma’lumotlarni chiqarish va keyingi qatorga o‘tish
- **Console.ReadKey() –** klavish bosilguncha ekranni ushlab turadi
- **KeyChar –** kiritilgan belgini ushlab turadi
- **int.Parse(string) –** satrni butun tipga o‘tkazadi
- **Convert klassi –** metodidan foydalangan holda boshqa tipga o‘tkazish uchun ishlatiladi
- **try-catch –** hatoliklarni ushlab qolish uchun ishlatiladi

Amaliy mashg‘ulot

1-misol. Massivlarni konsol orqali kiriting va maksimal elementini topish dasturini tuzing.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi va yangi loyiha yaratamiz.



Endi berilgan masala kodini

```
static void Main(string[] args)
      {
      }
```

S# dagi asosiy metod blokiga yoziladi.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;

namespace FirstProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
         int i, n, max;
         Console.WriteLine("massiv elementlar soni");
         n = int.Parse(Console.ReadLine());
         int[] c = new int[n];

         for (i = 0; i < n; i++)
         {
```

```
            Console.Write("c[{0}]=", i);
            c[i] = int.Parse(Console.ReadLine());
        }
        max = c[0];
        for (i = 0; i < n; i++)
        {
            if (max < c[i])
                max = c[i];
        }

        for (i = 0; i < n; i++)
            Console.Write(" " + c[i]);

        Console.WriteLine("\n max={0} ", max);
 Console.ReadKey();
     }
   }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasida quyidagi 1.1-rasm rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



1.1-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun

nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

2-misol. Konsoldan n o‘lchamli massiv berilgan. Massivni juft elementlirini indeksi bo‘yicha tartiblab chop etish dastur tuzing.

Visual Studio 2013 (VS 2013) tizim ishga tushiriladi, **2.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



2.1-rasm. Visual Studio 2013 tizimining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **SecondProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz.

Endi berilgan masala kodini kiritamiz.

```
using System;
using System.Collections.Generic;
using System.Linq;
using System.Text;
using System.Threading.Tasks;
```

```
namespace SecondProgramm
{
   class Program
   {
      static void Main(string[] args)
      {
          int i;
         Console.Write("massiv elementlar soni: ");
         int n = int.Parse(Console.ReadLine());
         int[] c = new int[n];

         for (i = 0; i < n; i++)
         {
            Console.Write("c[{0}]=", i);
            c[i] = int.Parse(Console.ReadLine());
         }
         Console.WriteLine("\nmassivning juft elementlari:");
         for (i = 0; i < n; i++)
         {
            if (c[i] % 2 == 0)
            {
               if (c[i] != 0 && c[i]>0)
                  Console.Write("c[{0}]={1}   ", i, c[i]);
            }

         }

         Console.ReadKey();
      }
   }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. Massiv o‘lchamini kiritamiz va 1.3-rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



2.2-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

Amaliyot topshiriqlari

Boshlang‘ich bosqich

Topshiriq: bloksxema va tanlash operatorini qo‘llab masalaga muvofiq dastur yozing:

Elementlari 14 ta butun son bo‘lgan massiv kiriting. Qiymati juft bo‘lgan elementlari sonini toping.

Elementlari 12 ta butun son bo‘lgan massiv kiriting. 5-elementini shu massiv elementlarini o‘rta arifmetigi qiymatiga almashtirib yangi massiv hosil qiling.

Butun tipli, 11 ta elementdan iborat massiv berilgan. Absolyut qiymati massiv elementlarining o‘rta arifmetigi qiymatidan katta bo‘lgan elementlari sonini toping.

Butun tipli, 10 ta elementdan iborat massiv berilgan. Maksimal elementini birinchi elementi bilan joyini almashtiring.

Butun tipli, 9 ta elementdan iborat massiv berilgan. Maksimal elementini minimal elementi bilan joyini almashtiring.

20 ta elementdan iborat butun tipli massiv kiriting. Qiymatlari juft va toq

elementlaridan eng kattalarini toping.

Haqiqiy tipli, 15 ta elementdan iborat massiv berilgan. qiymati birinchi elementnikidan katta bo‘lgan elementlari sonini toping.

Butun tipli, 15 ta elementdan iborat massiv berilgan. Massiv elementlarini uning o‘rta arifmetigiga bo‘lib yangi massiv xosil qiling.

Butun tipli, 15 ta elementdan iborat massiv berilgan. Massiv elementlarini uning o‘rta arifmetigiga bo‘lib yangi massiv xosil qiling.

Butun tipli, 17 ta elementdan iborat massiv kiriting (elementlari musbat va manfiy). Manfiy sonlar modulining o‘rta arifmetigidan absolyut qiymati katta bo‘lgan elementlari yig‘indisini toping.

Butun tipli, 14 ta elementdan iborat massiv kiriting. Musbat sonlarning toqlari yig‘indisini va sonini xisoblang.

Haqiqiy tipli, 12 ta elementdan iborat massiv kiriting. Elementlarini kamayish tartibida joylashtiring. Maksimal va minimal elementlari yig‘indisini toping.

Butun tipli, 15 ta elementdan iborat massiv kiriting. Maksimal va minimal elementlari yig‘indisi va bo‘linmasini toping.

Butun tipli, 17 ta elementdan iborat massiv kiriting. 3 ga karralisini qiymati toq bo‘lgan elementlarini yig‘indisiga almashtiring.

Haqiqiy tipli, 14 ta elementdan iborat massiv kiriting. 1 dan 7 gacha bo‘lgan elementlarini ko‘payish, 8 dan 14 gacha bo‘lgan elementlarini kamayish tartibida joylashtiring.

Haqiqiy tipli, 12 ta elementdan iborat massiv kiriting. Maksimal va minimal elementlari orasida nechta element borligini aniqlang.

Butun tipli, 15 ta elementdan iborat massiv kiriting. Manfiy sonlar nechtaligini, musbat sonlarining ko‘paytmasini, qiymati nolga tenglari nechtaligini aniqlang.

Haqiqiy tipli, 12 ta elementdan iborat massiv kiriting. Elementlari qiymati joylashgan oraliq chegarasini aniqlang.

19 ta butun tipli elementdan iborat massiv berilgan. Birinchi manfiy songacha bo‘lgan elementlari yig‘indisini aniqlang. Agar manfiy son bo‘lmasa bu haqda habar chop etilsin.

Butun tipli, 16 ta elementdan iborat massiv kiriting. 3 ga karrali barcha elementlarini nol bilan almashtiring, almashtirishlar sonini aniqlang.

Berilgan M(12) haqiqiy sonli massivning minimal elementini 3 martta oshiring va oxirgi element bilan o‘rnini almashtiring.

M(15 haqiqiy sonli massiv berilgan. Elementlarini teskari tartibda chiqaring.

Butun tipli 14 ta elementdan iborat massiv kiriting. Indeksi juft bo‘lgan elementlarini yig‘indisini va toq elementlari ko‘paytmasin toping.

Haqiqiy tipli 12 ta elementdan iborat massiv kiriting. Oxirgi elementdan qiymati kichik bo‘lgan elementlari soni va yig‘indisini toping.

Butun tipli, 15 ta elementdan iborat massiv kiriting (elementlari musbat va manfiy). Berilgan massiv elementlari bo‘linmasidan va musbat sonlari yig‘indisidan yangi massiv hosil qiling.

Elementlari 15 ta haqiqiy tipli massiv berilgan. Barcha musbat sonlari ko‘paytmalari va barcha manfiy sonlari modulining ko‘paytmalari bo‘linmasini aniqlang.

Elementlari 19 ta butun son bo‘lgan massivdan maksimal elementini aniqlang va uni barcha juft bo‘lganlari qiymatiga o‘zlashtiring.

Butun tipli, 17 ta elementdan iborat massiv kiriting. Qiymati musbat sonlarining o‘rta arifmetigidan katta bo‘lgan elementlarining yig‘indisini va nechtaligini toping.

Haqiqiy tipli, 18 ta elementdan iborat massiv berilgan. Barcha musbat sonlari ko‘paytmasi va barcha manfiy sonlari modulli yig‘indisini bo‘linmasini butun qismini toping.

Haqiqiy sonli M(12) massiv berilgan. minimal elementi summasini va indeksini toping.

O‘rta bosqich

Topshiriq: masalaga mos ravishda blok sxema tuzing va dastur yozing.

Har biri 10 ta elementdan iborat butun sonli massiv kiriting. Yangi massivga juft indekslariga 1-massivning toq indeksli elementini, toq indeksga 2-massivni juft indeksli elementini chop eting.

Butun sonli 8 ta (ikki xonali sonlar) elementdan iborat massiv kiriting. Massivning sonlarini kichik xonasidagi raqamlarni yangi massivda chop eting.

Butun sonli 17 ta (ikki xonali sonlar) elementdan iborat massiv kiriting. Shu massiv raqamlari yig‘indisini toping.

Ikki ta haqiqiy sonlardan iborat 9 ta va 7 ta elementli massiv kiriting. Ikkila massiv sonlarini o‘sish tartibida uchinchi massivga chiqaring.

10 ta elementlari butun tipli bo‘lgan X va Y massivlarini kiriting. Ikkila massivni bir xil elementlaridan iborat S massivni hosil qiling.

Y massivni 12 ta elementini $yi=i^2+2i+19,3 \cos i$ formula bo‘yicha qiymatini hisoblang. Ekranga shu massivni va birinchi bo‘lib qiymati o‘rta arifmetigidan kichiklarini,qolganlarni o‘rnini o‘zgartirmay yangi massivga yozib chop eting.

Haqiqiy tipli Z(16 massivi berilgan. juft indeksdagi sonlar yig‘indisi va indeksi 3 ga karrali sonlar yig‘indisi ayirmasini toping.

Berilgan butun sonli R(9) massivida musbat toq sonlarning eng katta indeksini toping.

Klaviaturadan butun tipli 15 ta elementdan iborat massiv X ni kiriting. Massiv Y ni elementlarini yi= cos xi^2 + 2,97 lg^2 i^2 formula bo‘yicha hisoblang. Ikkala massivlarini elementlarini kamayish tartibida uchinchi massivni hosil qiling.

Klaviaturadan butun tipli 17 ta elementdan iborat massiv X ni kiriting. Massiv Y ni elementlarini formula bo‘yicha xisoblang:Y massivni o‘sish tartibida, X ni kamayish tartibida saralang, X va Y massivni juft indekslaridagi elementdan yangi R massivni hosil qiling.

Butun tipli 9 ta (ikki xonali sonlar) elementdan iborat massiv kiriting. Shu massiv raqamlari yig‘indilaridan yangi massiv hosil qiling.

12 ta elementdan iborat, haqiqiy tipli massiv kiriting. Elementlarini kamayish tartibida joylashtiring. Joylashtirilayotgandagi qadamlar sonini aniqlang.

Butun sonli 11 ta elementdan iborat massiv kiriting. Ishorasi manfiy bo‘lgan toq sonlar yig‘indisini hisoblang va uchga karrali sonlarini shu yig‘indi qiymatiga o‘zgartiring.

Haqiqiy tipli 14 ta elementdan iborat massiv kiriting. Birinchi yarmidagi sonlarni ikkinchi yarmi bilan o‘rnini almashtiring. Bundagi qadamlar sonini aniqlang.

Haqiqiy sonlar massivi berilgan. Berilgan S haqiqiy sondan eng uzoqda joylashgan massiv elementini qiymatini va indeksini aniqlang.

10 ta elementdan tashkil topgan, butun sonli massiv berilgan. Birinchi manfiy songacha bo‘lgan elementlari soni nechtaligini va ularni yig‘indisini aniqlang.

Berilgan massivdagi lokal minimumlar sonini aniqlang. (Lokal minimumlar - bu yonma-yon turgan 3 ta sonlarni, o‘rasidagisi o‘ng va chapdagidan kichik bo‘lgani).

Berilgan sonli massivdagi lokalni maksimumlarni sonini toping.(Lokal maksimumlar - bu yonma-yon turgan 3 ta sonlarni, o‘rasidagisi o‘ng va chapdagidan katta bo‘lgani).

Butun sonli berilgan Z(15) massividan musbat, manfiy va nol sonlarini barchasini yig‘indisini toping va birinchi manfiy son va nol soni oralig‘ida joylashgan elementlar ketma-ketligini chiqaring.

Berilgan sonli massivdan monoton kamayadigan(har bir keyingi son o‘zidan oldingidan kichik) sonlar ketma-ketliginidagi sonlar indeksini chiqaring.

Berilgan sonlar massividan ikki marttadan ko‘p takrorlanadigan sonlarni o‘chirib tashlang.

Butun tipli 10 ta elementdan tashkil topgan massiv kiriting. Yangi massivni avval manfiy sonlarni keyin nollarni keyin musbat sonlarni ularni ketma-ketligini saqlagan holda kiritib hosil qiling.

Butun tipli 10 ta (ikki xonali sonlar) elementdan iborat massiv kiriting. Kiritilgan massiv sonlari raqamlarini ayirmasidan yangi massiv hosil qiling.

Butun tipli 15 ta elementdan iborat massiv kiriting. Shunday saralangki massivni manfiy sonlari boshida o‘sish tartibida, musbat sonlari oxirida kamayish tartibida bo‘lsin.

Har biri haqiqiy tipli 12 ta elementdan iborat 2 ta massiv berilgan. Birinch massivni ikkinchi massivda ham bor elementlarini nollar bilan almashtiring.

Butun sonli massiv berilgan. Elementlari monotonno ortadigan (har bir keyingi son oldingisidan katta) masssiv uchastkasi sonini aniqlang.

Butun sonli massiv berilgan. Juft indeksli elementlari yig‘indisini toq indeksli elementlari yig‘indisiga bo‘lishdan qolgan qoldiqni aniqlang.

Butun sonli massiv berilgan. Barcha elementlarining o‘rta arifmetigidan ortuvchi sonlar qanchanigini foizini aniqlang.

Ikkita massiv kiriting. Har bir massivni maksimal elementini aniqlang va ularni o‘rnini almashtirib qo‘ying.

Yuqori bosqich

Topshiriq: algoritmni sxemasini va masalani yechish dasturini tuzing.

Ikkilik sanoq sistemasidagi butun son berilgan, yani 0 va 1 ketma-ketligidan iborat son. Shu sonni o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.

Ikkilik sanoq sistemasidagi butun son berilgan, yani 0 va 1 ketma-ketligidan iborat son. Shu sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.

Ikkilik sanoq sistemasidagi butun son berilgan, yani 0 va 1 ketma-ketligidan iborat son. Shu sonni o‘n oltilik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.

Ikkilik sanoq sistemasidagi kasr son berilgan, yani 0 va 1 ketma- ketligidan iborat nuqta bilan ajratilgan son. Shu sonni o‘nlik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.

Ikkilik sanoq sistemasidagi kasr son berilgan, yani 0 va 1 ketma- ketligidan iborat nuqta bilan ajratilgan son. Shu sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.

Ikkilik sanoq sistemasidagi kasr son berilgan, yani 0 va 1 ketma- ketligidan iborat nuqta bilan ajratilgan son. Shu sonni o‘n oltilik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi dastur tuzing.

Ikki xonali butun sonlardan iborat 15 ta elementdan tashkil topgan massiv kiriting. Berilgan massiv elementlaridagi sonlarni raqamlari xonasini almashtirib yangi massivga chop eting. Masalan: berilgan massiv 25 71 84... ,

yangi massiv 52 17 48...

9 ta elementdan (9 ta ikki xonali sonlar 8 lik sanoq sisitemasidagi) tashkil topgan massiv kiriting. Shu massiv elementlarini o‘nlik sanoq sistemasiga o‘girib yangi massivga chop eting.

Butun sonli 7 ta elementdan (7 ta ikki xonali sonlar) tashkil topgan massiv kiriting. Elementlarning katta xonalarida joylashgan raqamlardan yangi massivni chop eting.

7 ta va 9 ta haqiqiy sonlardan tashkil topgan 2 ta massiv kiriting.Ikkala massiv elementlarini kamayish tartibida uchinchi massivga chop etib yangi massivni hosil qiling.

12 ta ikkilik sanoq sistemasidagi sonlardan tashkil topgan massiv berilgan. Massivda ikki marttadan ko‘p takrorlanadigan elementlarini o‘chiring.

Faqat 2 ta bir xil son qatnashadigan massiv kiriting. Shu sonlarni joylashgan joyini aniqlang.

Ikkilik sanoq sistemasidagi butun son berilgan, yani 0 va 1 ketma-ketligidan iborat. Massiv elementlarini siklik tarzda chapga ikki xona chapga suring. Berilgan va hosil bo‘lgan sonni ayirmasini toping.

Sonlari ikkilik sanoq sistemasidagi sonlardan iborat massiv berilgan. Massivni kamayish tartibida saralang. Sonlar yig‘indisini aniqlang.

Sonlari ikkilik sanoq sistemasidagi sonlardan iborat massiv berilgan. Massivni o‘sish tartibida saralang. Sonlarni o‘rtacha qiymatini aniqlang.

Sonlari ikkilik sanoq sistemasidagi sonlardan iborat massiv berilgan. maksimal va minimal elementlari o‘rnini almashtiring.

Ikkilik sanoq sistemasidagi butun son berilgan, yani 0 va 1 ketma-ketligidan iborat. Massiv elementlarini siklik tarzda chapga ikki xona o‘ngga suring. Berilgan va hosil bo‘lgan sonlar yig‘indisini toping.

Butun sonli massiv berilgan. Elementlari monotonno ortadigan (har bir keyingi son oldingisidan katta) joylardagi sonlar yig‘indisi va monoton kamayadigan(har bir keyingi son o‘zidan oldingidan kichik) joylardagi sonlar yig‘indisini o‘rtasidagi ayirmani toping.

Butun sonli massiv berilgan. Uning elementlari qiymati arifmetik progressiyani xolis qila oladim aniqlang. Agar “xa” bo‘lsa progressiya ayirmasini chiqaring, agar “yo‘q” bo‘lsa - javob “xosil qilmaydi”.

Butun sonli massiv berilgan. Uning elementlari qiymati geometrik progressiyani xolis qila oladim aniqlang. Agar “xa” bo‘lsa progressiya majrajini chiqaring, agar “yo‘q” bo‘lsa - javob “xosil qilmaydi”.

Butun sonli massiv berilgan. Qiymati o‘zidan o‘ngda turgan sondan katta bo‘lgan elementlarini indeksini chiqaring, bunday sonlar nechtaligini aniqlang.

Ikkilik sonlardan tashkil topgan massivni maksimal va minimal elementlari orasida nechta son borligini aniqlang. Agar bunday sonlar bo‘lmasa, habar

chop eting.

Berilgan ikkilik sanoq sistemasidagi massivda barcha elementlarini siklik bir xona o‘ngga suring.

Berilgan ikkilik sanoq sistemasidagi massivda barcha elementlarini siklik bir xona chapga suring. O‘zgartirishdan oldingi va keyingi sonlarning yig‘indisini toping.

Berilgan ikkilik sanoq sistemasidagi massivda barcha elementlarini qiymatini ikkilik sanoq sistemasidagi 1010 soniga oshiring.

Haqiqiy sonlar massivi berilgan. Berilgan R haqiqiy soniga eng yaqin bo‘lgan massiv elementini aniqlang(qiymati va indeksini).

Ikkilik sanoq sistemasidagi massiv berilgan. Berilgan D ikkilik sanoq sistemasidagi songa eng uzoq bo‘lgan massiv elementini aniqlang(qiymati va indeksini).

Ikkilik sanoq sistemasida manfiy va musbat sonlar berilgan. Shu sonlar yig‘indisini xisoblovchi dastur tuzing.

O‘nlik sanoq sistemasidagi 3 ta butun sondan iborat massiv berilgan. berilgan massivdagi sonlarni ikkilik sanoq sistemasiga o‘girib massiv hosil qiling.

Ikki o‘lchovli massivlar

Boshlang‘ich bosqich.

Toshiriq: algoritm blok-sxemasini va masalani xisoblovchi dasturini tuzing.

Butun sonli 3x4 ikki o‘lchovli massivni oxirgi qatoridagi elementlarini o‘sish tartibida saralang.

7x7 ikki o‘lchovli massiv berilgan. Manfiy toq elementlari modulini yig‘indisini toping.

5x6 ikki o‘lchovli massiv berilgan. har bir ustunning musbat sonlarini o‘rta arifmetigini aniqlang.

5 -tartibdagi haqiqiy sonlardan iborat kvadrat matritsa berilgan. Yon diaganalidagi eng kichik elementni aniqlang.

5x4 ikki o‘lchovli butun sonli massivni oxirgi ustun elementlarini kamayish tartibida saralang.

A matritsada(4 ta qator, 3 ta ustun) birinchi va uchinchi ustunlardagi eng katta elementlarni joylarini almashtiring.

B matritsada(3 ta qator, 4 ta ustun) birinchi va uchinchi ustunlardagi eng kichik elementlarni joylarini almashtiring.

B matritsada(3 ta qator, 4 ta ustun) birinchi va uchinchi ustunlardagi eng kichik elementlarni joylarini almashaHaqiqiy sonlardan tashkil topgan NxN kvadrat matritsa berilgan (N<=10). Har bir ustunning eng kichik sonlarini

ko‘paytmasini toping.tiring.

Ikki o‘lchovli 5x6 massiv berilgan. Har bir ustunni o‘rta arifmetigini va har bir qatorni minimum va maksimumlarini aniqlang.

Ikki o‘lchovli 7x8 massiv berilgan. har bir qatordagi toq sonlar qanchaligini aniqlang.

Ikki o‘lchovli nxm elementli massiv berilgan, massivdagi juft va toq sonlar nechtaligini aniqlang.

Ikki o‘lchovli nxm elementli massiv berilgan. Massiv elementlari orasida 7 nechi martta uchrashini aniqlang.

Ikki o‘lchovli nxm elementli massiv berilgan. Har bir ustundagi eng katta sonni aniqlang.

Ikki o‘lchovli nxm elementli massiv berilgan. Birinchi eng kichik elementini indeksini aniqlang.

N ta elementli kvadrat massiv berilgan. Oxirgi ustun elementlarini yig‘indisini toping.

N ta elementli kvadrat massiv berilgan. Birinchi satr elementlarini ko‘paytmasini toping.

Butun sonli 10x10 kvadrat massiv berilgan. Har bir qator elementlarini yig‘indisini toping.

Butun sonli 4x4 kvadrat massiv berilgan. Elementlari yig‘indisi eng kichik bo‘lgan qatorni toping.

Butun sonli 7x7 kvadrat massiv berilgan. Elementlari yig‘indisi eng katta bo‘lgan qatorni toping.

Butun sonli 6x8 kvadrat matritsa berilgan. Birinchi ustundagi musbat sonlarning ko‘paytmasini toping.

Butun sonli 4x6 kvadrat matritsa berilgan. Matritsaning har bir ustuni yig‘indisini toping.

Butun sonli 4x6 kvadrat matritsa berilgan. Qatorlarining hamma elementlari yig‘indilari orasidan eng kichigini qiymatini toping.

Butun sonli A[n, m] matritsa berilgan. Matritsa elementlarining o‘rta arifmatigidan katta bo‘lgan elementlari sonini xisoblang. n=4, m=5

N qator va M ustunlardan iborat ikki o‘lchovli massiv berilgan. Massivning ikkinchi qatoridagi elementlari yig‘ indisini toping.

Butun sonli 4x4 o‘lchamdagi matritsa berilgan. Shu matritsani ikkinchi ustunida joylashgan manfiy elementlar nechtaligini toping.

Butun sonli matritsa berilgan. 7 ta ustun va 3 ta qatordan iborat massivning har bir ustunida nechta element borligini aniqlang.

Ixtiyoriy matritsa uchun toq sonlarini yig‘indisini hisoblovchi dastur tuzing.

5x5 o‘lchovli butun sonli matritsa berilgan. 4 chi va 5 chi qatorlarini o‘rnini almashtiring.

Ixtiyoriy matritsa uchun elementlari yig‘indisi eng kichik bo‘lgan ustunni aniqlang.

Matritsaning ikkinchi ustunidagi musbat sonlar nechtaligini aniqlang.

O‘rta bosqich

Topshiriq: masalaga mos ravishda blok sxema tuzing va dastur yozing.

Ixtiyoriy matritsada ikkinchi manfiy sondan keyin joylashgan elementlarni kamayish tartibida saralang.

Ikki o‘lchovli massivni 0 va birlar bilan to‘ldirish kerak. Kiritilishdan so‘ng massiv quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsin:

0 1 0 1
1 0 1 0
0 1 0 1
1 0 1 0

Ikki o‘lchovli massivni to‘ldirish kerak. Kiritilishdan so‘ng massiv quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsin:

01 02 03 04 12 13 14 05 11 16 15 06 10 09 08 07

A(n, m) massiv berilgan. Bitta ham takrorlanuvchi elementi bo‘lmagan massiv qatorini o‘chiring.

3x3 massivni o‘sish tartibida spiral shaklida joylashtiring.

7 8 9 6 1 2 5 4 3

A matritsa elementlarini tasodifiy sonlar generatori yordamida hosil qiling. Bosh diagonal bo‘yicha minimal element joylashgan qatorni o‘chirib, B matritsani hosil qiling.

Kvadrat matritsani n natural sonlar 1, 2, 3, ... , n2 tartibida soat strelkasiga qarshi spiral bo‘yicha yozib to‘ldiruvchi dastur tuzing.

Kvadrat matritsani n natural sonlar 1, 2, 3, ... , n2 tartibida soat strelkasiga qarab spiral bo‘yicha yozib to‘ldiruvchi dastur tuzing.

Ikki o‘lchovli butun sonli massiv berilgan A(M,N). Shu massiv qatorlari nomerlaridan bir o‘lchovli B massivni tuzing.

A (N,M) sonlar matritsidan berilgan B sonidan qiymati yuqori bo‘lgan barcha elementlarini aniqlovchi dastur yozing. Bunday elementlar nechtaligini sanang va ularni K massivga yozing.

A (N,M) sonlar matritsidan klaviaturadan kiritilgan songa teng bo‘lgan barcha elementlarini aniqlovchi dastur yozing. Bunday elementlar nechtaligini sanang.

Ikki o‘lchovli A[5,10] massiv berilgan. Matritsa elementlarini modul bo‘yicha eng kattasiga bo‘lib yangi matritsani hosil qiling.

Ikki o‘lchovli massiv berilgan. Birinchi qatorni minimal element joylashgan

qatordan keying qatorga qo‘ying.

Butun sonli B[1.5, 1.5] massiv berilgan. Chap diagonaldan pastda joylashgan elementlarini ko‘paytmasini toping.

Butun sonli B[1.5, 1.5] massiv berilgan. Chap diagonaldan yuqorida joylashgan elementlarini yig‘indisini toping.

Butun sonli 5x5 matritsa berilgan. Shu matritsadagi birinchi qatorning barcha manfiy sonlarni 0 bilan almashtiring.

Ikki o‘lchovli 5x5 massiv berilgan. Matritsa elementlarini modul bo‘yicha eng kattasiga bo‘lish yo‘li bilan yangi matritsani hosil qiling.

Butun sonli to‘g‘ri to‘rtburchakli M-N o‘lchovli matritsa berlgan. Juft raqamdagi ustunni o‘sish, toq raqamdagisini kamayish tartibida saralang.

Butun sonli 8x5 o‘lchovli matritsa berilgan. Aniqlang:

a) massivning 2-ustuni elementlari yig‘indisini;

b) massivning 3-ustuni elementlari yig‘indisini;

Butun sonli to‘g‘ri to‘rtburchakli M-N o‘lchovli matritsa berilgan. [1,20] oraliqda joylashgan elementlaridan bir o‘lchovli massiv xosil qiling. Xosil qilingan bir o‘lchovli massivning elementlarini o‘rta arifmetigini toping.

Butun sonli to‘g‘ri to‘rtburchakli M-N o‘lchovli matritsa berilgan. [1,20] oraliqda joylashgan elementlaridan bir o‘lchovli massiv xosil qiling. Xosil qilingan bir o‘lchovli massivning elementlari ko‘paytmasini toping.

Butun sonli kvadrat matritsa berilgan. Har bir qatordagi eng katta elementini topib, uni asosiy diagonal elementi bilan o‘rnini almashtiring.

Butun sonli kvadrat matritsa berilgan. Indekslari yig‘indisiga karrali bo‘lgan minimal qiymatdagi elementlar joylashgan ustunni (ustun raqamini) ko‘rsating.

Butun sonli kvadrat matritsa berilgan. Asosiy diagonaldan yuqorida joylashgan elementlari summasini toping.

Berilgan kvadrat massiv o‘zining asosiy diaganaliga nisbatan simmetrikmi aniqlang.

Berilgan kvadrat massiv o‘zining asosiy diaganaliga nisbatan simmetrik emasmi aniqlang.

Ikkita n va m sonlar berilgan. Ikki o‘lchovli int A[n][m] massiv hosil qiling. Uni ko‘paytirish jadvali bilan to‘ldiring A[i][j]=i*j va ekranga chiqaring. Bunda ichma ich sikldan foydalanmang, massivni to‘ldirishlar faqat bitta sikl bilan amalga oshirilsin. Masalan: for(i=0; i<n; ++i).

Butun sonli NxM o‘lchovli matritsa berilgan. Bir hil elementlardan eng kichigi joylashgan qator nomerini chiqaring.

Dasturlashning boshqaruvchi tillarining ko‘pchiligida funksiyalar tomonidan qaytarilishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchilar tiplari cheklangan. FORTRAN 77, Pascal va Modula-2 tillarida funksiyalar faqat strukturalashmagan tiplarni qaytarishi mumkin. S tilida funksiyalar massiv va funksiyalardan tashqari har qanday tipdagi o‘zgaruvchilarni qaytarishi mumkin. C++ tili S tiliga o‘xshash, ammo unda funksiyalar foydalanuvchi tomonidan aniqlangan o‘zgaruvchilar yoki sinflar ob’ektini ham qaytarishi mumkin. Ada tili – zamonaviy boshqaruvchi tillar orasida funksiyalar har qanday tipli o‘zgaruvchilarni qaytara oladigan yagona til hisoblanadi.

11. Mahalliy bo‘lmagan muhitlarga kirish

Odatda, qism dasturlar o‘rtasidagi aloqa faqat parametrlar orqali o‘rnatilishiga qaramay, ko‘pchilik tillarda o‘zgaruvchilar bilan bog‘lanishning yana bir turi mavjd bo‘lib, u tashqi muhit orqali amalga oshiriladi.

Mahalliy bo‘lmagan o‘zgaruvchili qism dasturlar – bu qism dasturdako‘rinadigan o‘zgaruvchilar bo‘lib, lekin mahalliy e’lon qilinmagan bo‘ladi. Dunyoviy o‘zgaruvchilar – bu dasturning barcha modullarida ko‘rinuvchan bo‘lgan o‘zgaruvilar hisoblanadi. 4 bobda nomahalliy muhitlarga kirishning ikkita metodlari o‘rganib chiqilgan: statik to‘plam va dinamik to‘plam. Ushbu ishlab chiqarishdagi muammolar quyida ko‘rib chiqilgan.

Ma’lumotlarning statik to‘plamiagi asosiy muammo quyidagicha: dastur strukturasi mahalliy va dunyoviy o‘zgaruvchiarning kiritiluvchanligi bilan aniqlanadi. Bu muammolar to‘liq ravishda 4 bobda ko‘rib chiqilgan.

Ma’lumotlarning dinamik to‘plami ikki turdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, qism dastur boshlanishidan to tugalangunigacha ketadigan vaqt davrida mahalliy o‘zgaruvchilar bajarilayotgan har qanday qism dastur uchun ko‘rinuvchan bo‘ladi, bunda o‘z ichidagi ma’lumotlar bo‘yicha ushbu dasturlar qanchalik mosligiga ahamiyat berilmaydi. Bunday kirishlardan mahalliy

o‘zgaruvchilarni himoyalash mumkin emas. Qism dasturlar chaqirilayotgan modul muhitiga bog‘lif bo‘lmagan holda bajarildi. Buning natijasida, ma’lumotlarning dinamik to‘plami ma’lumotlarning statistik to‘plamiga qaraganda ishonchsizroq dasturlar yaratadi.

Dinamik to‘plam bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi muammo – bu nomahalliy o‘zgaruvchilarga o‘rnatilgan ssьlkalar tiplari muvofiqligini statistik tahlil qilish imkoniyatiniing yo‘qligidir, chunki bunday o‘zgarvchining taqdimotini statistik holda topishning hech ham iloji yo‘q.

Nomaalliy o‘zgarvchilarga kirishni amalga oshirish 9 bobda to‘liq ko‘rib chiqiladi.

11.1. FORTRAN dasturlash tilining COMMON bloklari

FORTRAN dasturlash tilida mahalliy o‘zgaruvchilar saqlanuvchi bloklarga kirish COMMONoperatori orqali amalga oshiriladi. Dasturda bunday bloklardan bir qancha bo‘lishi mumkin, va ulardan bittasidan tashqari qolgan hammasi nomga ega bo‘lishi lozim. (bitta nomlanmagan COMMON bloki ko‘pincha bo‘sh COMMON bloki deb nomlanadi va nomlangan COMMON-bloklardan farq qiluvchi xossalarga ega). COMMON blokiga kirishga ega bo‘lish yoki yaratish talab qilinuvchi har qanday qism dastur COMMON operatoriga ega va ushbu operator bu blokni nomlaydi hamda blokdagi ma’lumotlarga kirishdagi o‘zgaruvchilar ro‘yxatini beradi.

Dasturda cheksiz qism dasturlar yaratilishi mumkin bo‘lib, ular bir xil blokka yo‘naltirilgan COMMON operatoriga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu blok ko‘rsatilgan har bir qism dastur o‘zining o‘zgaruvchilari ro‘yxatini tuzishi mumkin va bu o‘zgaruvchilar soni hamdatiplariga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, bir dastur ramkasida bir xil blokni turli qism dasturlarda turlicha e’lon qilish mumkin. Birinchi qism dasturda quyidagi e’lon mavjud bo‘lsin:

```
REAL A (100)
INTEGER B (250)
COMMON / BLOCK1 / A, B
```

Boshqa qism dasturda e’lon boshqacha bo‘lishi mumkin:

```
REAL C (50), D (100)
INTEGER E (200)
COMMON / BLOCK 1 / C, D, E
```

BLOCK1 identifikatori to‘g‘ri chiziqlar bilan ajratilgan bo‘lib, blok nomini taqdim etadi. BLOCK1 blokidagi o‘zgaruvchilarga ikki xil qarash 8.3 rasmda

ko‘rsatilgan. Bu yerda, butun sonli va haqiqiy o‘zgaruvchilar bir xil hajmdagi xotirani egallaydi deb taxmin qilinadi.

Agar BLOCK1 bloki birgalikda qo‘llaniluvchi xotira bo‘lsagina, bu hol tushunarli bo‘lishi mumkin. Birgalikda qo‘llaniluvchi xotira – bu o‘zgaruvchilar ro‘yxati o‘zgarishiga ruxsat beradi. COMMON operatoridagi o‘zgaruvchilar ro‘yxatidagi oddiy bir o‘zgarish turli tipdagi o‘zgaruvchilar birgalikda xotiraning bir xil qismini egallashi aniqlash mumkin bo‘lgan xatolikka olib keladi.

FORTRAN 90 dasturlash tili tavsifi COMMON operatori “nomuvofiq xossa” ekanligini ko‘rsatadi. Bu ushbu operator FORTRAN tilining keyingi versiyasigagina qo‘shilishi mumkinligini bildiradi. Buning natijasida esa, ushbu tildan chiqarib tashlanadi. EQUIVALENCE operatori FORTRAN 90 tilining nomuvofiq xossalaridan biri hisoblanadi.

11.2. Tashqi e’lonlar va modullar

Modula-2 va Ada dasturlash tillari statik obzordan dastur modullari bilan ma’lumotlarni birgalikda qo‘llash vositasi kabi foydalanadi. Ushbu tillarning ikkalasida ham ma’lumotlarni birgalikda ishlatishning alternativ metodi ham ko‘rib chiqilgan. Dastur modullarida tashqi modullarni ko‘rsatishga imkon beriladi, bularga kirish talab qilinadi. Ushbu metod yordamida har bir modulda boshqa modullarni aniq ko‘rsatish mumkin bo‘lib, ularga albatta kirish huquqi lozim. Modula-2 tilida ushbu huquq faqat ko‘rsatilgan protseduralar, o‘zgaruvchilar va berilgan tashqi moduldagi ma’lumotlar tiplarigagina ochilishi mumkin. Ada dasturlash tilida dasturchi tashqi modulning faqat nomini kiritishi mumkin, keyin esa barcha tiplari, o‘zgaruvchilari va protseduralariga kirish huquqini beradi. Ushbu metod Modula-2 tilida ham qo‘llanilishi mumkin. Kirish talab qilinadigan barcha vositalarni ko‘rsatish, ko‘rinib turganidek, juda qiyin, chunki kerakli tiplar, o‘zgaruvchilar va protseduralar ro‘yxati juda uzun bo‘lishi mumkin. Ammo, ushbu metod modulni nomining o‘zinigina ko‘rsatishga qaraganda xavfsizroq.

FORTRAN 90 dasturlash tili ham nomahalliy ma’lumotlarni birgalikda tanlov asosida qo‘llashni o‘z ichiga jamlaydi, ushbu ma’lumotlar tiplar muvofiqligini tekshirishni amalga oshiradi.

Ushbu tilga xos xususiyatlar ma’lumotlar abstraksiyasi bilan birga 10 bobda to‘liq o‘rganib chiqilgan.

C++ hamda Java kabi ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash tillarida, ma’lumotlar to‘plamini inkapsulyatsiyalash uchun sinflardan foydalanish mumkin bo‘lib, ushbu sinflar boshqa sinflar bilan o‘zaro uzviy bog‘liq holda qo‘llaniladi. Sinflar 11 bobda to‘liq o‘rganib chiqilgan.

S tilida kiritilgan qism dasturlar mavjud emas, shuning uchun, qism dastur ob’ektlarining faqat birgina bosqichi mavjud. Dunyoviy o‘zgarishlarni yaratish

mumkin, bunda oldindan aniqlangan funksiyalarda ular e’lon qilinadi. Funksiyada tashqi o‘zgaruvchi kabi e’lon qilingan o‘zgaruvchiga kirish external operatori orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich fayldagi dunyoviy o‘zgaruvchilar e’lon qilinganidan so‘ng aniqlanuvchi barcha funksiyalar tashqi funksiya kabi e’lon qilinmasdan o‘zgaruvchilarga kira oladi. Ushbu metod juda qulay, ammo kirishga bo‘lgan huquqni keragidan ortiq miqdorda beradi.

12 Foydalanuvchi orqali aniqlanuvchi o‘rnatilgan operatorlar

Ada va C++ dasturlash tillarida foydalanuvchi operatorlarni o‘rnatishi mumkin. Bunga misol qilib, Ada tilidagi funksiyani ko‘rib chiqamiz, bunda u ikkita vektor skalyar ko‘paytmasini hisoblash uchun (*) ko‘paytirish operatorini o‘rnatadi. Ikkita vektorning skalyar ko‘paytmasi deganda, ushbu vektorlarning mos elementlarini juftlab ko‘paytirish tushuniladi. Aytaylik, VECTOR_TYPE o‘zgaruvchisi INTEGER tipidagi elementlarni saqlovchi massiv kabi aniqlangan bo‘lsin.

```
function “*” (A, B: in VECTOR_TYPE) return INTEGER is
SUM: INTEGER:=0;
begin
for INDEX in A’range loop
SUM := SUM+A (INDEX) * B (INDEX);
end loop; - for Index…
return SUM;
end “*”;
```

Ushbu funksiya aniqlanishida ko‘rsatilganidek, VECTOR_TYPE tipli operandlar orasida ko‘paytirish (*) belgisi qo‘yilishi bilanoq skalyar ko‘paytma hisoblanadi. Yulduzcha bundan keyin ham hohlagancha o‘rnatilishi mumkin, chunki funksiya aniqanishi oynali protokolga ega.

Yuqorida ko‘rsatilgan skalyar ko‘paytmani hisoblash funksiyasi C++ tilida ham yozilishi mumkin. Bunday funksiya prototipi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

```
int operator * (const vector &a, const vector &b, int len);
```

Albatta, savol yuzaga keladi: operatorni qancha marta o‘rnatish mumkin va uni juda ko‘p o‘rnatib yuborish yomon emasmi? Javob mana bunday: operatorni chekli miqdorda o‘rnatish mumkin, bu − dasturchining o‘ziga bog‘liq. Operatorning juda ko‘p o‘rnatilib yuborilishi sababli dasturning ishonchliligi yo‘qoladi. Ko‘p hollarda, dasturda boshqa turdagi operandlarga qo‘llaniluvchi operatorlar mavjud bo‘lsa, u o‘qiluvchan hisoblanadi. Hatto skalyar ko‘paytmada ham oddiy olish operatori tushunarli emas:

C:=A*B;

A, B va C o‘zgaruvchilar skalyar kattaliklar deb xato tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

Bundan tashqari, dasturiy ta’minot tizimlari ishlab chiqaruvchilarning turli guruhlari tomonidan yaratiluvchi modullardan yaratiladi. Agar turli guruhlar bir xil operatorni turli usullar bilan o‘rnatgan bo‘lsalar, modullar yagona tizimga birlashtirilishidan oldin ushbu nomutanosibliklarni yo‘qotish lozim.

13 O‘zaro bog‘liq dasturlar

O‘zaro bog‘liq dasturlar (coroutines) – bu qism dasturlarning alohida xilma-xilligidir. Odatda chaqiruvchi va chaqiriluvchi qism dasturlar orasidagi “boshliq-ishchi” munosabatidan farqli ravishda, chaqiruvchi va chaqiriluvchi o‘zaro bog‘liq dasturlar o‘zaro tengdir. O‘zaro bog‘liq dasturlarni boshqarish mexanizmi simmetrik modullarni boshqarish modeli deb ham ataladi.

Simmetrik modullarni boshqarish konsepsiyalarining asosiy kelib chiqish tarixini aniqlash qiyin. O‘zaro bog‘liq dasturlar eng oldingi maqolalarda sitaktik tahlilga qo‘llanilgan (Conway, 1963). O‘zaro bog‘liq dasturlarni qo‘llab-quvvatlash vositalariga ega bo‘lgan yuqori bosqichdagi birinchi dasturlash tili SIMULA 67 dasturlash tilidir. Eslatib o‘taylik, SIMULA ning boshlang‘ich maqsadi tizimlarni modellashtirish bo‘lib, ushbu tizimlar mustaqil jara1nlarni modellashtirishni talab qilgan. SIMULA 67 tilida o‘zaro bog‘liq dasturlarning yaratilishiga shu sababchi bo‘lgan. O‘zaro bog‘liq dasturlarni qo‘llovchi boshqa dasturlash tillari – bu BLISS (Wulf et al., 1971), INTERLISP (Teitelman, 1975) va Modula-2 (Wirth, 1985) dir.

O‘zaro bog‘liq dasturlar bir nechta kiruvchi nuqtalarga ega bo‘lib, o‘zaro bog‘liq dasturlar tomonidan boshqariladi. Ular chaqiruvlar orasida o‘z ahvolini qo‘llab-quvvatlash vositalariga ham egadir. Bu o‘zaro bog‘liq dasturlar o‘zlarining tarixlariga bog‘liq bo‘lishlari lozimligini va natijada, statistik mahalliy o‘zgaruvchilarga ega bo‘lishlari kerakligini bildiradi. O‘zaro bog‘liq dasturlarni qayta bajarish ularning boshlang‘ichi bilan mos tushmaydigan nuqtalardan boshlanadi. Buning natijasida, o‘zaro bog‘liq dasturlarni aktivlashtirishning ushbu jarayoni chaqiriq deb emas, balki yangilanish (resume) deb ataladi.

O‘zaro bog‘liq dasturlar qism dasturlarning bir xossasiga ega: bir vaqtning o‘zida faqatgina bir dona o‘zaro bog‘liq dasturlar bajarilishi mumkin. Ammo, o‘zaro bog‘liq dasturlar bajarilgunigacha operatsiyalarni bajarish ko‘pincha qo‘llaniladi va boshqaruvni boshqa o‘zaro bog‘liq dasturlarga beradi. O‘zaro bog‘liq dasturlar qayta aktivlashtirilganida operator bajarishini yangilashdan boshlaydi.

Asosiy adabiyotlar

1. Robert W. Sebesta, Concepts of Programming Languages, John Wiley & Sons, USA 2015.
2. Fundamentals of Computer Programming With C# (The Bulgarian C# Programming Book). Svetlin Nakov & Co., 2013
3. Andrew Troelsen. Pro C# 5.0 and the .NET 4.5 Framework Sixth Edition 2012 apress.

Glossariy

- Qism dastur – dasturning bir qismi bo‘lib, qachonki unga murojat qilinsagina o‘sha dastur ishga tushadi
- Void – qism dasturni qiymat qaytarmasligini anglatuvchi tipi hisoblanadi
- Lokal o‘zgaruvchi - qism dastur ichida e’lon qilgan yoki blok chegarasida ko‘rinish sohasiga ega
- Global o‘zgaruvchi - har qanday qism dasturlardan tashqarida e’lon qilinadi va programma bajarilishining oxirigacha amal qiladi. Bunday o‘zgaruvchilarga programmadan ihtiyoriy funksiyalardan murojat qilish mumkin
- New - massiv yaratishda bu operatordan foydalaniladi
- Sikl operatori – takrorlash sharti deb nomlanuvchi mantiqiy ifodani rost (true) qiymatida programmaning ma’lum bir qismlaridagi operatorlarni (takrorlash tanasini) ko‘p marta takror ravishda bajarishni amalga oshiradi (itaratsiya)
- **Break –** operatori sikldan chiqib ketishda foydalaniladi
- **BigInteger –** katta sonlar bilan ishlashga mo‘ljallangan klass
- **continue** – bu operatori xuddi break operatoridek takrorlash operatori tanasini bajarishni to‘xtatadi, lekin programmani qurilmadan chiqib ketmasdan takrorlashning keyingi qadamiga, for, foreach – sikl operatorlari

Amaliy mashg‘ulot.

1-misol. 2 ta sonni maksimal qiymatini topib konsolga chiqarib beruvchi Printmax deb nomlanuvchi metod yarating.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi, **1.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



1.1-rasm. Visual Studio 2013 tizimining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **FirstProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz. Natijada **1.2 rasm**da keltirilgan quyidagi oyna shakllantiriladi.



1.2-rasm. Dasturiy kod oynasi

Endi asosiy funksiya blokidan tashqari PrintMax deb nomlanuvchi metod yaratamiz uni kodi quyidagicha

```
 static void PrintMax(float number1, float number2)
  {
   float max = number1;

   if (number2 > max)
   {
     max = number2;
   }
   Console.WriteLine("Maximal number: " + max);
     }
```

PrintMax metodini asosiy funksiyadan chaqiramiz

```
using System;

class Program
{
  static void Main()
  {
   float var1, var2;
        var1 = float.Parse(Console.ReadLine());
        var2 = float.Parse(Console.ReadLine());
        PrintMax(var1, var2);          // konsoldan qiymat o'qib metodga jo'natish
        PrintMax(100.0f, -23.5f);

      }
      static void PrintMax(float number1, float number2)
```

```
    {
      float max = number1;

      if (number2 > max)
      {
        max = number2;
      }
      Console.WriteLine("Maximal number: " + max);
    }

}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. Konsol orqali 2 ta son kiritamiz va ularni maksimal qiymatini chiqarib beradi. Bundan tashqari ekrandan kiritilgan 100.0f, -23.5f sonlarni ham maksimal qiymatini konsolga chop etadi va 1.3-rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



1.3-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

2-misol. Massivni berilgan o‘lchamiga qarab tasodifiy sonlarni kiritish uchun InputArray metodini yarating. Xosil bo‘lgan massivni 3 ga ham 5 ga ham bo‘linadigan elementlarini yig‘indisini topuvchi ArraySum va massivni konsolga chop etuvchi Printarray deb nomlanuvchi metodlar yarating.

Visual Studio 2013 (VS 2013) muhiti o‘rnatilgach, tizim ishga tushiriladi, **2.1 rasm**da keltirilgan foydalanuvchi interfeysi shakllantiriladi.



2.1-rasm. Visual Studio 2013 tizimining boshlang‘ich sahifasi

VS 2012 muhitida biror turdagi dasturiy ta’minotni yaratish uchun **File** menyusidagi **New Project** buyrug‘ini ishga tushirish lozim. Natijada tizimda o‘rnatilgan bir qancha turdagi shablonlar (**Installed Templates**) taqdim qilinadi. Ular orasida **Visual Basic, Visual C#, Visual C++, Visual F#** va boshqalar mavjud. So‘ngra **Visual C#** qismini tanlab, shablonlar (Templates) ichidan **ConsoleApplication** qismini tanlaymiz. Yangi hosil qilinayotgan loyiha nomi (**Name**)ni **SecondProgramm** kabi kiritib, **OK** tugmasini bosamiz.

Endi asosiy funksiya blokidan tashqari **InputArray**, **PrintArray** va **ArraySum** deb nomlanuvchi metod yaratamiz uni kodi quyidagicha

```
static int[] InputArray(int n)
  {
    Random rd = new Random();
    int [] a=new int[n];
    for (int i = 0; i < n; i++)
    {
      a[i] = rd.Next(1, 1000);
    }
    return a;
```

```
  }

  static void PrintArray(int[] arrParam)
  {
    Console.Write("[");
    int length = arrParam.Length;
    if (length > 0)
    {
      Console.Write(arrParam[0].ToString());
      for (int i = 1; i < length; i++)
      {
        Console.Write(", {0}", arrParam[i]);
      }
    }
    Console.WriteLine("]");
  }

  static void ArraySum(int [] arrParam)
  {
    int summ=0;

    foreach(var arr in arrParam)
    {
      if (arr % 3 == 0 && arr % 5 == 0)
      {
        summ += arr;
      }
    }
    Console.WriteLine("Massivning 3 ga ham 5 ga ham bo'linadigan elementlar yig'indisi: {0}",
summ);
       }
PrintMax metodini asosiy funksiyadan chaqiramiz
using System;

class Program
{
  static void Main()
  {
    Console.Write("massiv o'lchamini kiriting: ");
    int n = int.Parse(Console.ReadLine());
    int[] a = new int[n];
    a = InputArray(n);

    Console.WriteLine("Hosil qilingan massiv:");
    PrintArray(a);

    ArraySum(a);
```

```
  }

  static int[] InputArray(int n)
  {
    Random rd = new Random();
    int [] a=new int[n];
    for (int i = 0; i < n; i++)
    {
      a[i] = rd.Next(1, 1000);
    }
    return a;
  }

  static void PrintArray(int[] arrParam)
  {
    Console.Write("[");
    int length = arrParam.Length;
    if (length > 0)
    {
      Console.Write(arrParam[0].ToString());
      for (int i = 1; i < length; i++)
      {
        Console.Write(", {0}", arrParam[i]);
      }
    }
    Console.WriteLine("]");
  }

  static void ArraySum(int [] arrParam)
  {
    int summ=0;

    foreach(var arr in arrParam)
    {
      if (arr % 3 == 0 && arr % 5 == 0)
      {
        summ += arr;
      }
    }
    Console.WriteLine("Massivning 3 ga ham 5 ga ham bo'linadigan elementlar yig'indisi: {0}",
summ);
  }
}
```

Endi ushbu dasturni **F5** tugmasi orqali ishga tushiramiz va sinovdan o‘tkazamiz. Konsol oynasi hosil bo‘ladi. Massiv o‘lchamini konsoldan kiritamiz va 1.3-rasmda keltirilgan natijaga erishamiz.



2.2-rasm. Konsol oynasi.

Agar dasturni ishlatish jarayonida biror xatolik sodir bo‘lsa, uni **<F10>** yoki **<F11>** funksional tugmalari orqali tekshirib ko‘rish mumkin. Ushbu holda dasturning har bir operatori ketma-ket bajarilib, zarur o‘zgaruvchi qiymatini uning nomiga sichqonchani yaqinlashtirib ko‘rish mumkin. Shuningdek, dasturning zarur tugun nuqtasiga **<F9>** tugmasini bosib yoki **stop** operatoridan foydalanib, ushbu tugun nuqtada o‘zgaruvchilarning qiymatlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud.

Amaliyot topshiriqlari

1. Eng yaxshi forvardni aniqlang va 5 tadan kam o‘yin o‘ynagan futbolistlar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
2. Barcha fan baholari bo‘yicha o‘rtacha balni aniqlang va o‘rtacha bali 4 dan yuqori bo‘lgan talabalar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
3. Kamida bir yil oldin sotilgan maxsulotlar sonini aniqlang va ular haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
4. Soni 5 tadan ko‘p bo‘lgan maxsulotlar qanchaligini aniqlang va bular haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
5. Mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha maxsulotlarni umumiy narxini aniqlang va bu maxsulotlar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
6. Umumiy narxi eng baland bo‘lgan maxsulot nomini ekranga chiqaring
7. Fizika fani baholari bo‘yicha o‘rtacha balni, informatika bo‘yicha bahosi 5 bo‘lgan talabalar sonini aniqlang va ular haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
8. “Ivanov” tomonidan sotilgan tovarlar sonini aniqlang, ular haqida ma’lumotni ekranga chiqaring va eng yuqori narxdagi tovarni aniqlang.

b
osib
yoki
sto
p
ope
rato
rida
n
foy
dala
nib,
ush
bu
tug
un
nuq
tad
a
o‘zg
aru
vchi
larn
ing
qiy
mat
lari
ni
teks
hiri
b
ko‘r
ish
imk
oni
yati
mav
jud.

9. Narxi o‘rtacha narxdan yuqori bo‘lgan maxsulotlar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
10. Betlar soni 150 tadan ko‘p bo‘lgan kitoblar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
11. Tiraj 10000 nusxadan oshmaydigan kitoblar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
12. Oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan, 30 yoshdan yuqori bo‘lgan hodimlar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
13. Hokkeychilarni o‘rtacha yoshini aniqlang va yoshi 25 dan katta bo‘lganlari haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
14. Tiraj 10 000 dan yuqori bo‘lgan plastinkalar haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
15. AMD firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan narxi minimal kompyuterni aniqlang va u haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring
16. Hokkeychilarni o‘rtacha yoshini aniqlang va yoshi 25 dan kichik bo‘lganlari haqida ma’lumotni ekranga chiqaring.
17. Mazkur yilda ishab chiqarilgan barcha maxsulatlarning o‘rtacha narxini aniqlang va haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
18. Maxsulotlarni o‘rtacha narxini va minimal narxdagi maxsulotni aniqlang.
19. Eng kichik hodimni aniqlang va haqida ma’lumotni ekranga chiqaring
20. Matematikani “95” ga topshirgan talabalar familiyasini chop eting va ularni soni nechtaligini aniqlang
21. Omordagi soni eng ko‘p bo‘lgan maxsulotni aniqlang va u haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
22. Operativ hotira hajmi 10 Gbaytdan katta bo‘lgan kompyuterlar soni qanchaligini aniqlang va ular haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
23. Yoshi 19 dan katta bo‘lgan talabalar sonini aniqlang va ular haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
24. Yoshi 60 dan katta bo‘lgan hodimlar sonini aniqlang ular haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
25. Omordagi soni eng qimmat maxsulotni aniqlang va u haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
26. Barcha kompyuterlarning o‘rtacha narxini hisoblang va kompyuterlarni nom va o‘rtacha narxini ekranga chiqaring.
27. Injener – hodimlarni sonini aniqlang va ular haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
28. Talabalarni fizika bo‘yicha o‘rtacha ballarini xisoblang va talabalarni familiyasi, tugilgan sanasi va informatika bo‘yicha baholarini chop eting.
29. Uzog‘i bilan ikki yil oldin chiqarilgan maxsulotlarni sonini aniqlang va ular haqida barcha ma’lumotni ekranga chiqaring.
30. DVD ROM mavjud bo‘lgan kompyuterlarni aniqlang va ular haqida

Testlar

1. Dasturlash tili qanday abstraksiyalarni o‘z ichiga oladi?
a) jarayon abstraksiyasi va ma’lumot abstraksiyasiyalarini
b) jarayon abstraksiyasi
c) ma’lumot abstraksiyasi
d) yagona bstraksiyasi

2. Jarayon abstraksiyasi nima?
a) Qism dasturlarning shakli bo‘lib, xamma dasturlash tillarida asosiy tushuncha xisoblanadi.
b) Qism dastur.
c) Katta dastur.
d) Qism dastur o‘zagi

3. Dasturlashtirilgan 1-kompyuterning nomi qanday?
a) Uning Analitik
b) Babbage Uning Analitik Enginer
c) Babbage
d) Analitik Enginer

4. Qism dasturlarni qanday fundamental turlari bor?
a) jarayon
b) protsedura va funksiyalar
c) jarayon,protsedura va funksiyalar
d) qism dastur, protsedura va funksiyalar

5. Qism dasturlarning qisqacha qanday parametrlari o‘z ichiga oladi?
a) raqamli va rasmiy parametrlar
b) raqamli parametrlar
c) rasmiy parametrlar
d) to‘g‘ri javob berilmagan

6. Qism dasturlar odatda nimalar aks ettiradi?
a) hisoblashlarni
b) parametrlarni
c) hisoblashlarni va parametrlarni
d) sonlarni

7. Kalit so‘z parametrlariga qushimcha qanday beriladi?
a) Ada, Fortan 95+, python
b) Ada
c) Fortan 95+
d) Ada va Fortran

8. Qism dasturlarning qanday alohida kategoriyalari bor?
a) tartibi va vazifalari
b) tartibi

c) vazifalari
d) xossali

9. Lokal o‘zgaruvchilar qanday bo‘lishi mumkin?
a) statik yoki dinamik
b) statik
c) dinamik
d) lokal o‘zgaruvchi ko‘rsatkich bo‘ladi

10. Statik lokal o‘zgarvchilarni dinamik lokal o‘zgaruvchilardan afzalligi nimada
a) joylashtirish va kaytarishga ko‘prok vakt sarflaydi
b) joylashtirish va kaytarishga kamroq vakt sarflaydi
c) afzalligi yo‘q.
d) xotradagi sig‘imi kam

11. Ada tili zamonaviy boshqaruvchi tillar orasida qanday til hisoblanadi?
a) Ada tili zamonaviy tillar orasida funksiyalar har qanday tipli uzgaruvchilarni qaytara oladigan yagona til xisoblanadi.
b) Ada tili zamonaviy tillar orasida funksiyalar faqat butun tipli o‘zgaruvchilarni qaytara oladigan yagona til xisoblanadi.
c) Ada tili zamonaviy tillar orasida funksiyalar o‘zgaruvchilarni qaytara oladigan yagona til xisoblanadi.
d) To‘g‘ri javob berilmagan

12. **FORTRAN dasturlash tilida lokal o‘zgaruvchilar saqlanuvchi bloklarga kirish qaysi** operator orqali amalga oshiriladi.
a) COMMON.COM
b) COM
c) COMMON
d) CRL

13. SIMULA 67 tilining boshlang‘ich maqsadi nima?
a) Dasturlarni modellashtirish
b) Tizimlarni modellashtirish
c) Funksiyalarni modellashtirish
d) Protseduraviy modellashtirish

14. Qaysi tilda funksiyalar faqat kiritish rejimida yuboriluvchi rasmiy parametrga ega.
a) Ada tilida
b) Modula2 tilida
c) Modula1 tilida
d) Modula1 va Modula2 tilida

15. Qaysi tillarda chaqiruvlar metodning kerakli versiyasi bilan dinamik bog‘lanadi.
a) Modula1,Modula 2, Ada
b) Smalltak, Java, Ada95, S++
c) S# , SIMULA 67, Ada

d) S++, Fortran, Ada

16. Quydagi shablonli funksiyada Type qanday vazifani bajaradi.

```
Template <class Type>
Type max (Type first, Type second)
{
        return first <  second > frsit: second;
}
```

a) konstruktor
b) parametr
c) metod
d) xossa

17. Ada tilida qaysi tizmlarni parametri kabi qo‘llab bo‘lmaydi.

A) bo‘lmaydi
B) bo‘lmaydi
S) tizimga bog‘liq

18. S# dasturlash tilini ma’lumotlar ba’zasi bilan bog‘lab bo‘ladimi.

a) bo‘ladi
b) bo‘lmaydi
c) mumkun emas
d) faqat oddiy dasturlarda bog‘lanadi

19. **S# tilida kataloglar bilan ishlash uchun nomlar fazosida qaysi kutubxonadan** foydalaniladi.

a) using system IO
b) using system Netfromvork
c) using system form Application
d) using System model

20. S# tilida satrlar bilan ishlash uchun qaysi kalit suzdan foydalaniladi.

a) int
b) float
c) string
d) bool

9-mavzu. Ma’lumotlarning abstrakt tiplari va inkapsulyatsiya tuzilishi

Reja:

1. **Abstraksiya tushunchasi**
2. **Inkapsulyatsiya**
3. **Ma’lumotlr abstraksiyasiga kirish**
4. **Tiplarni rivojlantirish**
5. **Ma’lumotlar abstraksiyasining turli tillardagi ko‘rinishlari**
6. **Parametrlashgan ma’lumotlar abstrakt tipi**

Dastlab dasturlash va dasturlash tillaridagi abstraksiyaning umumiy tushunchalarini ko‘rib chiqamiz. Keyin dasturlash tillaridagi inkapsulyatsiyani muxokama qilamiz. So‘ngra aniq misollar bilan mustahkamlangan ma’lumotlar abstraksiyasining qoidasi beriladi. Undan so‘ng SIMULA67 tilidagi ma’lumotlar abstraksiyasining qisman qo‘llanilishining qisqacha tavsifi keltiriladi. Ma’lumotlar abstraksiyasi dasturlanishini tillar bilan butunlay qo‘llab-quvvatlash ikkita aniq til: Ada va C++ atamalari bilan muhokama qilinadi. Ma’lumotlar abstraksiyasi misollarini amalga oshirilishi shu tillardagi har bir ma’lumotlar bilan ko‘rsatilgan. Bu ma’lumotlar abstraksiyani qo‘llab quvvatlaydi, til vositalarini qo‘llashdagi farqlar va hususiyatlarni ajratishga yordam beradi. Ada tili alternativi sifatida Modula-2, Java tili ma’lumotlar abstraksiyasini qo‘llab-quvvatlash esa C++ alternativi sifatida ko‘rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda Ada va C++ tillarida abstrakt tiplar parametrlarini yaratish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Shuni qayd etamizki, bu kitobda “*ma’lumotlar abstraksiyasi*” va “*ma’lumotlar abstraksiyasi turlari*” jumlalari bir ma’noni anglatadi.

Abstraksiya tushunchasi

Abstraksiya – bu faqatgina mana shu kontekstga hos bo‘lgan hususiyatlarga ega bo‘lgan ayrim ob’ektlar haqidagi tasavvur yoki fikrdir. Abstraksiya ob’ektlarni ichidan qarab chiqmasdan ya’ni ulardan mavhumlangan ob’ektlar nusxalarini guruxlarga birlashtirish imkoniyatini beradi. Bunda gurux ichida faqatgina uni bir – biridan ajratib turadigan alohida elementlar hususiyatlarigina o‘rganish kerak bo‘ladi. Bu gurux elementlarini ancha soddalashtiradi. Ob’ektlarni mukammal o‘rganish zaruriyati bo‘lganda ular haqidagi mavhum bo‘lgan tasavvurlarni ham qarab chiqish zarur. Abstraksiya – bu dasturlashni dasturlarni murakkabligiga qarshi samarali vositadir. Chunki u dasturchiga ob’ektlarni muhim xususiyatlariga diqqatni qaratishni majbur qiladi, muhim xususiyatlarini inkor qiladi. Zamonaviy dasturlash tillarida abstraksiyani 2 asosiy turi mavjud: jarayon abstraksiyasi va ma’lumotlar abstraksiyasi.

Jarayon abstraksiyasi tushunchasi – dasturlash tillari ishlab chiqarish soxasidagi ilk tushunchalardan biridir. Hatto PlankalkUl tili ham jarayon abstraksiyasini qo‘llab quvvatlaydi. Barcha qism dasturlar jarayon abstraksiyasi hisoblanadi, chunki ular qism dastur o‘rnatgan uslubni aniqlaydi (hech bo‘lmaganda chaqiruvchi dasturda) . Masalan agar dasturda ayrim tiplar ma’lumotlarni son massivini tartibga solish kerak bo‘lsa, odatda tiplash vazifasini bajaruvchi qism dastur ishlatiladi. Dasturni tiplashni amalga oshiradigan nuqtasida quyidagi operator qo‘llaniladi:

```
Sort int (list, list_len)
```

Bu chaqirishni real tiplash jarayonining abstraksiyasi bo‘lib,, uning algoritmi aniqlanmagan. Chaqirish chaqirayotgan qism dastur amalga oshiradigan algoritmiga bog‘liq emas. **Sort_int** qism dasturning yagona muxim xususiyatlari tartib solinadigan massivni nomi uning elementlarining tipi va shu faktki **Sort_int** qism dastur massivni saralashga olib keladi. **Sort_int** aynan qanday algoritmni bajarishi foydalanuvchi uchun muxim emas.

Jarayon abstraksiyasi – dasturlashdagi asosiy tushunchadir. Qism dastur bajaradigan algoritmni ko‘p detallardan abstraksiyalash imkoniyatlari katta dasturlarni yaratish , o‘qish va tushintirish imkoniyatini beradi. Eslatamizki hech bo‘lmaganda bir necha ming kod qatoriga ega bo‘lgan dastur xozirgi paytda katta dastur hisoblanadi. Barcha qism dastur jumladan (oldingi mavzuda ko‘rilgan) parallel qism dasturlar hamda boshqa xolatlarni qayta ishlash jaryonlarini o‘z ichiga olganlar jarayonlar abstraksiyasi hisoblanadi. Ma’lumotlar abstraksiya evolyusiyasi jarayonlar evolyusiyasi birgalikda olib boriladi. Chunki har qanday abstraksiyaning muxim va ajralmas qismi jarayonlar abstraksiyasi operatsiyasi yordamida aniqlanadi.

Inkapsulyatsiya

Inkapsulyatsiya ma’lumotlar tiplari abstraksiya tiplaridan oldin keladi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Dastur o‘lchami bir necha ming qatorga yetganda 2 ta amaliy muammo paydo bo‘ldi. Dasturchilar nuqtai nazarida dasturga qism dasturlarning yagona to‘plami sifatida qarash dastur tashkil qilish, uni boshqarishning adekvat darajasini ta’minlaydi. Dasturni mantiqiy bog‘liq qism dasturlar va ma’lumotlarga ega bo‘lgan guruhlarini o‘z ichiga olgan sintaksik konteynerlarga bo‘lib, bu muammoni yechish mumkin. Bu sintaktik konteynerlar modullar deb ataladi, ularni qayta ishlash jarayoni modulyarizatsiya deyiladi. Katta dasturlar bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi amaliy muammo takroriy kompilyatsiya muammosi. Kichchik dastur uchun xar bir modifikatsiyadan kiyin butun dasturni takroran kompilyatsiya qilish xech narsa emas. Biroq dasturning o‘lchami bir necha ming qatorgacha yetsa takroriy kompilyatsiyaning bahosi ancha katta bo‘ladi. Demak dastur o‘zgarmas qismlarining takroriy kompilyatsiyasiga yo‘l qo‘ymaslik usullarini topish kerak. Buni qilish uchun shunday ma’lumotlar va qism programmalar to‘plamidan iborat dastur tuzish kerakki ulardan har biri aloxida dasturni boshqa qismini takroriy kompilyatsiya qilmasdan alohida qismlarini olib qilish mumkin. Bunday to‘plam kompilyatsiya birligi deyiladi.

Inkapsulyatsiya – bu qism dasturlarning va ular qayta ishlaydigan ma’lumotlarni yagona qilib birlashtirish usulidir. Aloxida kompilyatsiya qilinadigan yoki boshqa dasturlardan mustaqil bo‘lgan inkapsulyatsiya abstraksiya tizimining va to‘g‘ri keluvchi xisob-kitoblar yig‘indisini mantiqiy tashkil qilishning asosidir. Shundan kelib chiqadiki yuqorida ko‘rsatilgan ikkala muammoni ham inkapsulyatsiya yechadi.

Inkapsulyatsiyalarni ko‘pincha kutubxonalarga joylashtirishadi va ularni boshqa dasturlarda qayta qo‘llash uchun ochiq qoldiradilar.

Dasturchilar o‘lchami bir necha ming bo‘lgan dasturlarni 40 yillardan buyon yozib keladilar, demakki inkapsulyatsiya yaratish texnikasi allaqachonlar rivojlanib ulgurgan.

Ko‘pgina algoritmik dasturlash tillarida ular qo‘llaydigan qism dasturlardan ancha yuqori darajada bo‘lgan qism dasturlar ko‘rinishida tashkil qilish mumkin. 4- mavzuda muhokama qilinganidek tasvir kontekstidan foydalanadigan dasturni tashkil qilish uslubi idealdan ancha uzoq. Bundan tashqari dasturlashning ayrim tillarda qism dasturlar kompilyatsiyasining birliklari hisoblanmaydi. Demakki ularni inkapsulyatsiya uchun mos konstruksiya deb atalmaymiz.

FORTRAN 77 tilida qism dasturlarni fayllarga yeg‘ish, bir biridan mustaqil holda kompilyatsiya qilish va kutubxonalarga joylashtirish mumkin. COMMON - bloklar tavsiflari to‘plamlarni analogik tarzda qayta ishlash mumkin. Bu dasturlarning tashkil qilishning samarali

usuli. Lekin bunday inkapsulyatsiyalarning ishlatishda interfeys tekshiruvi yo‘q. Shuning uchun bunday yondashuv o‘z tabiyatiga ko‘ra xavfsiz emas.

C tilida ma’lumotlar tavsifi va o‘zaro bog‘liq funksiyalarni to‘plamlarini boshqa fayllardan mustaqil kompilatsiya qilingan boshqa faylga joylashtirish mumkin. C tili kompilyatorlari hozirgi paytda kerakli darajada ayrim funksiyalarning interfeysi to‘g‘riligini tekshirishiga qaramay ular hali ham boshqa fayllardagi ma’lumotlar aniqligini tekshirishni amalga oshirmaydi(“ Kerakli darajada aniq ” jumlasi ostida biz shunday funksiyalarni nazarda tutamizki ular ANCI S standartiga mos kelmaydigan funksiyalar sarlavhasidan foydalanmaydilar). Demak C fayllari ham xavfsiz inkapsulyatsiyani ta’minlay olmaydi. Ko‘pgina zamonaviy tillar , jumladan FORTRAN 90 va Ada qism dasturlar to‘plamlarini turlarini va ma’lumotlarini modullarga yig‘ish imkoniyatini beradi. Bu modullarni alohida kompilyatsiya qilish mumkin. Bunda shuni nazarda tutish kerakki ularni interfeysi haqidagi ma’lumotlar kompilyatorda interfeys tipini boshqa modulda ishlatilganda tekshirish uchun saqlanadi. Ko‘rib chiqilayotgan tillar shuningdek bu modular asosini boshqarish mexanizmiga ega. Bu esa modulga tashqi modullarga ko‘rinarli bo‘lgan ayrim tiplarni o‘zida aks ettirish imkoniyatini beradi. Bunda bu tiplarni namoyish etish boshqa mohiyatlar uchun faqat modul ichida mumkin. Bu modullar a’lo darajadagi inkapsulyatsiyani ta’minlaydi . Ular faqatgina dasturning aniq va mantiqiy tashkil qilishi qo‘llab-quvvatlab qolmasdan balki bu dasturiy tuzilmani dasturchilar uchun tushunarli qiladi.

SIMULA 67, Ada va S++ tillaridagi inkapsulyatsiyani ta’minlash vositalarini o‘ziga hos hususiyatlari ma’lumotlar abstract tiplari bilan birga 5 qismida muhokama qilinadi.

3 Ma’lumotlr abstraksiysiga kirish

Ma’lumotlar abstrakt tipi – bu shunday inkapsulyatsiyaki uning tarkibiga bitta aniq tip ma’lumotlari va shu tip ma’lumotlari bilan operatsiyalar bajaruvchi qism dasturlar kiradi. Kirishni boshqarish yordamida tipni tasvirlashning muhim bo‘lmagan qismlarini shunday tip foydalanadigan tashqi moduldan berkitish mumkin. Ma’lumotlarning abstrakt tipi foydalanadigan dasturli modular shu tipni o‘zgarishlarini e’lon qilishi mumkin, garchand tipning aniq tasavuri ulardan berkitilgan bo‘lsa,da, ma’lumotlar abstrakt tipi nusxasi ob’ekt deb ataladi.

Ma’lumotlar abstrakt tipi va jarayon abstraksiyasi yaratilishining bitta umumiy sababi bor. Bu – murakkablikka qarshi vosita, katta va murakkab dasturlarni boshqara oladigan usuli. Yaratishning boshqa mavzulari va ma’lumotlar abstrakt tipilari afzalliklari shu mavzuning davomida muxokama qilinadi huddi jarayonlar abstraksiyasidek jarayonlar abstraksiyasi ham dasturlashning butkul turli xil usullariga ijozat beradi.

So‘ngi yillarda dasturlash ta’minoti ishlab chiqarishning ommaviyligi oshib boryotgan yangi usuli – ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash. Keyingi mavzuda tasvirlangan ob’ekt yo‘naltirilgan dasturlash, bu dastur ishlab chiqarishda ma’lumotlar abstraksiyasi qo‘llanishi natijasidir, ma’lumotlar abstraksiyasi esa uning muxim tarkibiy qismlaridan biridir.

3.1. haqiqiy (haqiqiy (suzuvchi nuqtali)) son ma’lumotlar abstrakt tipi sifatida

Ma’lumotlar abstrakt tipi tushunchasi chunonchi kiritilgan tiplar atamalarida – yangi kashfiyot emas. Barcha ma’lumotlarni kiritilgan tiplar hattoki FORTRAN 1 tilidagilari ham abstraksiya hisoblanadi, garchand ularni ham holatlarga shunday atasa ham. Misol uchun haqiqiy (suzuvchi nuqtali) sonlarni qarab chiqamiz. Dasturlashning ko‘pgina turlari bunday sonlarni hech bo‘lmasa bitta tipi haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladiki , bu tip o‘zgaruvchilarining yaratish va ular bilan arifmetik amallar bajarish imkoniyatini beradi. Yuqori darajadagi tiplar tillarida haqiqiy sonlarni taqdim etish uchun ma’lumotlar abstraksiyasida kalit tushuncha: ma’lumotlar berkitish.

Haqiqiy sonlarni saqlashga mo‘ljallangan hotira yacheykasidagi ma’lumotlar haqidagi real tasavvur foydalauvchidan berkitilgan. Ular bilan faqatgina tilda ko‘zda tutilgan operatsiyalarni yoki jarayonlarni bajarish mumkin. Foydalanuvchi bu tip ma’lumotlari bilan operatsiyalar yarata olmaydi. Kiritilgan operatsiyalar yordamida yaratilganlaridan tashqari. Bundan tashqari haqiqiy sonlar aniq tasavvurlarining qismlari bilan bevosita minipulyatsiya qilish mumkin emas. Chunki bu tasavvurlar foydalanuvchidan berkitilgan. Shunday qilib tilning aniq realizatsiyasi o‘rtasida dasturlarning o‘tuvchanligi ta’minlanadi., garchand bu realizatsiyalar haqiqiy sonlarning har-xil tasavvurlarida ishlatilsa ham.

3.2. Foydalanuvchi tomonidan aniqlangan ma’lumotlarning abstrakt tiplari

Foydalanuvchi tomonidan aniqlangan ma’lumotlar abstraksiyasi tushunchasi nisbatan yaqin vaqt ichida paydo bo‘ldi. Foydalanuvchilar tomonidan ma’lumotlar abstraksiyasi tiplari huddi haqiqiy sonlarning hususiyatlari kabi bo‘lishi kerak:

1) Tipni aniqlashning modullari dasturlariga bu tip o‘zgaruvchanligi e’lon qilishga yo‘l qo‘yadigan hotirada bu o‘zgaruvchilar haqida aniq tasavvur hosil qiladigan aniq qoida

2) Berilgan tip ob’ektlari bilan minipulyatsiyalari uchun operatsiyalari to‘plami.

Keyinchalik foydalanuvchi aniqlagan tiplar kontekstidagi ma’lumotlar abstrakt tipining shakliy qoidasi keltiriladi. Ma’lumotlar abstrakt tipi – bu quyidagi ikki shartni qoniqtiradigan ma’lumotlar tipidir:

- Tip haqidagi tasavvur va shu tipdagi ob’ektlar ustidagi operatsiyalar bitta sintaktik birikmada mavjud. Bundan tashqari bu tip o‘zgaruvchilarini boshqa modullarda ham yaratish mumkin.
- Berilgan tip ob’ektlari haqidagi tasavvur dasturiy modullardan bekitilgan, demakki bunday ob’ektlar ustida faqatgina tip aniqlanishida to‘g‘ridan – to‘g‘ri ko‘zda tutilgan operatsiyalarni amalga oshirish mumkin.

Ayrim ma’lumotlar abstrakt tipidan foydalanuvchi dasturiy modullar shu tipning modulari deb ataladi.

Tip va operatsiyalarni alohida sintaktik birikmaga joylashning asosiy afzalliklari huddi inkapsulyatsiyadagidek, ya’ni, birinchidan bu dasturlarni alohida kompilatsiya qilish mumkin bo‘lgan logik birikmalarni tashkil qilish imkonini beradi, ikkinchidan shu tip ob’ektlaridagi tasavvurlar yoki ular bilan bo‘lgan operatsiyalarni dasturni alohida qismida modifikatsiya qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tip tasavvuri detallarini ochishning bir qancha afzalliklari bor. Bulardan eng muhimi shuki, mijozlar ob’ektlar tasavvuri detallarini ko‘ra olmaydilar va bundan kelib chiqadigi ularni ko‘di bu tasavvurga bog‘liq emas. Shunday qilib ob’ektlar tasavvurlarini xoxlgan paytda o‘zgartirish mumkin. Bunda mijozlar kodini o‘zgartirishni talab qilishni xojati yo‘q. Abstrakt interfeysni uning ayrim (hammasi emas) xususiyatlarini namoyish etadi.

Ma’lumotlar ochishning boshqa aniq va muhim ustinligi uning yuqori ishonchliligidir. Mijozlar ob’ektning asosiy tasavvurlarini bilvosita ataylab yoki tasodifan o‘zgartira olmaydilar. Shuning uchun bunday ob’ektlarning yaxlitligi ortadi. Ob’ektlarni faqatgina ular uchun mo‘ljallangan operatsiyalar yordamida o‘zgartirish mumkin. Ma’lumotlar abstrakt tiplari tasavurlarini ochish detallarini muhimligini qayta baxolash qiyin.

3.3 Misol

Aytaylik stek uchun berilganlar abstrakt tipini yaratish zarur, buning uchun quyidagi abstrakt operatsiyalarga ega:

create(stack) stek tipidagi ob’ektni yaratish va nomlash mumkin.
destroy(stack) stek egallaydigan xotirani bo‘shatadi.

empty(stack) predikat(bul) funksiyasi , “xaqiqat” ma’nosini qaytaradi va aksincha agar stek bo‘sh bo‘lsa, “yolg‘on” qiymat qaytaradi.

push(stack,element) ko‘rsatilgan elementni ko‘rsatilgan stekka joylashtiradi.

top(stack) ko‘rsatilgan stekdan yuqori elementni o‘chirib tashlaydi.

top(stack) ko‘rsatilgan stekdan yuqorida turgan elementni nus’hasini qaytaradi.

Qayd etamizki ma’lumotlar abstrakt tipini ayrim qo‘llashlar ob’ektlarini yaratish va buzish operatsiyalarini ko‘zda tutmaydi . Masalan ma’lumotlar abstrakt tipining o‘zgaruvchilarining sodda qoidasi ma’lumotlar zarur strukturasini noaniq tuzishi mumkin va noaniq nomlashi mumkin. Stek tipidagi mijoz quyidagi birin ketinligidagi operatorlariga ega bo‘lishi mumkin:

```
....
create(STK1);
 push(STK1, COLOR1);
 push(STKl, COLOR2);
 if(not empty(STK1))
 then TEMP := top(STKl);
....
```

Aytaylik stek abstraksiyasining dastlabki qo‘llanilishi uni massiv elementlarining birin ketinligi ko‘rinishida taqdim etadi. Keyinchalik xotira boshqarishdagi muammalar tufayli massivga bog‘liq stek o‘zaro bog‘liq ro‘yxat ko‘rinishida taqdim etila boshlanadi. Ma’lumotlar abstraksiyasidan foydalanilganligi tufayli bunday o‘zgaruvchilarning stek tipini aniqlovchi kodga kiritish mumkin , lekin bunda , bironta mijoz kodiga o‘zgartirish mumkin emas. Shuningdek yuqorida keltirilgan operatorlar ketinligini o‘zgartirishsiz qoldirish mumkin. Albatta har qanday operatsiya pratakolidagi o‘zgarishlar mijozlar kodlaridagi o‘zgarishlarni talab qilishi mumkin.

Agar stek ma’lumotlar abstrakt tipi sifatida tadbiq etilmagan bo‘lsa, bunday o‘zgarishlar mijozlar kodlarini o‘zgarishlariga olib kelgan bo‘ladi. Aytaylik stek bilan operatsiyalar. Ada tilida massiv operatsiyalari sifatida amalga oshirilgan stek taqdimotlarining massivdan bog‘langan ro‘yxatga o‘zgarishi mijozlar kodlari modifikatsiyasini talab qiladi . Endi ular ko‘rsatkichlarni berish kerak , lekin stek operatsiyalarini amalga oshiruvchi jarayon parametrlarining massivlari nomlari sifatida emas. Bu holatda ayrim operatsiyalar pratakollari o‘zgarishi kerak, oqibatda mijozlar kodlariga o‘zgarish kirishi mumkin. Xulosa qilib aytamizki ma’lumotlar abstraksiyasining maqsadi dasturlarga ma’lumotlar tiplarini aniqlash imkoniyatini berishdir.

Tiplarni rivojlantirish

Dasturlash tilida ma’lumotlar abstarakt tiplarini aniqlash vositalari sintaksik birikmalar yaratishni ta’minlaydi, ular tip va abstrakt operatsiyalarni bajaruvchi qism dasturlar qoidalarini inkapsulyatsiya qilish mumkin. Tip nomini va qism programmalar sarlovhalarini abstrakt mijozlariga ko‘rinarli qilish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak. Bu mijozlarga abstrakt tip o‘zgaruvchilarini e’lon qilish va ular ma’nolari bilan manipulatsiya qilish imkoniyatini beradi . Tipning nomi tashqaridan ko‘rinarli bo‘lishiga qaramay uning aniqlanishi yashirin bo‘lishi kerak. Tip aniqlovchi operatsiyalarga nisbatan abstrakt tiplar ob’ektlari bilan bariladigan umumiy kirish operatorlari juda kam. Shunchaki ma’lumotlar abstrakt tipi keng doirasiga kirishi mumkin bo‘lgan katta miqdordagi operatsiyalar mavjud emas. Bunday operatsiyalarga o‘zlashtirish ,shuningdek tenglik va tengsizlik operatsiyalari kiradi. Agar til foydalanuvchiga o‘zlashtirish operatsiyasini yuklash imkoniyatini bermasa, u holda u o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Tenglik va tengsizlikni tekshirish

oldindan aniqlangan ayrim hollarda aniqlanmagan. Masalan ko‘rsatkichlar tenglikni bildiradi. Lekin foydalanuvchi bunday tenglik manzillari ko‘rsatkichlarda saqlangan strukturalar tenglikni bildirishni xoxlashi mumkin.

Ayrim operatsiyalar ma’lum abstrakt tiplari ko‘pchilgi uchun kerak. Lekin ular universal bo‘lmaganligi tufayli tipni ishlab chiqaruvchi ularni o‘zi aniqlashi kerak. Bunday opeatsiyalarga iteratsiyalar, konstruktorlar va destruktorlar kiradi. Iteratsiyalar oldingi mavzularda muhokama qilingan. Konstruktorlar yangi yaratilgan ob’ektlar qisimlarini nomlash uchun foydaliniladi. Destruktorlar abstract tiplar ob’ektlari bilan band bo‘lgan dinamik xotirani qisimlarini bo‘shatish uchun ishlatiladi. Oldin aytib o‘tilganidek ma’lumotlarning alohida tipining va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni inkapsulyatsiya amalga oshiridi. Concurrent Pascal (Brinch Hansen, 1975), Smalltalk (Goldberg and Robson, 1983), C++ va Java tillari ma’lumotlari abstrakt tipini bilvosita qo‘llab-quvvatlaydi. Bunga alternativ umumiy konstruksiyalarni qo‘llab quvvatlash bo‘lib, ular predmetlarning har qanday miqdorini aniqlatdi, ularning har biri alohida xolida moduldan tashqarida ko‘rinadi. Bu yondashish Modula-2 va Ada dasturlash tillarida amalga oshirilgan. Biz bu loyihalarni inkapsulyatsiya deb atadik. Inskopsulatsiya ma’lumotlar abstract tipi emas balki ularni umumlashtiruvchisidir va shu hususida inkapsulyatsiya dan ma’lumotlar abstrakt tipini aniqlashda foydalanish mumkin.

